

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

DILAFRO'Z BOTIROVA

**MUTAXASSISLIKKA
KIRISH**

O'quv qo'llanma

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi
tomonidan oliy o'quv yurtlarining 60310300-Psixologiya bakalavriat ta'lif
yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT 2025

UO'K: 159.9

KBK: 88.4

J-80

D.B.Botirova Mutaxassislikka kirish O‘quv qo‘llanma – T., 2025. – 130 b.

Mazkur “Mutaxassislikka kirish” fani bo‘yicha tayyorlangan o‘quv qo‘llanma psixologiyaning fan va kasb sifatidagi asosiy tushunchalarini, psixolog faoliyatining asosiy yo‘nalishlari haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, 60310300 - Psixologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanmada, psixologiya fanining dolzarb vazifalari, predmeti, fanning yuzaga kelish tarixi va psixologiyaning zamonaviy metodlari va ularni amaliyotga tatbiq etish, psixolog shaxs kasbiy va shaxsiy rivojlanishi , va unga quyiladigan talablar masalalariga bag‘ishlangan..

Taqrizchilar:

Abdullayeva Sh.X. - psixologiya fanlari doktori, professor

Dushanov R.X. - psixologiya fanlari doktori, v.b., professor

Mazkur o‘quv qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining 2025-yil 28-maydagi 126-UM- son buyrug‘iga asosan O‘quv- uslubiy kengashining 2025 yil 16 may oyidagi 8-sonli majlisida muhokama etilib. nashr etishga ruxsat berildi.

KIRISH

XXI asrda shaxsning o‘rganilishi va ilmiy tadqiq qilinishi bilan bog‘liq psixologik talablar tobora jadallahib bormoqda. Buning sababi, inson — ijtimoiy mavjudot sifatida — doimo tashqi muhit va ichki ruhiy holatlarning o‘zaro ta’siri ostida shakllanadi va rivojlanadi. Shaxsning kamol topishi, uning individual va ijtimoiy xususiyatlari esa, eng avvalo, unga ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillar, hamda ularning o‘ziga xos imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama barkamol bo‘lib ulg‘ayishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagagi PQ-3907-sonli qarori – “Yoshlarga ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiya berish, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi hujjat – ushbu yo‘nalishda muhim qadam bo‘ldi. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash, shuningdek, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘quvchilarini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish borasida ilgari surilayotgan qator g‘oyalar amaliy psixologiyaning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni eshigini ochmoqda. Shu bois, bugungi kunda ushbu imkoniyatlarni tizimli tarzda o‘rganish, ularni ilmiy asosda tahlil qilish va amaliyotga joriy etish psixolog mutaxassislar oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Psixologiya — inson psixikasi, ong faoliyati, hissiyotlari, idrok va xulq-atvorining ilmiy asoslарини о‘рганадиган murakkab va ko‘p qirrali fan hisobланади. Bugungi kunda psixologik bilimlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Chunki jamiyat taraqqiyoti, shaxs kamoloti va sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda psixologiyaning tutgan o‘rni beqiyosdir. "Mutaxassislikka kirish" fani psixologiya sohasi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarni mazkur yo‘nalishning ilmiy-nazariy asoslari, asosiy tushunchalari, tarixiy shakllanish bosqichlari hamda amaliy yo‘nalishlari bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Ushbu fan psixologiyaning fundamental bilimlari bilan birga, kasbiy faoliyatga oid dastlabki ko‘nikmalarni ham shakllantirishni maqsad qilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma talabalarga psixologiya fanining mazmun-mohiyati, asosiy mактаб va yo‘nalishlari, zamonaviy tadqiqot usullari, shuningdek, psixolog kasbining ijtimoiy ahamiyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Shuningdek, talabalarning sohaga oid mustaqil fikrlash, tahlil qilish va kasbiy yo‘nalishni ongli tanlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘quv qo‘llanma psixologiya sohasiga kirish bosqichida bo‘lgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning bilim darajasiga mos, tizimli va metodik yondashuv asosida tayyorlangan. Shu bois, zamonaviy jamiyatda psixolog mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Psixologik xizmatlarga ijtimoiy buyurtmaning ko‘payishi ushbu soha vakillarini bugungi kun talablariga javob bera oladigan darajada yuqori malakali, chuqur nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega mutaxassislar sifatida tayyorlashni taqozo etmoqda.

Mazkur holat psixologiya fanining dolzarbligini yanada oshiradi va uning oldida turgan vazifalar ko‘lami hamda mas’uliyatini keskin kengaytiradi. Jamiyat hayotida kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni chuqur anglash, ular ortida turgan psixologik omillarni aniqlash va tahlil qilish aynan psixologiya fanining zimmasiga tushmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, biz psixologiya fanining hozirgi holati va istiqboli nuqtai nazaridan turib, jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarning psixologik mazmunini chuqur tahlil qilish orqali ushbu faning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va imkoniyatlarini baholashni maqsad qilib oldik. Shu nuqtai nazardan qaralganda, talabalar e’tiboriga havola etilayotgan ushbu o‘quv qo‘llanma zamonaviy psixolog kasbining o‘ziga xos jihatlari, uni o‘rganish zaruriyati hamda ushbu sohaga xos tamoyillarni inobatga olgan holda tayyorlandi. Qo‘llanma nafaqat nazariy bilimlarni o‘z ichiga oladi, balki talabalarda sohaga nisbatan chuqur tushuncha va kasbiy qiziqishni shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur o‘quv qo‘llanmaning yana bir muhim jihat shundaki, unda mustaqil yurtimiz fuqarolarining psixologiyasida yuz berayotgan ijtimoiy-ruhiy o‘zgarishlar, ularning hayotga, qadriyatlarga, kasb-hunarga, oilaviy munosabatlarga, sog‘lig‘i va yaqinlariga bo‘lgan qarashlaridagi milliy mafkura bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘layotgan tamoyillar yoritib berilgan. Zero, mustaqillik davri psixologiyasi – bu, eng avvalo, inson ongi va tafakkurida milliy g‘urur, ijtimoiy mas’uliyat, sog‘lom hayot tarziga intilish, o‘zlikni anglash va Vatanga sadoqat kabi yuksak g‘oyalarni mustahkamlashdir. Ana shunday ruhda tarbiyalangan yosh avlod – ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir. Ular kundalik hayotda milliy qadriyatlarga asoslangan ezgu amallarni ustuvor deb biladi hamda sog‘lom g‘oyalarsiz to‘laqonli yashashni tasavvur qila olmaydi.

1-MAVZU. PSIXOLOGIYA FAN SIFATIDA

Reja:

- 1.1. Psixologiya fani predmeti, vazifalari, obyekti va ahamiyati.
- 1.2. Psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi tarixi.
- 1.3. Asosiy psixologik maktablar.
- 1.4. Psixologiya rivojiga hissa qo'shgan ulug' olimlar.

Tayanch so'z va iboralar: *psixolog, psixologik bilimlar, kasb tanlash motivlari, psixologik konsultatsiya, professionallik, amaliy tadqiqotlar, interpretatsiya, individ, shaxs, individuallik, shaxs tuzilishi.*

1.1.Psixologiya fani predmeti, vazifalari, obyekti va ahamiyati.

Psixologiyaning predmeti – bu insonning tashqi olamni va o‘z-o‘zini bilishiga xizmat qiluvchi ichki jarayonlar, ruhiy holatlar, psixik hodisalar hamda shakllangan individual xususiyatlardir. Boshqacha qilib aytganda, psixologiya insonning ongi, idroki, hissiyotlari, motivatsiyasi, emotsiyalari, xulq-atvori va shaxsiy xususiyatlarini o‘rganadi. Psixologiya so‘zi ikki qadimgi yunoncha so‘zdan tarkib topgan: "psyche" – ruh, jon va "logos" – ta’limot, ilm. Ushbu ibora an'anaviy ma'noda insonning ruhiy dunyosi, ya’ni psixik holatlari, kechinmalari, ichki jarayonlari va xatti-harakatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy sohaga nisbatan ishlatiladi. Psixologiya bo‘yicha adabiyotlarda uning predmeti qisqacha qilib psixika deb ham ta’riflanadi. Chunki barcha psixologik holatlar va jarayonlar aynan psixika orqali namoyon bo‘ladi va o‘rganiladi.

Psixika esa, o‘z navbatida, insonning borliqni aks ettirishi, unga munosabat bildirish hamda faoliyat yuritishdagi asosiy omil hisoblanadi.. Psixika - bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya’ni bilishimiz, anglashimizni ta’minlaydi. Lekin bu qisqa ta’riflardan psixikaga aloqador jarayonlar ongning aks ettirish shakllari ekan, degan yuzaki xulosaga kelish noto‘g‘ri bo‘ladi. Chunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma - xilki, biz ba’zan o‘z-o‘zimizni ham tushunmay qolamiz. Shuning uchun ham odamlarning bilimdonligi nafaqat tashqi olamda ro‘y berayotgan ob’ektiv hodisalar mohiyatiga aloqador bilimlar majmuiga ega bo‘lish bilan, balki hayotda munosib o‘rin egallash, o‘z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan xolda faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha sirlaridan boxabar bo‘lish, o‘ziga va o‘zgalarga ta’sir ko‘rsatishning usullarini bilish va ulardan o‘z o‘rnida unumli foydalananishni nazarda tutadi. Psixologik bilimdonlikning murakkabligi aynan shundaki, atrofimizdagи narsalar va hodisalarning mohiyatini bevosita his qilib bilishimiz mumkin, lekin psixikaga aloqador bo‘lgan jarayonlarni, o‘zimizda, miyamiz, ongimizda ro‘y berayotgan narsalarning mohiyatini bilvosita bilamiz.

Masalan, o'rtoqlarimizdan biri bizga yokadi, doimo bizda yaxshi, ijobiy taassurot qoldira oladi, lekin uning u yoki bu hatti - harakatlarini bevosita ko'rib, baholab, tahlil qilolsak-da, unga nisbatan his qilayotgan mehrimizni, uzoq ko'rishmay qolganimizda uni sog'inayotganligimiz bilan bog'liq hisni bevosita ko'rib, idrok qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Aynan shunga o'xshash holatlar psixologiya o'rganadigan hodisalar va holatlarning o'ziga xos tabiatini va murakkabligidan darak beradi va ular boshqa turli hodisalardan farq qiladi. Shunday qilib, psixologiya fani o'rganadigan jarayonlar va hodisalar murakkab va xilma-xil. Ularni o'rganishning ikki jihatni bor: bir tomondan, ularni o'rganish qiyin, ikkinchi tomondan oson ham. Oxirgi jihatni xususida shuni aytish mumkinki, bu hodisalar bevosita bizning o'zimizda berilgan, ularni uzoqdan qidirish, mavhum analogiyalar qilish shart emas, boshqa tomondan, ular o'zaro bir - birlari bilan bog'liq bo'lган umumiyy qonuniyatlar va tamoyillarga bo'ysunadi. Demak, psixologiyaning predmeti konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq - atvori va turli faoliyatlarining o'ziga xos tomonlaridir, deb ta'riflash mumkin.

Psixologiya fanining maqsad va vazifalari shaxs psixik faoliyatining shakllanish va rivojlanish mexanizmlarini o'rganishdan iboratdir. Psixologiya fani yaqqol inson fazilati, muayyan taraqqiyot xususiyatlari, mexanizmlari, qonuniyatlar, o'ziga xoslik, alohidilik, yakkahollik tabiatini yuzasidan babs yuritadi.

Psixologiyaning fan sifatida dunyoga kelishi va rivojlanishi ko'plab olimlarning ilmiy adabiyot va darsliklarida bayon etilgan. Fransiyalik olim J.Godfruaning "Что такое психология" nomli 2-jilddan iborat kitobida antik dunyodan boshlab inson psixikasi, uning qalbi, hislari, xulqi masalalari diqqat markazda bo'lган ekanligi, psixologiyaning fan sifatida rivojlanishida faylasuflarning qarashlari, tabiiy fanlar rivoji, 17-asrdan boshlab falsafa fanidan turli fanlarning ajralib chiqishi, 18 va 19 asrlarda Kondilyak, Lokk, Yum yondashuvlari asoslab berilgan.

Psixologiyaning fan sifatida rivojlanishida nemis psixologi va fiziologi Vilgelm Vundt (1832-1920)ning xizmati, uning tomonidan maxsus tajribaviy sinov laboratoriylarining tashkil etilishi va mohiyati ochib berilgandir. Psixologiyaning paydo bo'lishi va Fan sifatida e'tirof etilishida biologik, ijtimoiy, bixevoir (xulqga ko'ra), kognitiv, psichoanalitik, gumanistik, sotsial-psixologik yo'naliishlar va ularning asoschilari bayon etilgan. Rossiyalik psixolog olim R.S.Nemov uch jilddan iborat "Psixologiya" kitobida psixologiya atamasi 16-asrda birinchi marta qo'llanilganligini, ong va o'zini kuzatish tufayli inson o'zidagi psixik xolatlarni o'rgana borganligini, keyinchalik insonning faoliyati sohasida shu psixik jarayonlarni o'rganish zarurati yetilganligini izohlab bergen.

O'zbek psixolog olimlari E.G'oziev, M.Xolmuxamedov, X.Ibrohimovlarning "Psixologiya metodologiyasi" o'quv qo'llanmasida psixologiya fanining falsafa va tabiatshunoslik fanlari negizida paydo bo'lganligi yetarlicha dalillar vositasida ko'rsatib berilgan. Demak, psixologiya 1879-yilda Leypsig Universitetida nemis fiziologi va psixologi Vilgelm Vundt tomonidan birinchi psixologik laboratoriya

tashkil etilib, unda ilmiy asosda turli tajribalar o'tkazish boshlangandan keyin mustaqil fan sifatida tan olingan.

Psixologiya fanining asosiy kategoriyalari ichida ong alohida o'rin egallaydi va u borliqda insonning yuksaklik darajasini egallahga muhim zamin, kafolat negizini yaratadi. Insonni hayvonot olamidan ajralib chiqishining bosh omili ham ong hisoblanadi, xuddi shu boisdan u taraqqiyot va kamolotning eng zarur mezonii, o'lchami sifatida muhim rol o'ynaydi. Psixologik nuqtai nazardan ong olib qaralganda, u ijtimoiy-tarixiy (filogenetik) va individual (ontogenetik) taraqqiyotning mahsuli hisoblanmish insongagina xos bo'lib, psixik aks ettrishning va o'zini o'zi boshqarishning yuksak darjasini sanaladi. Ong kategoriyasi amaliy jihatdan tavsif qilinganda: a) u ham hissiy, ham aqliy obrazlarning uzluksiz ravishda o'zgarib turuvchi majmuasi sifatida, b) bevosita sub'ektning oldida uning «ichki tajribasi» tariqasida, v) amaliy faoliyatdan qutiluvchi mahsulni oldindan sezuvchi (payqovchi) psixologik hodisa tarzida hukm suradi.

Psixikaning yuqori bosqichi faqat insongagina xos bo'lgan, uning eng yuksak darjasini hisoblanmish ongda o'z aksini topadi. Ong psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli hisoblanib, insonning yakka va hamkorlik faoliyatining muloqot nutq, til vositasida, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida yuzaga kelgandir. Psixika ob'ektiv borliqning sub'ektiv obrazining voqelik tarzida miyada aks etishi deb baholash mumkin.

Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida insonlarning organizmlarida u yoki bu tarzdagi o'zgarishlar yuz berib kelmoqda, buning natijasida ularning kattalashuvi yoki kichiklashuvi, pishiqlashuvi va mo'rtlashuvi bilan antropogenetik, fonogenotipik, morfologik, konstitusion tuzilishlarga ma'lum ta'sirini o'tkazadi. Organizmning tarkibla-rini yuzaga keltiruvchi moddalar (zarrachalar) nisbatining (arxi-korteks, paleokorteks, neokorteks qismlari orasidagi munosabat kamayishi yoki ortishi) tabiiy ravishda o'zgarishi ularning tirik-lik, tashqi ta'sirlarga chidamliligi (mo'rtligi), funksiyasi, ya'ni ichki tuzilishining o'ziga xos tomonlarini keltirib chiqaradi.

1.2.Psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi tarixi.

Psixologiya qadimdan insonni o'ziga, uning ruhiy dunyosiga, xatti-harakatlari va tafakkuriga bo'lgan qiziqish asosida shakllana boshlagan. U dastlab falsafanining bir bo'lagi sifatida mavjud bo'lgan bo'lsa-da, keyinchalik mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanib bordi. Psixologiyaning fan sifatida rivojlanish tarixini bir necha bosqichlarga bo'lib o'rghanish mumkin:

❖ **Falsafiy bosqich (mil. avv. VI asr – XIX asr boshlari gacha)**
Bu davrda inson ruhiyati haqida ilk mulohazalar qadimgi Sharq, Gretsya va Rim faylasuflari tomonidan ilgari surilgan. Platon, Aristotel, Demokrit, Galen, Abu Ali ibn Sino, Al-Farobi kabi mutafakkirlar inson ruhiy hayotini tushunishga harakat qilganlar. Aristotel psixologiyani “ruh haqidagi ta'limot” deb atagan va ong, idrok, xotira, hissiyot kabi tushunchalarni bayon qilgan. O'rta asrlarda psixologik

qarashlar asosan diniy nuqtai nazardan baholangan. Inson ruhiy hayoti ma'naviyilik va ilohiy kuchlar bilan bog'lab tushuntirilgan.

Psixologiya fani yaqqol inson fazilati, muayyan taraqqiyot xususiyatlari, mexanizmlari, qonuniyatlari, o'ziga xoslik, alohidalik, yakkahollik tabiatini yuzasidan bahs yuritadi.

Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino (980-1037) o'zining davrigacha ma'lum bo'lgan psixologiyaga doir ma'lumotlarni to'plab, maxsus asarlar ("Jon to'g'risida risola" ("Risola fi-al-nafs"), "Psixologiya to'g'risida risola" ("Risola-dar revanshinosi"), "Kitob al-ta'bir" ("Tushni yo'yish kitobi"), "Jon-ruh haqida kitob" ("Kitob al-muhjat"), "Tib qonunlari" ("Kitob al-qonun fit tib"), "Shifo beruvchi kitobi" ("Kitob an-najot"), "Donishnoma") yozib qoldirgan.

Ibn Sino antik dunyo olim va faylasuflari va o'tgan sharq mamlakatlari olimlari yozib qoldirgan asarlarini chuqur o'rganar ekan, u psixologiyaning "otasi" deb nom olgan Arastuni o'zining "birinchi o'qituvchisi" deb tan oladi. U Arastu singari odam tanasi va "ruhiy quvvatlar" materiya bilan shaklan bir-biridan ajratilmagan holda mavjud ekanligini e'tirof etadi. Bu bilan mashhur mutafakkir psixik faoliyat bilan odam salomatligining bir-biriga ta'sir etish kuchi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini isbot qilishga harakat qiladi. Ibn Sino o'zining nazariy bilimlarini turli tajribalari natijalariga ko'ra asoslab berishga harakat qiladi.

Ibn Sino psixik holatlarning organizmga ta'siri har qanday ruhiy jarayonning fiziologik asoslari bilan bog'liq ekanligi hamda organizmga tashqi muhitning ta'siri katta bo'lishini isbotlash maqsadida ikkita qo'zi olib, ulardan birini och bo'ri yaqiniga bog'lagan, ikkinchisini esa bo'riga ko'rsatmay, oddiy, tinch sharoitda boqqan. Har ikkala qo'yga ham bir xil hajmdagi yemakni aynan bir vaqtda berib borgan. Ko'p o'tmay bo'riga yaqin bog'langan qo'zi uning doimiy hamlalaridan uzoq vaqt qo'rqqanidan juda ham ozib ketgan va yaxshi boqilishiga qaramay, kasallikka uchrab nobud bo'lgan. Tinch sharoitda boqilgan qo'zi esa kundan-kun semirib, xotirjam uzoq yashagan. Ibn Sinoning turli kasallikka chalingan og'ir bemorlarni psixoterapevtik ya'ni so'z bilan ruhiy ta'sir qilish orqali davolaganligi haqida ko'plab hikoyalari uchraydi.

Psixik jarayonlarning buzilishini o'rganish XIX asrlarda G'arb olimlari tomonidan boshlangan degan fikr hali-hanus manbalarda uchraydi. Vaholanki, buyuk bobokalonimiz o'z davrida depressiya, epilepsiya, ongning buzilishlari, gallyusinatsiyalar, alahsirash, tafakkur va xotira buzilishlarini o'rganib, ular haqida yozib qoldirgan.

Abu Ali ibn Sino bosh miyaning atrof muhitdagi narsa va hodisalarini o'zida turli xil shaklda aks ettirish qobiliyatiga ega ekanligini anglab yetgan. Tashqi ta'sirlar avvalo sezgilar orqali namoyon bo'lishi va ular ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm va teri-tuyg'u ko'rinishga ega ekanligini, ularning xususiyatlari va ahamiyati haqida to'xtalib, har qaysi sezgining bosh miyada alohida boshqarib turadigan markazi borligini ta'kidlagan. U insonning tafakkuri, xayoli, xotirasi va iroda sifatlariga yuqori baho beradi va bu psixik jarayonlarning bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini anglaydi. Tafakkurning yordamida hodisa va voqealarni bir-biri bilan almash tirish, abstraksiyalash bilan haqiqatni yolg'on dan

ajratiladi. Xotira yordamida esa idrok qilingan narsa va hodisalar kishi ongida mustahkam joylashadi va idrok qilingan bir ob'ektini ikkinchisidan ajratishga yordam beradi. Xayol kishi ongida ob'ektiv voqelikni aks ettiradi, degan fikrlarni bayon etish orqali Ibn Sino psixologiya sohasida chuqur bilimga ega bo'lganidan dalolat beradi. Abu Ali ibn Sino psixologiya fanining keyingi taraqqiyotiga ham ko'pgina ilg'or va haqqoniy fikrlari bilan katta hissa qo'shgan.

Sharqlik yana bir buyuk mutafakkir alloma Ismoil Jurjoniy (1080–1141 yillarda Xorazmda yashab ijod qilgan) tibbiyotga oid asarlarida (“Ibn Sino haqida so‘z”, “Xorazmshoh xazinasi” va “Xastaliklarni aniqlash usullari”) bemorlar psixologiyasiga bag‘ishlangan bir qancha fikrlar bayon qilingan. Sharq olimlari bemorlar psixologiyasi va ruhiy kasalliklarni o‘rganishga katta hissa qo’shibgina qolmay, ular Marvda, Bog‘dodda, Quddusda, Damashqda bemorlar uchun shifoxonalar ochadilar.

❖ Empirik-fiziologik bosqich (XVII–XIX asrlar)

Ushbu davrda psixologiya eksperimental va ilmiy metodlarga tayanishga intila boshladi. Ingliz faylasufi Jon Lokk “inson tafakkuri tajriba asosida shakllanadi” degan g‘oyani ilgari surdi. Fransuz faylasufi Dekart esa ong va tana o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tushuntirishga harakat qildi. Shu bilan birga, bu davrda nerv tizimi, reflekslar, sezgi organlari faoliyati fiziologlar tomonidan o‘rganila boshlandi.

XVII asr biologiya va psixologiya fanlari taraqqiyoti uchun muhim darr bo‘lib, jumladan, fransuz olimi Dekart (1596-1650) tomonidan xulq-atvorning reflektor (g‘ayriixtiyoriy) tabiatga ega ekanligini kashf etilishi, yurakdagi mushaklarning ishlashi (faoliyati) qon aylanishning ichki mexanizmi bilan boshqarilayotganligini tushuntirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, refleks (*lot. “reflexus” - aks ettirish*) organizmning tashqi ta’sirga qonuniy ravishdagi javob reaksiyasi sifatida talqin qilinishi asab-mushak faoliyatini ob'ektiv tarzda bilish vositasiga aylandi, sezgi, assotsiatsiya, ehtiros yuzaga kelishini izohlashga imkon yaratildi.

Psixologiya fanining ilmiy asosga qurilishida ingliz olimi Gobbs (1588-1679) rujni mutlaqo rad etib, mexanik harakatni yagona voqelik deb biladi va uning qonuniylari psixologiyaning ham qonuniylari ekanligini ta’kidlaydi. Uning negizida epifenomenalizm (*yunon. “epi” - o’ta, “phainomenon” - g‘ayritabiiy hodisa*) vujudga kelib, psixologiya tanadagi jarayonlarning soyasi singari ro‘y beradigan ruhiy hodisalar to‘g‘risidagi ta’limotga aylandi.

Niderlandiyalik olim Spinoza (1632-1677) ongni katta ko‘lamga ega materiyadan sira qolishmaydigan voqelik, ya’ni yaqqol narsa deb tushuntirib, u determinizm (*lot. “determinata” - belgilayman*) prinsipining, ya’ni tabiat, jamiyat hodisalarining, shu jumladan, psixik hodisalarining ob'ektiv sabablari bilan belgilanishi haqidagi ta’limot targ‘ibotchisi hamdir.

Nemis mutafakkiri Leybnis (1646-1716), ingliz faylasufi Jon Lokk (1632-1704), ingliz tadqiqotchisi Gartli (1705-1757), fransuz adibi Didro (1713-1784) kabilar g‘oyalar assotsiatsiyasi (bog‘lanishi) qonuni, idrok va tafakkurning paydo bo‘lishi, qobiliyatlar psixologiyasi haqida muhim ta’limotlarini yaratish bilan fanning rivojlanishiga muhim hissa qo’shdilar.

XVIII asrga kelib Galler, Proxazkalar nerv tizimini tadqiq qilishda ulkan yutuqlarga erishdilar, natijada esa psixika miyaning funksiyasi ekanligi haqidagi ta’limot vujudga keldi. Ingliz tadqiqotchisi Charlz Bell va fransuz Fransua Majandi tomonidan yozuvchi va harakat nervlari o’tasidagi tafovut ochib berilib, uning negizida reflektor yoyi degan yangi tushuncha paydo bo‘lib, bularning natijasida ixtiyoriy (ongli) va ixtiyorsiz (ongsiz) reflektor turlari kashf qilindi.

Avgstriyalik shifokor F.Gall (1758–1828) odam miyasining tuzilishini juda mukammal o‘rganib, miyaning frenologik xaritasini yaratdi. U bosh miya katta yarim sharlarining kulrang va oq moddasini bir-biriga bog‘liq bo‘lgan alohida tuzilmalar ekanligini birinchilardan bo‘lib aniqladi. F.Gall bosh miya po‘stlog‘ida 40 ga yaqin ruhiy funksiyalarini joylashtirdi va ularni miyaning pushtalari (bo‘rmalar) bilan bog‘ladi. U harakat, ko‘rvu, eshituv va sezgi markazlari bilan birgalikda miyada xotira, tafakkur, sevgi, kamtarlik, donolik, ayyorlik markazlarini joylashtirdi. O‘ta qobiliyatli odamlarning miyasidagi pushtalar kuchli rivojlangan, botiq va chuqur bo‘ladi, kimning fikrashi sust bo‘lsa, uning miyasi silliq bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi.

Yuqoridagi ilmiy kashfiyotlar ta’sirida rus olimi I.M.Sechenovning (1829–1905) reflektor nazariyasi ro‘yobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari, bosh miya reflekslarining o‘ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu muhim nazariy qoidalar I.P.Pavlov (1849–1936) tomonidan tajriba yo‘li bilan tasdiqlandi. U hayvon va odamning tashqi muhit bilan o‘zaro harakati miya tomonidan boshqarilishi qonuniyatlarini kashf etgan edi. Olimning ushbu qonuniyatlariga nisbatan barcha qarashlari odatda ikki xil signal tizimi haqidagi ta’limot deb ataladi.

❖ **Ilmiy psixologiyaning vujudga kelishi (XIX asr oxiri – XX asr boshi)**
Psixologiyaning fan sifatida mustaqil sohaga aylanishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. 1879-yilda nemis olimi **Vilgelm Vundt** Leyptsig universitetida birinchi psixologik laboratoriysi tashkil etdi. Bu voqeа psixologiyaning ilmiy fan sifatida shakllanishida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. So‘ngra psixologiyada turli maktab va yo‘nalishlar vujudga kela boshladи:

- ✓ **Strukturalizm** (V. Vundt, E. Titchener) – ong tuzilmasini tahlil qilishga intildi.
- ✓ **Funksionalizm** (U. Jeyms) – psixik jarayonlarning funksiyalarini o‘rgandi.
- ✓ **Behayviorizm** (J. Uotson, B. Skinner) – faqat kuzatiladigan xulq-atvorni o‘rganishni ilgari surdi.
- ✓ **Gestalt psixologiyasi** (M. Vertgeymen va boshqalar) – idrokni butunlikda tahlil qilish zarurligini ta’kidladi.
- ✓ **Psiyoanaliz** (Z. Freyd) – inson ruhiy hayotida ongsizlik va bolalik tajribalarining rolini tushuntirdi.

1879 yili Leypsigda birinchi psixologik laboratoriya tashkil qilgan Vilgelm Vundt (1832–1920) psixologiyaning strukturaviy maktab yo‘nalishiga asos

soladi. Vundt psixologiyaning asosiy vazifasi sifatida ong jarayonini qismlarga ajratish va ular o'rtasidagi qonuniyat bog'lanishlarni o'rganish taklifini kiritadi.

Venalik yosh shifokor Zigmund Freyd (1856-1939) psixologiya sohasida katta shov-shuvga sabab bo'lgan psixoanalitik maktab yo'nalishiga asos soladi. Z.Freyd odam psixik hayotining markaziga ongni qo'yish o'mniga, uni ozgina qismi suvning tepasiga chiqib turgan aysbergga qiyosladi. U shu davrgacha hukmronlik qilib kelgan odamga o'z xulqini anglay oladigan aqli mavjudot sifatida qarashlarga mutloqo zid bo'lgan nazariyani ilgari suradi. U odamlar doimiy ziddiyat holatida bo'lishini va nizolarning sababini anglanilmagan jinsiy, agressiv mayllar bilan bog'liqligini e'tirof etadi. Z.Freyd o'zining 45 yillik samarali ilmiy faoliyati davomida shaxsning birinchi keng ko'lamli nazariyasini, o'zining terapeutik tajribasi va o'zini o'zi tahlil qilishga asoslangan klinik kuzatishlarning keng miqyosli tizimini, nevrotik buzilishlarni davolashning o'ziga xos usulini, boshqa hech qanday usul bilan o'rganib bo'lmaydigan psixik jarayonlarni tadqiq qilish usullarini yaratib, freydizm yo'nalishiga asos soladi. Z.Freyd fiziologlar (I.M. Sechenov, I.P. Pavlov) hamda nevropatolog va psixolog olimlarning (Ernest Krechmer, Emil Krepelin, Eygen Bleyler) ilmiy ishlarini ham o'rganadi. U isterik nevrozlarning kelib chiqishida I.P.Pavlovning tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlari haqidagi ta'limotini yuqori baholaydi. Uning dastlabki safdoshlari va shogirdlari A.Adler va K.G.Yunglar nevrozlarning kelib chiqishiga oid o'z nazariyalarini ilgari surib, Freydcha yondoshuvni kengaytirishga harakat qilishdi. A.Adler fanda individual psixologiya g'oyasini ko'tarib chiqib, shaxsning ijtimoiy determinantlariga alohida e'tibor beradi. K.G.Yung esa o'z e'tiborini analitik psixologiyaga qaratib, shaxsning psixik salomatligiga erishish uchun uning turli yo'nalishdagi intilishlari o'zaro mutanosiblikdagi bir butunlikda jamlanishi kerak, degan fikrni isbotlaydi.

❖ Zamonaviy psixologiya davri (XX asr o'rtalaridan hozirgacha)

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab psixologiya tez sur'atlar bilan rivojlandi, yangi yondashuvlar, texnologiyalar, tadqiqot metodlari paydo bo'ldi. Kognitiv psixologiya, gumanistik yondashuv (K. Rogers, A. Maslou), evolyutsion psixologiya, neyropsixologiya, ijtimoiy va amaliy psixologiyaning turli sohalari vujudga keldi. Bugungi kunda psixologiya inson salomatligi, ta'lim, biznes, sport, huquq, axborot texnologiyalari va boshqa ko'plab sohalarda faol qo'llanilmoqda. Fan sifatida psixologiya nafaqat inson ruhiy holatini tushunish, balki u orqali jamiyatda sog'lom, barqaror, muvozanatli hayotni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Psixologiya fanining eksperimental, psixoanalitik, bixevoiristik, empirik, epifenomenalistik, geshtalt, assotsiativ, vyursburg, psixogenetik, reduksionizm, solipsizm, gumanistik, biogenetik, sotsiogenetik kabi yo'nalishlari tomonidan to'plangan ma'lumotlar hozirgi zamon psixologiyasini vujudga keltirdi.

Psixik (ruhiy) hodisa insonning shaxsiy g'oyalarini, hissiy kechinmalarini, sezgi va idrok jarayonlarini o'zi kuzatish jarayonida aks etuvchi voqelikdangina

iborat emas. Balki u refleks singari tashqi qo‘zg‘atuvchilarning ta’sirini va unga javoban bildiriladigan harakat reaksiyasini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Ma’lumki, I.M.Sechenovgacha bo‘lgan psixologik, fiziologik nazariyalarda insonning ongida obrazlar, tasavvurlar, mulohazalar, g‘oyalari tarzida aks ettiriluvchi hodisalarini psixologiya fanining predmeti sifatida tan olinar edi. Lekin bu psixologik voqelik I.M.Sechenov tomonidan organizmning muhit bilan o‘zaro ta’sir harakatining alohida shaklidan iborat ekanligi, psixologik yaxlit jarayonning ayrim holatlari, uning lahzalari tariqasida tushuntirildi. Psixologiyada tan olib kelinayotgan psixik jarayonlar ongning ichida tug‘iladi va uning ichida yakunlanadi, degan g‘oya I.M.Sechenov tomonidan inkor qilinadi, asossiz da’vo ekanligi ta’kidlanadi.

Psixikaning reflektor tabiatini, xususiyati to‘g‘risida rus olimi I.M.Sechenov va uning shogirdlari tomonidan to‘plangan materiallar asos hisoblanadi. I.M.Sechenovning “Bosh miya reflekslari” nomli asarida “ong va ongsiz hayotning barcha harakatlari ro‘y berish usuliga ko‘ra reflekslardan iboratdir” deydi. Uning fikricha, psixik hodisa sifatida ongning harakati tanasiz ruhning xususiyatiga emas, vujudga kelish usuliga, tuzilishiga binoan refleksga o‘xshash xislatga ega bo‘lgan jarayondir.

I.M.Sechenovning fikricha, psixik hodisa yaxlit reflektor harakat tufayli yuzaga keluvchi va uning mahsuli bo‘lishi bilan birga ham vujudga kelmagan, lekin ta’sir o‘tkazish ehtimoli mavjud kutilmadan boxabar qiluvchi omil funksiyasini ham bajaradi, ya’ni ilgarilab ketuvchi bashorat vazifasini ijro etadi. Bunday dadil ilmiy mushohadalar psixik jarayonlar umuman qanday rol o‘ynashi mumkinligi, ularning o‘rni to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish uchun moddiy negizni vujudga keltiradi. Psixik jarayonlar organizmda signal va boshqaruvi (regulyativ) funksiyasini ijro etib, o‘zgaruvchan shart-sharoitlarga harakatni moslashtiradi, shuningdek, mazkur daqiqada yuqori samaraga erishishni ta’minlaydi. Psixik jarayon miyaning bo‘lmalari (tarkibiy qismlari) funksiyasi tariqasida tashqi olam (borliq) to‘g‘risidagi axborotning qabul qilinishi, saqlanishi, qayta ishlanishini o‘zida mujassamlash-tiruvchi javob faoliyatining idora qiluvchisi hisoblanadi. Shuning uchun odamlarning bilimlari borliq to‘g‘risidagi tasavvurlari, shaxsning shaxsiy tajribalarining yig‘indisi reflektor harakat tarkibiga kiradi. Shunday qilib, psixik hodisalar deganda miyaning tashqi (qurshab turgan olam) va ichki (fiziologik tizimdagi organizmning holati) ta’sirlarga javobini tushunmoq kerak.

1.3. Asosiy psixologik maktablar.

XIX va XX asr psixologiyasi — bu, avvalo, **empirik psixologiya** bosqichidir. U psixologiyaning tajribaga asoslangan, kuzatuv va eksperiment orqali aniqlanadigan fan sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Mazkur yo‘nalish o‘z ildizlarini XVII asr falsafiy tafakkuridan olsa-da, aynan XIX va XX asr boshlarida o‘zining yuksak taraqqiyot cho‘qqisiga erishdi.

Empirik psixologiyaning asosiy yutug‘i — bu eksperiment metodining amaliyotga joriy etilishi bo‘ldi. Shunday qilib, psixik jarayonlarni faqat nazariy mulohazalar bilan emas, balki aniq tajriba, sinov va laboratoriya sharoitida o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ldi. Eksperimentning qamrovi kengaydi: idrok, xotira, e’tibor, reaksiya va xulq-atvor kabi ko‘plab jarayonlar tajriba asosida tekshirilgan.

Ushbu davrda psixologiya fani o‘zining mustaqil yo‘nalishlari va metodologik asoslariga ega bo‘lgan bir nechta maktab va oqimlarga ajrala boshladi. Empirik psixologiya yagona tizim bo‘lmay, ichida turli nazariy qarash va yondashuvlarni birlashtirgan murakkab soha bo‘lib shakllandi. Bu yo‘nalishlar orasida **assotsiatsionizm**, **bixevoirizm**, **intellektualizm**, **volyuntarizm**, **gestalt psixologiyasi** va **freydizm** alohida ahamiyat kasb etadi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Angliyada psixologiya fanining **assotsiativ** oqimi vujudga keldi. Assotsiativ oqimining asoschisi David YUM (1711-1776) bo‘lib, uning maslakdoshlari David Gartli (1705-1757), Djozef Pristli (1733-1804) psixik hodisalar, holatlar, jarayonlar, tasavvurlarning yaxlit bo‘lib birlashishining asosiy qonuni sifatida assotsiatsiyalar haqidagi ta`limotni yaratdilar.

Psixologiya fani taraqqiyotida nemis psixologiya maktabi muhim o’rinlardan birini egalladi. Asrimizning boshlarida Germaniyada **Vyurtsburg** psixologiya maktabi deb nomlangan yangi yo‘nalishga ega bo‘lgan psixologik oqim paydo bo‘ldi. Mazkur yo‘nalishning yirik vakillari sifatida O.Kyulpe (1862-1915), K.Byuller (1879-1922), A.Messer (1837-1937), Ax Nartsis (1871-1946) va boshqalarni sanab o’tish mumkin. Ushbu maktab namoyondalari o’zlarining eksperimental tadqiqotlari bilan tafakkur muammosining rivojiga ma`lum darajada hissa qo’sha oldilar.

XIX asr oxirlarida, aniqrog`i, 1879 yilda nemis olimi Vilgelm Vundt Leybnits universitetida dunyoda birinchi eksperimental psixologik laboratoriyaga asos soldi, unda o’tkazilgan yuzlab tajribalar va eksperimentlar psixologiyaning ham alohida fan sifatida o‘zini ko’rsatishga haqli ekanligini isbotladi. Aynan shu insonning psixologiya ilmi maktabini yaratganligida ma`no bor. CHunki V.Vundt tibbiyat fani bo‘yicha ham mukammal bilimlarga ega bo‘ldi, keyin fiziologiya sohasida muvaffaqiyatli ishladi, so’ngra falsafaga berilib ketdi. Balki, aynan bir qator fanlarni – ham gumanitar, ham tabiiy fanlar asoslarini yaxshi bilganligi ob`ektiv sabab bo‘lgandirki, olim inson psixologiyasi, unda ro‘y beradigan jarayonlar – oddiy sezishdan tortib, mavhum tafakkurgacha bo‘lgan jarayonlarni, hissiy holatlarni amaliy tarzda eksperimentlarda o‘rgana boshladi. Uning maqsadi – eng avvalo inson ongini tashkil etuvchi sof elementlarni ajratib olishdan iborat edi. SHuning uchun ham psixologiyada u asos solgan yo‘nalish **strukturalizm** deb nomlandi.

V.Vundtning ta`siri shu qadar kuchli bo‘ldiki, er kurrasining boshqa bir tomonida – Amerika Qo’shma Shtatlarida **funktionalizm** deb nomlangan yana bir yo‘nalish paydo bo‘ldi. E.Titchener asos solgan bu yo‘nalish vakillari nafaqat ko‘zga ko‘rinmas ong tizimi elementlari, balki ko‘z bilan ko‘rish mumkin bo‘lgan va faoliyat natijalariga asoslangan belgilar asosida ham inson xulq-atvoriga baho

berish mumkinligini isbotladi. Boshqa bir yirik amerikalik psixolog V.Jeymsning tadqiqotlari amaliy ahamiyatga molik bo'ldiki, endi u dadil psixologiyani ong elementlari emas, balki ong faoliyatini o'rganuvchi fan deb ta`riflay boshladi. Ong dinamik, harakatdagi, o'zgaruvchan yaxlit tuzilma bo'lib, uning namoyon bo'lishida tananing shart-sharoitlari, uning faolligi muhim rol o'ynaydi. SHuning uchun ham bu ikki tuzilmalar odamning yangi sharoitlarga moslashuvi va umuman tashqi muhitda o'z o'rnnini topishga imkon beradi.

Yuqorida fikrlar ta`sirida XIX asrning oxirlarida bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan **bixevoirizm** oqimi paydo bo'ldi.

Bixevoirizm oqimining asoschilarini amerikalik psixologlar Dj.Uotson (1878-1958) va E.Torndayklardir (1871-1949).

Keyinchalik bular qatoriga K.Leshli (1890-1958), A.Veys (1974-1931) va boshqalar kelib qo'shildilar. Ma'lum davrgacha mazkur oqim psixologiya olamida dominantlik rolini o'ynadi. Hozirgi davrda bu oqim bir necha mustaqil psixologik maktablarga ajralib ketgan.

Ushbu yo'naliш vakillarining asosiy g`oyalari shundan iborat bo'ldiki, ular psixologyaning predmeti nafaqat ong yoki nafaqat faoliyat, balki **xulqdir** deb asosladi. Xulq u yoki bu hatti-harakatlar, amallar, reaksiyalarda ifodalanib, tashqi ta`sir-stimulga bog`liqdir. Shuning uchun ham inson va uning psixologiyasini bilish uchun o'sha ta`sir ko'rsatuvchi va ta`sirlangan xulq o'rganilishi kerak. Bu narsalar bizning xozirgi sharoitimizda ham ishlab chiqarishni tashkil etishda, ta`lim berishda va psixoterapiyada inobatga olinadi, ular o'tkazgan mashhur «S-R» formulasi bizning sharoitlarda ham ta`sir ko'rsatish texnikasida inobatga olinadi, ular o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Bixevoirizm psixologiya maktabi, psixologiya fanining predmeti psixikani emas, balki inson va hayvonlar xulqini o'rganishdan iboratdir, degan g`oyani ilgari suruvchi va himoya qiluvchi oqimdir.

Atoqli jenevalik psixolog Jan Piaje (1896-1980) murakkab **intellekt** muammosiga bag`ishlangan nazariyani ishlab chiqdi. U aksariyat hollarda "tafakkur" tushunchasi o'rniga "intellekt" terminini qo'llaydi, lekin shunga qaramasdan, uning tadqiqotlarida "tafakkur psixologiyasi" degan so'z birikmasini uchratsa bo'ladi.

J.Piajening intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo'lib, intellekt funksiylari hamda intellektning davrlari ta`limotlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Volyuntaristik psixologiya, intellektualizmdan farq qilib, psixik hayotning asosi sifatida shaxsning irodasini, faolligini ilgari suradi. Barcha murakkab psixik jarayonlar, xususan, tafakkur ham insonning irodaviy faolligi deb talqin qilingan.

Volyuntaristik psixologyaning vakillari G.Linne (1889-1941y), G.Myunsterberg (1863-1916y.) edilar. Vilgelm Vundt ham, garchand irodanining asosi hislardir deb hisoblagan bo'lsa ham, volyuntarist edi.

Germaniyada psixologyaning **geshtaltpsixologiya** yo'naliши vujudga keldi. Bu yo'naliшning asosiy vakillariga X.Erenfels (1859-1932), V.Keler (1887-1967), K.Kofka (1886-1941) va boshqalar kiradilar.

Geshtaltchilar barcha murakkab psixik jarayonlar oddiy xolatlarda, ya`ni sezgilardan iborat deb xisoblangan assotsianistlar g`oyasini qattiq tanqid qiladilar. Ular assotsianizmga qarama-qarshi bo`lgan ta`limot yaratib, har qanday psixik jarayon va xolat yaxlit obrazdan, geshtaltdan, ya`ni yaxlit strukturadan iborat deb tushuntirishga xarakat qiladilar.

Ularning fikriga qaraganda har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kiruvchi qism va elementlarni birgalikda aks ettirishdan ko`lam jihatdan keng, mazmun jihatdan rang-barangdir.

Bu psixik tuzilishning yaxlitligi nazariyasi, avvalo idrok faktlari, asosida ishlab chiqilgan edi. Idrok - bu sezgilarning yig`indisi emas, balki yaxlit obrazdir, deb ta`kidlanadi. Psixik mahsullar va tuzilmalarning yaxlitligi haqidagi bu ta`limot keyinchalik xotira, tafakkur va iroda hodisalariga ham tatbiq qilingan edi.

Bu alohida-alohida yo`nalish va oqimlar, bir qancha umumiy xususiyatga ega bo`lgan holda (ayniqsa muhim momentlarda) “Empirik psixologiya” degan umumiy nom ostida birlashdilar.

Psixologiyaning predmeti va metodlarini bir xilda tushunish bu barcha oqimlarning birlashuviga sababchi bo`ldi.

“Empirik”lar psixologiyani ruh haqidagi fandir, deb emas, “ruhiy hodisalar” yoki “ong hodisalari” yoki bo`lmasa faqatgina ong hakidagi fandir deb ta`kidlardilar. Bu “ruhsiz” psixologiyadir (N.N.Lange), “hech qanday metafizikasiz psixologiyadir” (A.I.Vvedenskiy).

Empirik psixologiyaning tarixiy xizmati shundan iboratki, uning vakillari ilmiy jihatdan o’rganish predmeti sifatida ruhni inkor qildi. Bu holatni psixologiyaning metafizik va idealistik qarashlardan holi bo’lish yo’lidagi katta qadam deb hisoblash mumkin.

YUqorida ta`kidlanganidek, empirik psixologiyaning asosiy metodi kuzatish, tajribadir. Lekin tabiat fanlaridan psixologiya sohasiga ko’chirilgan bu metod ichki metod ichki tajriba sifatida boshqacha tus oladi.

Empirik psixologiyada ob`ektiv kuzatish metodidan ham, eksperiment metodidan ham foydalanilgan: psixik hodisalar har xil maxsus asboblar yordami bilan maxsus laboratoriyalarda o’rganildi; materiallarni tekshirish va yakunlashda matematik statistika (korrelyatsiya) metodlaridan foydalanildi.

Empirik psixologiyaning psixologiya fani tarixidagi ikkinchi katta xizmati tajribadan foydalanishda, psixologik eksperimentlar o’tkazishning metod va texnikasini ishlab chiqishdan iborat.

Psixologiya tomonidan eksperimentning tadbiq qilinishi tufayli inson psixologiyasi sohasida boy materiallar to’plangan. Bu materiallarning ko’pchilik qismi hozirgacha ham ahamiyatini yo’qotmagan (masalan, V.Vundt va G.Ebbingauzning eksperimental ishlari). Empirik psixologiya aniqlagan ma`lumotlar va ishlab chiqqan eksperimental metod va usullar amaliyotda ham, masalan, tibbiyot va pedagogika sohalarida foydali bo’lib chiqdi.

Z.Freyd psixoanalizning asoschisi hisoblanadi. Ko’pchilikning fikriga ko’ra, bu sohadagi yutuqlari CH.Darvin va A.Eynshteyn kabi olimlar bilan bir qatorda turadi.

U o'ziga qadar inson haqida mavjud bo'lgan tasavvurlarni ag`dar-to'ntar qilib tashladi. R.Dekart, J.Lokk va I.Kant fikriga ko'ra, tabiat har bir individni iroda erki bilan ta`minlagan. Erkin tanlovnini amalga oshirish layoqati individning eng asl mohiyatini bildiradi va ongli "men" bilan bog`langan bo'ladi. Inson psixikasi (jon) haqidagi fikrni Z.Freyd illyuziya sifatida talqin qiladi. Ongli "men" qudratli ongsiz mental hayotning faqat cho'qqisi xolos.

Shunday qilib, Z.Freyd sub`ekt haqidagi bizning tasavvurlarimizda inqilobni amalga oshirdi. Ongli mental hayot insonning umumiyligi mental hayotida faqat kichkina bo'lak hisoblanadi. Bizning ongimizdagagi jarayonlar ongsiz omillar bilan qat`iy determinatsiya qilinadi. Bu holatni illyustratsiya qilish uchun ko'pincha aysberg bilan qiyoslashadi. Barcha ongli jarayonlarni aysbergning suv ustidagi qismiga o'xshatilsa, unda ongsizlik muzning ancha katta, ko'rinasuv ostidagi qismiga o'xshatiladi. Aynan mana shu ko'rinasuv massa ham og`irlilik markazini, ham aysbergning harakat yo'naliшини aniqlaydi. SHunga o'xshash ongsizlik ham bizning individualligimiz negizi hisoblanadi.

Asr boshida yozilgan ikki muhim asarida Z.Freyd barcha individlarda ongsiz mental jarayonlar mavjudligi haqida gapiradi va psichoanaliz kundalik hayotning ongsiz sabablarini aniqlab berishga qodir ekanligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida inson ruhining yangi va har tomonlama nazariyasini ishlab chiqishga olib keladi. "Tushlar ta`birida" (1900) tushlar mazmunga ega ekani va anglanmagan mayllarning ongga buzilgan va o'zga shaklda bostirib kirishlari natijasi ekanligi qayd qilinadi. Tushlarga yashiringan ongsizlik mazmunini faqat murakkab talqin jarayoni yordamidagina aniqlash mumkin. "Kundalik hayot psixapatalogiyasi" asarida kundalik hayotdagi nutqdagi adashishlar va xotiradan ko'tarilib qolishlar kabi "xatoliklar" tadqiq qilinadi.

Z.Freydning fikricha, bunday fenomenlar tasodifiy va ma`nosiz emas, balki ongsizlik va niyatlarni ifodalaydi. Masalan: biz o'zimizga yoqmay qolgan kimsadan olingan tassurotni yo'qotamiz yoki esdan chiqarib qo'yamiz.

Mana shu erving o'zidayoq aytish mumkinki, psichoanaliz insonni yangicha tushunishni taklif qiladi, bizning tushlarimiz, noadekvat reaksiyalarimiz, hazillarimiz va asariy "alomatlar" ortida aksariyat hollarda ongsiz motivlar bo'lishini ta`kidlaydi. Boshqacha qilib aytganda, Z.Freyd mulohazalariga amal qilsak, sub`ektning ongli motivlari va niyatlari asnosida tushunarli bo'lgan narsalar ongsizlikni psichoanalitik tadqiq qilish natijasida yangi ma`no kasb etishi mumkin. Bir qarashda tushunarsiz va ma`nosiz bo'lgan "alomatlar", ularga ongsiz motivlar va niyatlar ifodasi sifatida qaralsa ma`no kasb etadi. Demak, biz Z.Freyd "shubha germenevtikasi"ni asoslayapti deb aytishimiz mumkin.

"Tushlarni ta`birlash ongsizlikning bilishga (podshoh qasriga yo'l) bo'lib, psichoanalizning eng asosi va har qanday tadqiqotchi ishonch va ma`lumot oladigan sohadir. Mendan, qanday qilib psichoanalitik bo'lish mumkin, deb so'rashsa, men doimo o'z tushlaringizni o'rganish orqali, deb javob beraman".

"Tushlar ta`biri" asarida tushlar psixozlar bilan tashqi o'xshashlik va ichki o'zaro aloqadorlikka ega, deyiladi. Biroq ular sog`lom va normal holat bilan to'la mos kelishi mumkin. Umuman, tush "alomat" sifatida talqin qilinishi mumkin,

biroq nimaning alomati sifatida? Z.Freyd yosh bolalar o'zlarida bir kun oldin ("kunduzgi fantaziya") paydo bo'lмаган lekin qondirilmagan istaklar va mayllar haqida tush ko'rishlarini aytib o'tadi. Tush, shunday qilib, ular istaklarining ro'yobga chiqishidir. Kattalarning tushi ham "kunduzgi fantaziyaning" muayyan qismiga ega, biroq bu erda vaziyat murakkabroq.

Kattalarning tushlari ko'pincha tushunarsiz va kunduzgi mayllarni qondirishdan juda uzoq (dahshatli tushlar va vahimalar).

Z.Freyd fikricha, bunday tushlar ong ostiga siqib chiqarilish ob`ekti bo`ladilar. Tushlar qo'rqinch bilan birga bo'lsa, bu ularning siqib chiqarilgan, ega ma`qullamaydigan va ma'n qilingan istaklarini qondirish maqsadida vujudga keladi.

Z.Freyd aytishicha, tushning yashirin fikrlari tsenzuradan o'tkaziladi. Soddarоq qilib aytsak, siqib chiqarilgan va ma'n qilingan mayllar ongda namoyon bo'lish uchun "tsenzuradan" o'tishlari kerak. TSenzurani chetlab o'tish uchun tushning ishi tushdagi yashirin fikrlarni tushning ochiq mazmuniga aylantiradi. Biz eslaydigan tushimiz maxfiy, kodlashtirilgan axborotga ega bo'lib, u ongimizga kontrabanda yo'li bilan olib kiriladi. Biz tushimizning ochiq mazmuniga echish lozim bo'lgan rebusga qaraganday qarashimiz mumkin. Psixoanalitik kodni ravshanlashtirgandan keyingina tushning yangi mazmuni paydo bo'ladi. Maxfiy ma`no nima? Z.Freyd aytishicha, kattalarning tushlari ko'pincha seksual tomonga yo'naltirilgan va erotik mayllarini ifodalaydi. (Bu xulosa Z.Freyd keyinchalik agressiya yoki o'lim unikal instinkti haqidagi tushunchani kiritgandan keyin muammoli bo'lib qoldi). Tushlarning ta`birlashning asosiy qoidalarini quyidagi tarzda ifodalaymiz:

1. Tushdagi yashirin fikrlar va ochiq ma`no o'rtasidagi tafovut tushning mazmunini tushunishda kalit bo'lib, xizmat qiladi.
2. Tushning ochiq mazmuni- undagi yashirin fikrlarni buzilgan ifodasi bo'lib, ta`bir joiz bo'lsa, tush ishining mahsulidir.
3. Tushlarni tahlil qilish uchun Z.Freyd "erkin assotsiatsiyalar" uslini qo'llaydi, bu usuldan psixoterapiyada ham foydalanish mumkin.
4. Z.Freydning tushlarning talqin qilishga yondoshuvi bizga inson mental holatlarining boy manzarasini namoyon qiladigan psixologik modelning asoslarini ifodalaydi.
5. Z.Freydning tushlardagi yashirin ma`noni aniqlashga urinishi ong osti ba`zi "grammatik" qoidalarga mos tarzda ishlashi yoki ong osti "til"ga o'xshab tuzilmalashtirilganini (tushni rebus sifatida tushunish bilan taqqoslang) tushunishga olib keladi.

Bir qator sabalarga ko'ra, Z.Freydning mental "apparat" to'g`risidagi nazariyasini tushunish qiyin. Birinchidan, psixoanalizni ishlab chiqishning turli bosqichlarida Z.Freyd o'zining inson psixikasiga nisbatan psixikaga bo'lgan qarashlarini o'zgartirib, kengaytirgan. Garchi ularning hammasining birlashtirishga intilsa ham uning kontseptsiyasida noaniq holatlar ko'p. Ikkinchidan, Z.Freydning fiziologik va juda antropomorf (insonga o'xshash) atamalari ko'p ma`nolidir. U "bechora ego" "uch teram xo'jayinga" (tashqi dunyo,

id va super ego) xizmat qiladi deganda, u mental funksiyalarni ob`ektivlashtirib personifikatsiyalashtirmoqda, Gilbert Rayl (1890-1976) "mashina ichidagi ruh" deb atagan narsani kiritmoqchi degan tasavvur paydo bo`lishi mumkin.

Z.Freydning birinchi "topografik modeli" (psixika yoki inson shaxsi tuzilmalari xaritasi) mental hayotning uch lokalizatsiyasini farqlaydi. Soddaroq qilib, mental apparat maydonda uch sohaga bo`lingan: ongsizlik, ongoldi va onglilikka bo`lingan, deyish mumkin. Ongni individ bevosita anglayotgan barcha narsalar, deb tavsiflash mumkin. Ongoldi-individ xotirada tiklashi yoki eslashi mumkin bo`lgan barcha narsalar sohasi. Z.Freyd ongsizlikni ongga ancha harakatlar bilan chiqadigan mental jarayonlar sifatida belgilaydi.

"Psixoanalizga kirish bo'yicha ma`ruzalar"da (1815-1917) aytilganlarni tushunishga yordam beradigan misol keltiradi. Mehmon katta dahlizda (ongsizlik) va mehmonxonaga (ongoldi)ga kirmoqchi. Biroq bu ikki xona o`rtasidagi koridorda qorovul (tsenzor) bor va u mehmonlarni tanlab o'tkazadi. Agar mehmon qorovulgaga yoqmasa, u haydab yuboriladi yoki *siqib chiqariladi*. Mehmon mehmonxonaga kirgan taqdirda ham, unga uyning egasi darrov e`tibor qaratadi, degan ma`noni bildirmaydi. Bu ongoldidagi g`oyalar anglanmaganini, biroq anglanishi mumkinligi haqidagi tasavvurlarga mos keladi. Ongsizlikdagi g`oyalar anglanishi uchun ular avvalo mehmonxona yoki ongoldiga kirishlari kerak. Agar mehmon haydab yuborilgan bo'lsa, keyingi safar u *niqoblangan holda* ("tush ishi" bilan qiyoslang) bo'ladi. Bunday mehmon "alomat" sifatda qabulga qo'yilishi, xo'jayin uning mohiyatini bila olmasligi mumkin. Bu qiyoslar qorovul individning ongsizlikni anglashiladigan narsaga aylantirish uchun mos keladi. Qorovul charchaganda (yoki individ u xlabelotganda) niqoblangan mehmonning kirib olishi (ya`ni, tushning ochiq mazmuni ko'rinishida) osonlashadi. Bunday siqib chiqarish jarayoni xo'jayin anglamagani holda yuz berishi mumkin.

1920 yillardan keyin Freyd topografik modelni o`zgartirdi va *id*, *ego*, *super ego* atamalarini kiritdiki, ular turli psixik instantsiyalarni ifodalaydi.

Psixikaning mana shunday uch ko'rinishga – id, ego va super egolarga bo`linishi boshqa super analitiklarning (masalan: frantsuz psixoanalitigi Jak Lakan 1966) shuningdek, fan falsafasi vakillari tomonidan qarshilikka uchradi. Popper bir kuni bunday bo`linish Gomer tomonidan, Olimp tog`ida yashovchilar haqidagi afsonalar kabi ilmiy mavqega ega degan edi.

Psixoanalizdagi eng muhim holatlar jumlasiga ongsizlik yoki iddag'i jarayonlar bizning ongli hayotimizni boshqaruvchi qonunlardan farq qiladigan boshqa qonunlarga bo'ysunishi haqidagi farazlardir. Z.Freyd bu "qonunlarni" birlamchi jarayonlar deb ataydi. Tush ishini muhokama qilishimiz ongsizlikda yuz berayotgan jarayonlarning g`alati va chalkash xususiyatlariga ishora qiladi. Masalan, undagi qarama-qarshiliklar ayniyat sifatida talqin qilinadi.

1.4. Psixologiya rivojiga hissa qo'shgan ulug' olimlar

Mazkur davrlarda Sharqda ham ilk psixologik qarashlar yuzaga keldi. Sharqda psixologik qarashlarning paydo bo'lishida buyuk Sharq

mutafakkirlarining roli katta bo‘lgan. Ular orasida Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabilar o‘zlarining inson psixikasi va yosh avlodni tarbiyalashga doir boy fikrlar va qarashlarini meros sifatida qoldirganlar. Ular orasida ayniqsa Abu Ali ibn Sinoning mantiq, metafizika, tabiiy fanlar, ayniqsa, tibbiyot haqidagi fikrlari o‘sha davr ilmiy taraqqiyotiga katta hissa qo‘shti. U maxsus psixologik muammolar bilan shug‘ullangan olimlardan biridir. Uning ruh, asab tizimi haqidagi qarashlari katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sinoning temperament xususiyatlari qarab yondashish zarurligi haqidagi fikrlari ming yildan so‘ng ham zamonaviy psixologiyada o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Abu Ali ibn Sino dunyoda birinchi bo‘lib psixoterapevtik usullarni qo‘llab ko‘rgan olimlardan biridir.

Asta-sekin ruh haqidagi tushuncha hayotning barcha ko‘rinishlariga emas, faqat hozir biz psixika deb atalgan darajaga nisbatan qo‘llana boshlandi. Psixika kategoriyasining negizida idrok va tafakkurdan tashqari ong tushunchasi yuzaga keldi, buning natijasida ixtiyoriy harakatlar va ularni nazorat qilish imkoniyati tug‘ildi. Masalan, Galen (eramizdan oldingi II asr) fiziologiya va tibbiyot yutuqlarini umumlashtirib, psixikaning fiziologik asoslari to‘g‘risidagi tasavvurlarini yanada boyitdi. Uning ilgari surgan g‘oyalari «ong» tushunchasi talqiniga muayyan darajada yaqinlashadi.

XVII asr biologiya va psixologiya fanlari uchun muhim davr bo‘lib hisoblanadi. Jumladan fransiya olimi Dekart (1596-1650) tomonidan xulq-atvorning reflektor (g‘ayriixtiyoriy) tabiatga ega ekanligini kashf etilishi, yurakdagi mushaklarning ishlashi (faoliyati) qon aylanishning ichki mexanizmi bilan boshqarilayotganligini tushuntirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, **refleks** (lotincha reflexus aks ettirish) organizmning tashqi ta’sirga qonuniy ravishdagi javob reaksiyasi sifatida talqin qilinib, asab-mushak faoliyatini ob’ektiv tarzda bilish vositasiga aylandi. Sezgi, assotsiatsiya, ehtiros yuzaga kelishini izohlashga imkon yaratildi.

Psixologiya fanining ilmiy asosga qurilishida ingliz olimi Gobbs (1588-1679) rujni mutlaqo rad etib, mexanik harakatni yagona voqelik deb tan olib, uning qonuniylari psixologiyaning ham qonuniylari ekanligini ta’kidladi. Uning negizida – epifenomalizm (yunoncha eri - o‘ta, rhainominon – g‘ayritabiyy hodisa) vujudga keldi, ya’ni psixologiya tanadagi jarayon-larning soyasi singari ruy beradigan ruhiy hodisalar to‘g‘risidagi ta’limotga aylandi.

Niderlandiyalik olim Spinoza (1632-1677) ongni katta ko‘lamga ega materiyadan sira qolishmaydigan voqelik, ya’ni yaqqol narsa deb, tushuntirdi. U determinizm (lotincha demmerminara - belgilayman) tamoyilining, ya’ni tabiat, jamiyat hodisalarining, shu jumladan psixik hodisalarining ob’ektiv sabablar bilan belgilanligi haqidagi ta’limot targ‘ibotchisi edi.

XVII asrdagi yirik nemis mutafakkiri Leybnis (1646-1716) ning ta’limoti matematika, jumladan, integral va differensial hisoblar kashf etilishiga ta’sir etgan edi. Psixika hayot manzarasi arifmetik yig‘indi tariqasida emas, balki integral tarzda namoyon bo‘ladi. Leybnis tasavvurlarning uzluksiz chegaralanishi g‘oyasiga tayangan holda persepsiya (bevosita ongsiz idrok)ni appersepsiylar

diqqat va xotirani o‘z ichiga olgan anglangan idroklardan farqlagan edi. Leybnis psixologiyaga psixikaning faolligi tabiatini va uzlusiz rivojlanishi hamda psixikaning onglilik va ongsizlik ko‘rinishlari o‘rtasidagi murakkab nisbat haqidagi g‘oyani olib kirdi.

XVII asrda emperizm va sensualizmni tajriba va his etiladigan bilimning «sof» aql-idrokdan afzalligi haqidagi ta’limotning, ya’ni aqlda hech qanday tug‘ma g‘oyalar va tamoyillar bo‘lishi mumkin emasligi haqidagi ta’limotning oldingi marraga ko‘tarilishiga olib keldi. Bu ta’limotni ingliz faylasufi va pedagogi Jon Lokk (1632-1704) astoydil himoya qilib chiqqan edi. Uni empirik psixologiyaning asoschisi deb, hisoblash qabul qilingan. Barcha bilimlarning tajribadan kelib chiqishi haqidagi ta’limoti psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Chunki u ruhiy hayotning aniq faktlari oddiy hodisalardan murakkab hodisalarga o‘tish yo‘llari puxta o‘rganilishini taqazo etadi. J. Lokkning fikricha, tajribaning ikkita manbai mavjud bo‘lib, biri tashqi sezgi a’zolarining faoliyati (tashqi tajriba) va ikkinchisi o‘zining xususiy miyani idrok etuvchi aqlning ichki faoliyati (ichki tajriba) dir. Kishi hech qanday g‘oyalarga ega bo‘lmagan holda dunyoga keladi. Uning ruhi – «toza taxta» bo‘lib, keyinchalik unga tajriba yozuvlari bitiladi. Tajriba oddiy va murakkab g‘oyalardan tarkib topadi. Bu g‘oyalar yo sezgilardan, yo ichki idrok (refleksiya) lardan hosil bo‘ladi. Ikkinchi holatda ong real narsalarga emas, balki o‘z xususiy mahsuliga yo‘naltirilib, o‘zi bilan o‘zi bo‘lib qoladi. J.Lokkning refleksiya ta’limoti kishi psixologik faktlarni interospektiv tarzda bilib oladi degan taxminga asoslangan edi. Bu bilan yana dualizm ta’limoti ilgari suriladi. Ong va tashqi olamni prinsipial jihatdan turlichay usullar yordamida bilish mumkinligi jihatidan ham ular bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilar edi.

J.Lokkning tashqi va ichki tajriba to‘g‘risidagi ta’limoti ikki xil xarakterga ega ekanligi ham materialistik ham idealistik ta’limotlarning taraqqiyotiga turtki bo‘ldi. Materialistlar Gartli (1705-1784) bosh bo‘lgan fransuz, A.N.Radishchev (1749-1802) boshchiligidagi rus materialistlari olamni bilishda tashqi tajribani asos qilib, olib inson psixikasining ichki mazmuni asosida odam atrof-muhit bilan o‘zaro munosabati yotadi degan edilar.

XVIII asrga kelib nerv sistemasini tadqiq qilishda ulkan yutuqlarga erishildi (Galler, Proxazka). Buning natijasida psixika miya funksiyasi ekanligi haqidagi ta’limot vujudga keldi. Ingliz tadqiqotchisi Charlz Bell va fransuz Fransua Majandi tomonidan yoyiluvchi va harakat nervlari o‘rtasidagi tafovut ochib berildi. Uning negizida psixologiya fanida reflektor yoyi degan yangi tushuncha paydo bo‘ldi. Bularning natijasida ixtiyoriy (ongli) va ixtiyorsiz (ongsiz) reflektor turlari kashf qilindi.

Yuqoridagi ilmiy kashfiyotlar ta’sirida rus olimi I.M.Sechenovning (1892-1905) reflektor nazariyasi ruyobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari bosh miya reflekslarining o‘ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatini yaratadi.

Xorij psixologlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarga asoslangan holda rus psixologlari tomonidan psixologiya fanining rivojlanishi borasida qator ishlar olib borilgan.

Aytish kerakki, psixologiya fani borasidagi tadqiqotlar, kashfiyotlar shu bilan tugab qolmasdan, balki bu boradagi ishlar yanada kuchaytirilib samarali natijalarga erishilmoqda.

O‘zbekistonda psixologiyani turli yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘pgina olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borib, O‘zbekistonga psixologiya fanini, ya’ni psixologiya tushunchasini olib kirib, to‘laligicha ochib berdilar.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ham psixologiya tarmoqlari rivojlanib unga katta e’tibor berilmoqda. Hozirgi yetishib chiqqan barcha olimlarimiz O‘zbekistondagi psixologiyani chet mamlakatlar psixologiyasi kabi yuqori cho‘qqiga chiqishida katta hissa qo‘shib, intilmoqdalar. Odamlar ongiga esa milliy psixologiya asosida, ya’ni milliylik ruhida tarbiyalab, ularni ongiga psixologiyani singdirmoqdalar. O‘zbekistonda psixologiya fanining hozirgi ahvoli ilgarigidan ancha rivojlangan. Chunki bu fanni o‘qitish uchun tayyorlov kurslari va markazlar ochilib kishilar ongiga yetib bormoqda. Bundan tashqari psixologiya tarmoqlari bo‘yicha turli xil muammolarni yechishda asosiy rol o‘ynaydi. Bu fanni rivojlanishida o‘zbek psixologlari, ya’ni M.G.Davletshin, M.Voxidov, G.B.Shoumarov, V.M.Karimova, E.G.G‘oziev, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, N.S.Safaev, R.Gaynudinov, Sh.R.Baratov, B.M.Umarov, Z.T.Nishonova va boshqa olimlarning hissasi katta. Hozirgi kunda psixologiya fanining turli tarmoqlari rivojlanmoqda.

Oliy o‘quv yurtlarida tayyorlanayotgan psixolog kadrlarning asosiy sifat belgisi ham ularning amaliyotda o‘z bilimlarini tatbiq eta olish malakasi bilan aniqlanmoqda.

Demak, XXI asr psixologiyasi o‘zining tatbiqiy xarakteri bilan ajralib turadi va uning tarmoqlari rivoji va samaradorligi ilmiy va nazariy bilimlarni nechog‘li xalq xo‘jaligining turli tarmoqlariga joriy etilishi bilan izohlanadi.

Psixologik xizmat-ijtimoiy psixologik muammo sifatida talqin qilinar ekan, barcha rivojlangan mamlakatlardagi kabi, O‘zbekistonda ham mazkur psixologik xizmat muammosining qay tariqa va qanday ilmiy-tashkiliy asoslarda bartaraf etilayotganligini o`rganish, tahlil qilish va talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, Respublikada psixologik xizmatga oid olib borilayotgan nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy tadqiqotlar ko`lamiga ma'lum tartibda baho bermay turib, O‘zbekistonda psixologik xizmatni yanada takomillashtirish va rivojlantirish masalasi haqida fikr mulohaza yuritib bo`lmaydi.

O‘zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intihosi asrimizning 30-yillaridagi pedologiya fani va pedologik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi.

Mazkur yillarda ta’lim jarayonini tashkil etish va rivojlantirish o`quvchi va o`qituvchi faoliyati bilan bog`liq psixologik omillarga asoslangan va bu talaygina yaxshi natijalar ham bergen. Biroq, afsuski, o`sha davrda sobiq ittifoq mafkurasi

va xalq ta'limi o`rtasida paydo bo`lgan ayrim ob'ektiv va sub'ektiv ziddiyatlar oqimi umumta'lim maktablari uchun muhim ahamiyat kasb etgan pedologik xizmat ildiziga bolta urdi va uni rasmiy tarzda yo`qqa chiqardi. Natijada, pedagogik psixologiya yo`li bilan bajariladigan barcha ishlar mакtabda faqat pedagogik yondashuvlar asosidagina amalga oshirildi. Shunday bo`lsa-da, O`zbekistondagi umumta'lim tizimi bilan bog`liq izlanishlar va tadqiqotlar to`xtab qolgani yo`q. Ayniqsa, P. I. Ivanov, V. E. Chudnovskiy, M.G. Davletshin, M. Vohidovlar tomonidan ishlab chiqilgan qator ilmiy va metodik tavsiyalar mакtabda psixologik xizmat tatbiqini yaratish uchun ma'lum darajada asos bo`lib keldi. Binobarin, 70-80-yillarda Toshkent Davlat Universiteti psixologiya kafedrasи olimlari tomonidan ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning hayotga tatbiqini amalga oshirish maqsadida talaygina mehnat jamoalarida psixologik xizmat tizimi joriy qilindi va Respublikamizda ilk bor qator mehnat va ishlab chiqarish jamoalarida inson va mehnat faoliyati, shaxs va shaxslararo munosabatlar, ishchi va rahbar, ruhiyat va rentabellik, rahbar va jamoa psixologiyasi bilan bog`liq ilmiy-amaliy ishlarolib borildi. Shuningdek, 60-70 yillarda O`zbekiston Pedagogik Fanlar Ilmiy Tekshirish instituti xodimlari P.P.Zimin, V.A.Tokareva, M.Sh.Rasuleva, M.Dadajonovlar tomonidan mакtabda psixologik xizmat tatbiqini o`rganishga oid qator izlanishlar, amaliy tadbirlar olib borildi. Ayniqsa, 1966 yilda Chirchiq shahrida axloqiy tarbiyaga oid, 1973 yilda Andijonda oilaviy tarbiyaga oid, Samarqandda taniqli psixolog N.A.Menchinskaya ishtirokida aqliy taraqqiyot muammolariga oid olib borilgan izlanishlarni alohida qayd etish mumkin.

O`zini-o`zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

Psixologiya haqida tushuncha.

Psixikaning mohiyati.

Psixologiya fanining predmeti.

Ilmiy psixologiya va kundalik psixologiya.

Psixologiya fanining vujudga kelishi:

Psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi tarixi

Asosiy psixologik mакtablar.

Psixologiya fanining vujudga kelish tarixi

Psixologiya fani taraqqiyoti bosqichlari.

Psixologik mакtablar tavsifi.

Soha doirasida xissa qo'shgan olimlar

O`zbekistonda psixologiyaning rivojlanishi va psixolog-mutaxassislar tayyorlash muammolari.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Hozirgi zamон psixologiya fanining predmeti quyidagi qoidalarning qaysi birida to`g`ri aks yettirilgan?

psixologiya psixik faktlarni, ularning qonuniyatlarini, mexanizmlarini o‘rganuvchi fandir.

psixologiya kishining ongini o‘rganuvchi fandir

psixologiya ruh, jon haqidagi fandir

psixologiya kishining hatti-harakati, xulq-atvorini o‘rganuvchi fandir.

2. Qaysi yo’nalish barcha psixologik fenomenlarni stimol va reaksiy terminlari bilan tushuntiradi, bu esa psixologiyada “stimol - reaksiy” terminini ishlatalishiga sabab bo’lgan?

Freydizm

Nativizm

Bixevoirizm

Strukturalizm

3. 2300 yil ilgari psixologiyaga qanday ta’rif berilgan?

ruh haqidagi fan

ong haqidagi fan

inson xulq-atvorini o‘rganuvchi fan

psixikaning qonuniyatlarini, mexanizmlari va faktlarni o‘rganuvchi fan

4. Empirik psixologiyaning asoschisi kim?

Jon Lokk

Gartli

Leybnits

Didro

6. Ilmiy psixologiya bilan shug’ullanadigan psixologlarning faoliyati

Psixologik tadqiqotlar

Gipnoz

Tibbiy seanslar

So’rovnama

2-MAVZU. PSIXOLOGIYA TARMOQLARI VA PSIXOLOG KASBIY FAOLIYATI.

Reja:

- 2.1. Psixologiya fani tarmoqlari turlari
- 2.2. Psixolog kasbiy faoliyati mazmuni
- 2.3. Ilmiy tadqiqot ishi psixolog faoliyati turi sifatida.
- 2.4. Psixologik bilimlarni o‘rgatish psixolog faoliyati turi sifatida
- 2.5. Psixologlar jamiyatni va assotsiatsiyalarini shakllanishi

Tayanch so’z va iboralar: nazariy va amaliy psixologiya, psixolog kasbi, individ, sub’ekt faoliyati, shaxs va individullik, hamkorlik qilish, psixologik bilimlar, psixologik diagnostika va maslahat, psixologik profilaktika, psixologik tarbiya, odamlarning psixologik ta’limini boshqarish

2.1. Psixologiya fani tarmoqlari turlari

Hozirgi zamon ilm-fanining qadri va ahamiyati, eng avvalo, uning amaliy hayotga nechog‘li chuqur kirib borishi, kundalik faoliyatda qo‘llanilishi hamda real muammolarni hal etishdagi samaradorligi bilan belgilanadi. Psixologiya fani ham istisno emas. Bugungi kunga kelib psixologiyaning tatbiqiy salohiyati ortib, uning yo‘nalishlari soni **300 dan** ortiq sohani qamrab olgan.

Psixologiyaning bu qadar kengayib borayotgan sohasi doirasida har bir yo‘nalish o‘ziga xos **tadqiqot ob’ekti, predmeti** va **metodologik yondashuvi** bilan ajralib turadi. Shu sababli psixologiya sohalarini tizimli o‘rganish, ularni tartibga solish va samarali tasniflash zaruriyati yuzaga kelgan.

Mazkur ehtiyojdan kelib chiqib, taniqli rus olimi, psixologiya fanlari doktori, professor **A.V. Petrovskiy** psixologiya fan sohalarini ma’lum mezonlar asosida **uchta katta guruhg‘a** ajratib tasniflashni taklif etgan. Ushbu tasnif psixologiyaning o‘zaro bog‘liq, ammo alohida mustaqil bo‘limlarining yaxlit tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

- ❖ *Aniq faoliyat turlarini o‘rganuvchi psixologiya sohalari*
- ❖ *Rivojlanishning yosh xususiyatlarini o‘rganuvchi psixologiya sohalari*
- ❖ *Shaxs va jamiyatga bo‘lgan munosabatni o‘rganuvchi psixologiya sohalari.*

Aniq faoliyat turiga ko‘ra psixologiyaning sohalari

Mehnat psixologiyasi: inson mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishning psixologik tamoyillarini o‘rganadi.

Mehnat psixologiyasining bir nechta bo‘limlari mavjud;

- a) **muhandislik psixologiyasi** - inson bilan mashina o‘rtasidagi vazifalarni taqsimlash masalalalarini hal qiladi va asosan operatorlarning faoliyatini o‘rganadi;
- b) **aviatsiya psixologiyasi** - uchishga o‘rganish jarayoni va uchish moslamalarini

boshqarishda inson faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o‘rganadi;

v) **kosmik psixologiya** - vaznsizlik holati, fazoviy tasavvurlar chalkashib ketgan vaqtida va organizmga juda ko‘p ortiqcha ta’sirlar yuklangan paytda asab va ruhiy zo‘r berish bilan bog‘liq bo‘lgan alohida holatlar tug‘ilganda odam faoliyatining xususiyatlarini o‘rganadi.

Pedagogik psixologiya - uning predmeti o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o‘rganish, o‘quvchilar tafakkurini taraqqiy topishi, intellektual faoliyat malakalari va usullarini o‘zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o‘rganadi. Pedagogik psixologiya bo‘limlari quyidagilardir:

- a) *ta’lim psixologiyasi*;
- b) *tarbiya psixologiyasi*;
- v) *o‘qituvchi psixologiyasi*

Tibbiyot psixologiyasi - shifokor faoliyatining va bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o‘rganadi. Uni quyidagi tarmoqlari mavjud:

- a) **neyropsixologiya** - psixik hodisalar bilan miyadagi fiziologik tuzilishlar o‘rtasidagi nisbatni o‘rganadi;
- b) **psixofarmakalogiya** - dorivor moddalarning shaxs ruhiy holatiga ta’sirini o‘rganadi;
- v) **psixoterapiya** - bemorni davolash uchun ruhiy ta’sir vositalarini o‘rganadi.

Yuridik psixologiya - huquq tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik masalalarni o‘rganadi.

Uning quyidagi tarmoqlari mavjud.

- a) **sud psixologiyasi** - jinoiy jarayon ishtirokchilarining xulq-atvorini, ruhiy xususiyatlarini tahlil qiladi;
 - b) **kriminal psixologiya** - jinoyatchining xulq-atvori, shaxsining shakllanishiga doir psixologik masalalar, jinoyatning motivlari bilan shug‘ullanadi.
- Harbiy psixologiya** - kishining harbiy harakatlar sharoitidagi xulq-atvori bilan bog‘liq hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, psixologik targ‘ibot metodlarini, harbiy texnikani boshqarishning psixologik muammolarini o‘rganadi.
- Sport psixologiyasi** - sportchilar shaxsi va faoliyati xususiyatlarini, ularning psixologik jihatdan tayyorligining shart-sharoitlari, musobaqalarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq psixologik omillarni o‘rganadi.

Savdo psixologiyasi - asosan, rivojlangan mamlakatlarda keng taraqqiy etgan bo‘lib, kishilar ruhiyatiga tijorat ta’sirini psixologik shart-sharoitini, xaridorlarga xizmat ko‘rsatishning psixologik omillarni aniqlaydi. Modalar psixologiyasini tadqiq qiladi.

San’at psixologiyasi - san’at asarlarining yaratilishida faoliyat-ning psixologik tomonlarini, inson tomonidan badiiy asarlarni idrok etilishi, turli hodisalarni paydo bo‘lishi va estetik tarbiya muammolari, musiqaviy, badiiy, adabiy qobiliyatlarni shakllantirish va tarbiyalash muammolarini o‘rganadi.

Ilmiy ijodiyot psixologiyasi - ilmiy faoliyatning psixologik xususiyatlari, ijodiyotda intuitsiya va ilhomni tadqiq qiladi

Rivojlanishning yosh xususiyatlarini o‘rganuvchi sohalari.

Yosh davrlari psixologiyasi - inson shaxsining psixologik xususiyatlari va bilish jarayonlarining ontogenetika rivojlanishini o‘rganadi. Yosh psixologiyasi bolalar psixologiyasi, o‘smirlar psixologiyasi, kattalar psixologiyasi, gerontopsixologiya kabi tarmoqlarga bo‘linadi.

Patopsixologiya - miya faoliyati buzilishlari natijasida kelib chiqadigan turli shakldagi ruhiy rivojlanishdan chetlanishni o‘rganadi.

Oligofrenopsixologiya - miyaning tug‘ma kamchiliklari tufayli paydo bo‘ladigan bo‘limlarni o‘rganadi.

Surdopsixologiya - eshitish faoliyatida jiddiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarning rivojlanishini o‘rganadi.

Tiflopsixologiya - ko‘rish qobiliyati past yoki umuman ko‘rmaydigan kishi faoliyatini o‘rganadi.

Qiyosiy psixologiya - hayotning filogenetik shakllarini o‘rganuvchi psixologiya sohasi bo‘lib, inson va hayvonlar psixologiyasini solishtirish orqali o‘xshashlik va farq qiluvchi tomonlarini aniqlaydi.

Akmeologiya- yetuklik darajasiga erishgan shaxs rivojlanishining yuqori darjasini ularning qonuniyatları va mexanizmlarini, ayniqsa rivojlanishining eng yuqori cho‘qqiga erishish xususiyatlarini o‘rganadi.

Shaxs va jamiyatga bo‘lgan munosabatni o‘rganuvchi psixologiya sohalari.

1. Ijtimoiy psixologiya — bu shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy guruhlarda (uyushgan va uyushmagan holda) kechadigan o‘zaro ta’sir jarayonlarida yuzaga keluvchi psixologik hodisalarini o‘rganadigan fan sohasidir. U insonning ijtimoiy muhitdagi xatti-harakatlari, fikrashi, guruh ta’siriga bo‘lgan sezgirlingi, stereotiplar va ijtimoiy identifikatsiya kabi hodisalarini tahlil qiladi. Shuningdek, shaxsning jamiyatdagi o‘rni va guruh ichidagi psixologik holatlarni aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi

2. Differensial psixologiya - insonlar o‘rtasidagi individual psixologik farqlarni o‘rganadigan sohadir. Bu fan doirasida shaxsning tug‘ma va orttirilgan xususiyatlari, temperament, xarakter, qobiliyatlar, emotsiyal barqarorlik kabi jihatlar o‘rganiladi. Differensial psixologiya har bir insonning psixik rivojlanishidagi o‘ziga xos yo‘nalishni aniqlash va bu farqlarning sabablari hamda natijalarini tahlil qilishga qaratilgan..

3. Din psixologiyasi - inson ongida diniy tushunchalar, e’tiqodlar va diniy tajribalarning shakllanishi, rivojlanishi va ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotga ta’sirini o‘rganadigan psixologiya sohasi hisoblanadi. Bu yo‘nalish diniy hissiyotlar, ibodat jarayonining psixologik ahamiyati, imon, tavba, ruhiy holatlar va diniy motivatsiyalar kabi masalalarni tahlil etadi.

4. Etnopsixologiya - inson psixikasining etnik va milliy xususiyatlarini o‘rganuvchi fan sohasidir. Bu yo‘nalish doirasida milliy xarakter, milliy qadriyatlar, madaniyatga xos psixologik stereotiplar, etnik identifikatsiya, o‘z-o‘zini anglash, milliy g‘oya va mentalitet kabi omillar o‘rganiladi. Shuningdek,

turli xalqlar va etnik guruhlar o‘rtasidagi psixologik farqlarning shakllanish sabablari va ularning jamiyatdagi o‘rni tahlil qilinadi.

5. Boshqaruv psixologiyasi - inson faoliyatining boshqaruv jarayonlarida namoyon bo‘ladigan psixologik qonuniyat va mexanizmlarni o‘rganadigan sohadir. Bu fan rahbar va jamoa o‘rtasidagi munosabatlar, qaror qabul qilish psixologiyasi, yetakchilik uslublari, motivatsiya, psixologik iqlim va jamoada samarali muloqot o‘rnatish masalalarini qamrab oladi. U boshqaruv faoliyatining psixologik asoslarini chuqur tushunishga xizmat qiladi.

6. Marketing psixologiyasi - iste’molchilarning xatti-harakatlari, ehtiyoj va talablarini psixologik nuqtai nazardan o‘rganadigan fan sohasidir. Ushbu yo‘nalish yangi mahsulotlarni yaratish, reklama va savdo strategiyalarini ishlab chiqish, iste’molchilarning qaror qabul qilish jarayonlarini tahlil qilish orqali ishlab chiqarish va savdo korxonalarining samarali boshqaruviga xizmat qiladi. Marketing psixologiyasi mijoz e’tiborini jalg qilish, iste’molchi xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi..

2.2. Psixolog kasbiy faoliyat mazmuni

Jahon psixologiya fanining boy tarixiy tajribasida amaliy psixologlar tayyorlash bo‘yicha nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab uslubiy yondashuvlar shakllangan. Bu yo‘nalishdagi ilg‘or tajribalar ko‘plab mamlakatlarda umumlashtirilib, turli ta’lim va amaliyot tizimlarida muvaffaqiyatli qo‘llanib kelinmoqda.

XX asrning 60-yillaridan boshlab, ayniqsa, AQSh, Buyuk Britaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda psixologik muammolarga nisbatan alohida e’tibor qaratila boshlandi. Bu davrdan e’tiboran psixologiya nafaqat ilmiy tadqiqot sohasi, balki turli kasb va sohalar uchun zaruriy amaliy yo‘nalishga ham aylana boshladi. Hozirgi kunga kelib, deyarli barcha sohalarda — ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, ishlab chiqarish, harbiy ishlar, boshqaruv tizimi va marketing singari jabhalarda malakali psixologlar faoliyat yuritmoqda. Bu esa har bir sohada inson omilining tobora muhim o‘rin egallayotganidan dalolat beradi. Zamonaviy insoniyat oldida doimo ochiq qolayotgan savollar — inson qalbini qanday anglash mumkin?, nima uchun odamlar turli xil qobiliyatlarga ega?, “ruh” tushunchasi nimalarni anglatadi?, uning tabiatini qanday? kabi fundamental masalalar asrlar davomida olimlarni o‘yga solib kelgan. Falsafiy, diniy va ilmiy qarashlar orqali ushbu savollarga har xil javoblar berib kelingan. Psixologiya esa bu savollarga ilmiy asoslangan yondashuv bilan yondashishga intilgan va bu jarayon bugun ham davom etmoqda.

Shuningdek, inson tabiatini o‘rganishga qaratilgan muhim yondashuvlardan biri mashhur rus psixologi **B.G. Ananev** tomonidan ilgari surilgan. U insonni o‘rganishning to‘rt asosiy darajasini ajratgan:

1. **Individ** – biologik mavjudot sifatidagi inson.
2. **Sub’ekt** – faoliyatni amalga oshiruvchi, ongli harakat qiluvchi shaxs sifatida inson.

3. **Shaxs (личность)** – ijtimoiy munosabatlar tizimida shakllanadigan ijtimoiy sifatga ega inson.
4. **Individuallik** – har bir insonning o‘ziga xos, takrorlanmas psixologik jihatlari majmui.

Bu to‘rtlik orqali insonning jismoniy, psixik, ijtimoiy va ruhiy tomonlarini har tomonlama ilmiy asosda o‘rganish imkoniyati yaratilgan. Shu bilan birga, bugungi jamiyatda psixolog kasbiga nisbatan turli xil qarashlar, munosabatlar va mulohazalar uchrab turadi. Ba’zilar psixologlarni faqat muammoga duch kelganlarga yordam beradigan mutaxassis deb bilsa, boshqalar ularni oddiygina suhbatdosh yoki maslahat beruvchi sifatida ko‘rishadi. Aslida esa, psixolog — inson ruhiy dunyosini ilmiy asosda o‘rganadigan, uni tushunishga va rivojlantirishga xizmat qiladigan mutaxassisidir.

- **Psixologiya** - bu insonning psixik jarayonlari kechishini biladigan fandir, psixologlar insonning ichki ruhiy holatini yaxshi biladi.
- **Psixolog** - bu insonlar bilan tez muloqotga kirisha oladigan va odamlarni tushuna oladigan mutaxassis hisoblanadi.
- **Psixolog** - bu insonlarning hatti-harakati, hissiyotlari, boshqalarning fikrini boshqara oladigan va shunga maxsus o‘rgatilgan insondir. U shunga xos bo‘lgan texnikalardan foydalana oladi, masalan, gipnoz yo‘li bilan
- **Psixolog** - bu o‘zini yaxshi tushuna oladigan va har qanday vaziyatda ham o‘zini boshqara oladigan inson.
- **Psixolog** - bu hayot haqidagi ko‘proq tasavvurlarga ega bo‘lgan donishmanddir, uning vazifasi qiyngangan insonlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, hayotda o‘z yo‘lini yo‘qotganlarga to‘g‘ri maslahatlar berilishi bilan alohida ajaralib turadi
- **Psixolog** - bu insonlar bilan tez muloqotga kirisha oladigan va odamlarni tushuna oladigan inson hisoblanadi

Kasb - bu insonning jamiyatdagi ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan, ijtimoiy foydali mehnat faoliyati bo‘lib, u shaxsning o‘z hayot tarzini belgilashi, ijtimoiy mavqeini shakllantirishi va o‘zini anglashiga xizmat qiladi. Kasb nafaqat mehnat jarayoni, balki insonning qiziqishlari, qobiliyatları, intilishlari va hayotiy pozitsiyasining ifodasidir. Taniqli rus psixologi **Ye.A. Klimov** kasb tushunchasini tahlil qilgan holda, uning quyidagi muhim jihatlarini ajratib ko‘rsatadi:

1. Kasb- bu insonlarni ma’lum bir holatlaridagi bir xilligidir. To‘g‘ri, turli xil kasb egalarining yashash sharoitlari turlicha bo‘lishi mumkin. Hattoki bitta kasbda ham yashash darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Bunda ularning oldiga qo‘ygan maqsadlari ham muhim o‘rin tutadi, biroq kasblaridagi boshlang‘ich qadriyatlar bir-biriga yaqin bo‘ladi.
2. Kasb insonlarning hatti-harakatlarini ajratadigan holatdir. Bunda psixolog mutaxassis sifatida o‘zini qanday namoyon qilishi ko‘zda tutilgan. Ma’lumki psixologiya sohasi hali ham o‘rganilayotgan va qarimaydigan sohalardan biri hisoblanadi. Ularning usullari ham takomillashib bormoqda.
3. Shaxs xususiyatlari uning kasbiy faoliyatida yaqqol ko‘rinadi. Bu esa kasb va shaxs uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

4. Kasb bu tarixiy rivojlanuvchi tizim hisoblanadi. "professiya" so'zi lotinchadan olingan bo'lib "barchaning oldida gapirmoq" so'zini beradi. Kasbning o'zi insonlarning yashash sharoitlariga qarab o'zgaradi. Asosan, psixologiya kasbi mashhur bo'lgan shaxslarning hayoti bilan bog'liq holda amalga oshirilgan.
 5. Psixologiya kasbi reallikdir, bu sub'ektning o'zini shakllanish imkoniyatini yaratadi. Demak, psixologiya kasbida insonlarning hatti-harakati orqali xulosaga kelishi mumkindir. Bunda yo'riqnomalar ish bermasligi mumkin. Psixologiya sohasida insonlarga yordam berish holati eng ustun jihatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Kasb tushunchasidan tashqari yana bir nom mavjud, bu mutaxassislik hisoblanadi. Masalan, psixologiya sohasi ijtimoiy psixologiya mutaxassisligi bo'lishi mumkin. Umuman olganda kasb o'z ichiga quyidagi tavsiflarni kiritadi:
 1. Bu mehnatning chegaralangan ko'rinishi bo'lib, psixolog uchun boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiqdir.
 2. Bu kasb doimiy maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan holat bo'lib, bunda mutaxassislar doimiy tarzda malakalarini oshirishlari talab qilinadi.
 3. Bu ma'lum bir maqtovlar, taqdirlash usullari kerak bo'lgan kasblardan biri hisoblanadi.
 4. Jamiyat uchun foydali bo'lgan kasblardan biri hisoblanadi.
 5. Bu kasb insonlarga ma'lum bir statusni berishi mumkin
- Bugungi kunda ko'plab insonlar o'zlarini yaxshi psixolog deb hisoblashadi. Bunday xulosa berilishiga, odatda, ularning kundalik hayotda odamlar bilan ko'p muloqotda bo'lishi, boshqalarga dardkashlik qilishi, maslahat bera olishi yoki muammolarni tinglashga tayyorligi sabab bo'ladi. Albatta, bunday insoniy fazilatlar — hamdardlik, tinglay olish, insofli maslahat berish kabi xususiyatlar qadrlanadi. Shu bilan birga, bu holat psixologiya fanining hayotiy shakli - ya'ni "hayotiy psixologiya" tushunchasi bilan bog'liqdir.
- E'tiborli shundaki, hatto kasbiy psixologlar ham ba'zida hayotiy psixologiyadan foydalananadilar. Chunki rasmiy fan tomonidan to'liq o'rganilmagan yoki umumiyligi metodikalar orqali to'liq izohlanmagan holatlarda, hayotiy tajriba asosida yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ilmiy yondashuvni hayotiy tafakkur bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi.

2.3. Ilmiy tadqiqot ishi psixolog faoliyati turi sifatida

Psixolog kasbiy faoliyati ko'p qirrali bo'lib, unda nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar uyg'unligiga alohida e'tibor qaratiladi. Psixolog nafaqat inson ruhiy holati bilan bevosita ishlaydi, balki bu holatlarni chuqur tahlil qilish, ularni tushuntirish va ilmiy asoslash uchun ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan ham shug'ullanishi zarur. Ilmiy tadqiqot — bu psixologning eng muhim va zarur faoliyat yo'nalishlaridan biri bo'lib, u psixologiya fanining rivojlanishi va amaliyotda to'g'ri qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi. Ilmiy faoliyat psixologlar tomonidan asosan tadqiqot institutlari doirasida, laboratoriyalarda (ilmiy-tadqiqot institutiga tegishli bo'lishi mumkin, ammo psixologik rivojlanishga aloqador boshqa muassasalarda ham bo'lishi mumkin) va turli xil ta'lim muassasalarining psixologiya kafedralarida, asosan, oliy oquvyurtlarida jumladan, tashkil qilingan

laboratoriyalarda yoki ilmiy-tadqiqotishlari kafedra o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi. Ilmiy tadqiqot ishlarida quyidagilar farqlanadi: ilmiy yo'nalish, muammolar, mavzular.

Ilmiy yo'nalish – fanning muayyan tarmog'ida yirik, fundamental, nazariy-eksperimental masalalarni hal etishga bag'ishlangan jamoaviy ilmiy tadqiqot sohasi. Ilmiy yo'nalish quyidagi tuzilmaviy birlklarga bo'linadi: mujassam muammolar va muammolar, mavzular va masalalar.

Muammo – murakkab ilmiy masala bo'lib, hal etishni, tadqiq etishni talab qiladi. U muammoviy vaziyat natijasi hisoblanadi, bu mavjud eski bilimlar va empirik yoki nazariy tadqiqotlar natijasida yangidan topilgan bilimlar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelishi tufayli hosil bo'ladi. Mujassamaviy muammolar (yoki problematika) – odatda, bir yo'nalishdagi murakkab bir qancha masalani o'z ichiga oluvchi muammolar majmui.

Mavzu – bu ilmiy masala bo'lib, tadqiqot talab qiluvchi muammolar muayyan sohasini qamrab oladi. U ko'plab tadqiqiy masalalarga – muammoning aniq bir sohasiga taallukli ancha mayda ilmiy masalalarga asoslanadi. Masalani hal etishda muayyan tadqiqot vazifasi echiladi. Bunda ularni bajarish faqat nazariy ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki asosan kutilayotgan muayyan iqtisodiy samaraga ega amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Psixologik tadqiqot — bu inson ruhiy holatlari, psixik jarayonlari va xulq-atvorining ilmiy asosda o'r ganilishiga qaratilgan tizimli faoliyatdir. U aniq ilmiy metodologiyaga asoslanib, psixologiya fanining nazariy va amaliy masalalarini hal etishga xizmat qiladi. Har qanday psixologik tadqiqot quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. muammoni shakllantirish;
2. ilmiy farazni ilgari surish;
3. ilmiy farazni tekshirishni amalga oshirish;
4. test natijalarini talqin qilish.

Psixologik tadqiqot jarayoni ishonchli, mazmunli va amaliy jihatdan foydali bo'lishi uchun quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi zarur

- ✓ shu hudud sharoitida yashovchi barcha millat vakillarga xos bo'lgan umumiy psixologik omillar va ularni aniqlash usullari;
- ✓ faqat o'r ganilayotgan guruhgaga xos bo'lgan psixologik sifatlar va omillarni aniqlash;
- ✓ aniqlangan omillarni yoki psixologik sifatlarni o'lchaydigan yoki eksperimental usulda tekshirishga imkon beradigan metodlarni tanlash va ularni konkret sharoitlarga moslash;
- ✓ tadqiqotchilar guruhini tekshiralayotgan guruhnini biladigan xodimlar (pedagoglar, tilchilar va boshqalar) bilan ta'minlash.
- ✓ sotsial -psixologik metodlarni tasniflash.

2.4. Psixologik bilimlarni o'rgatish psixolog faoliyati turi sifatida

Psixologik bilimlar haqida so'z ketar ekan, albatta mutaxassis psixolog va qiziquvchi psixologlar o'rtasida tafovutlar mavjuddir. Insonlar qiziqish doirasida

bir biriga yordam qo‘lini cho‘zishlari mumkin, bu esa yaxshigina samara berish imkoniyati hisoblanadi. Unda mutaxassis psixologlarning nima zarurati mavjud. Bu savol hammaga berilishi mumkin. Ko‘pincha birinchi va ikkinchi kurs talabalari o‘zini psixolog sanash mumkinligi yoki yo‘qligi haqida o‘ylanib qolishadi. Mutaxassis psixolog va qiziquvchi psixologlarning orasida bir qator farqlar mavjuddir. Bular quydagilar:

1. mutaxassis psixologlarda nazariy bilimlar tizimining mavjudligi, psixika va psixologiya tushunchalarining umumlashtirilganligi. Qiziquvchi psixologda bu bilimlar ko‘p bo‘lishi mumkin. U ko‘plab adabiyotlarni o‘qigan bo‘lishi mumkin, biroq ular haqidagi bilimlari yuzaki hisoblanadi, bu ma’lum bir davralarda o‘z bilimlарини namoyon qilishlari mumkin. Lekin bunday odamlar nazariy bilimlarga ega bo‘lmaganliklari uchun olingen bilimlaridan noto‘g‘ri foydalanishlari mumkin;

2. mutaxassis psixologning eng tayanch nuqtasi albatta bu uning ilmiy bilish usullaridan xabardorligi hisoblanadi. Agar psixolog ko‘p bilimga ega bo‘lsada, biroq usullarga ega bo‘lmasa ham qiynaladi. Shuning uchun ham usullardan keng foydalana olishi talab qilinadi;

3. mutaxassis psixolog har doim nazariy asoslarga ega bo‘lgan metodikalardan foydalana oladi. Bunda nazariya va amaliyotni bir maromda amalga oshiradi. Hattoki ba’zi vaqlarda nazariy bilimlari oqsagan mutaxassis psixologlar to‘g‘ri tanlangan metodikalar yordamida vaziyatlardan oson chiqib ketishlari mumkin. To‘g‘ri, qiziquvchilar ham turli metodikalardan foydalanishlari mumkin, biroq ular bu metodikalarning mazmun mohiyatlarini tushunmagan holda ishlatishlari mumkin, bu holatlar esa sinaluvchilarga albatta salbiy ta’sir ko‘rsatadi;

4. qiziquvchi psixolog faqat yaqinlariga yordam ko‘rsatsa, mutaxassis psixolog mijozlar bilan ishlab ularga to‘g‘ri maslahat ko‘rsatishi talab qilinadi. Bundan tashqari qiziquvchi psixolog hamma mas’uliyatni o‘ziga olsa, mutaxassis psixolog esa mas’uliyatni mijozda shakllantiradi;

5. mutaxassis psixolog boshqa mutaxassislar bilan doimiy aloqada bo‘lib turadi, demak mutaxassis psixologlar har doim ma’lumotlarga ega bo‘ladi, bundan qiziquvchi psixolog mustasnodir;

6. mutaxassis psixologda psixologik bilimlarning mavjudligi haqidagi hujjatning mavjudligi, bu esa mijozlarning ularga murojaat qilishlarida muhim o‘rin tutadi, chunki mijozlar albatta mutaxassislarga murojaat qilishni ma’quil ko‘rishadi;

7. kasbiy axloqiy qoidalarga rioya qilish bo‘yicha ham shu ikki psixologlar o‘rtasida albatta farq mavjud. Bunda axloqiy qoidalari albatta mutaxassislarga o‘qish davomida o‘qitiladi;

8. mutaxassis psixolog o‘zini rivojlantirishda mutaxassislarning xizmatlaridan foydalaniadi, qiziquvchi psixolog kitoblardan foydalanishi mumkin, biroq bu tizimli bilimlar hisoblanmaydi. Mutaxassis psixolog mustaqil o‘rganishga yo‘naltiriladi;

9. psixolog mutaxassisda mehnat psixogigienasi mavjud. Bunda mutaxassis psixolog boshqalarga yordam berish asnosida o‘zining sog‘lig‘iga ham befarq emasligini bilishi kerak bo‘ladi;

10. mutaxassis psixolog ko‘pgina yangi o‘ylab topilgan usullarga tanqidiy nigoh bilan qaraydi, masalan astrologiya, xiromantiya va boshqalarga.

2.5. Psixologlar jamiyati va assotsiatsiyalarini shakllanishi

Bugungi kunda amaliy psixologiya o‘ziga xos rivojlanishni taqozo etar ekan, u albatta psixologik eksperimentlarning ilk qadamlari hamda turli mamlakatlarda rivojlangan taniqli assotsiatsiyalarning faoliyatiga tayanishi muqarrar.

Shu o‘rinda, psixologiyaning rivojlanishidagi o‘ziga xos bog‘liqlikni, ayniqsa Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi (APA) yoki Rossiya Psixologlari Jamiyati kabi tashkilotlar misolida yakkol ko‘rish mumkin. Ularning faoliyati amaliy psixologiyaning keng qamrovli rivojlanishiga katta hissa qo‘shtanadi.

- ❖ APA — dunyodagi eng yirik va nufuzli psixologlar uyushmasi bo‘lib, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Kanadaning psixolog mutaxassislari, shuningdek boshqa davlatlardan keng a’zolarni o‘z ichiga oladi.
- ❖ APA tashkiloti 150,000 dan ortiq a’zoddan iborat bo‘lib, uning budgeti hozirgi kunda 70 million dollarga tengdir. Bu tashkilot nafaqat ilmiy, balki kasbiy faoliyatni ham yo‘lga qo‘ygan va psixologiyaning barcha sohalarida yirik loyihami olib boradi.
- ❖ APA vazifasi psixologiyani ilm, kasb-hunar va insonlarning farovonligini, aqliy salomatligini yaxshilash vositasi sifatida targ‘ib qilishdan iborat.

Tashkilotning tashkil etilishi 1892 yilning iyul oyida Klark universitetida bir guruh psixologlar tomonidan amalga oshirilgan. Shundan buyon APA dunyo miqyosida psixologlar o‘rtasida o‘zar hamkorlikni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va kasbiy me’yorlarni belgilashda katta rol o‘ynab kelmoqda.

Hozirgi kunda Assotsiatsiya fan va amaliyot sohalaridagi 54 ta bo‘linma va Aqsh va Kanadadagi 58 ta mintaqaviy vakolatxonalardan iborat. APAning prezidentlik saylovlari har yili o‘tkaziladi. 1929 yil 29 avgustda ilk bor Karl Murchison tomonidan APA a’zolarining bиринчи katalogi — psixologik reestrini e’lon qilindi. 1945- yilga kelib APAni qayta tashkil etish chog‘ida har biri o‘z raqamiga ega bo‘lgan bo‘limlar (bo‘linmalar) tizimi yaratildi. 1969-yil 29-avgustda Chikago politsiyasi 1968-yilgi demokratik milliy Konvensiyasida Vietnamga qarshi urush namoyishchilariga ko‘rsatgan shafqatsizligi tufayli Chikagoda navbatdagi APA Konvensiyasi qoldiriladi. Shu tufayli APA yillik Konvensiyasini 31-avgust kuni Vashingtonga ko‘chiradi.

2007-yilda Assotsiatsiya jahon ruhiy salomatlik kuniga bag‘ishlangan bиринчи “psixologiya kuni” ni tashkil etishda ishtirok etdi. XX asr davomida APA o‘z a’zolarining raqib guruhlari o‘rtasida doimiy to‘qnashuvlarni ko‘rdi. Eng yirik qarama-qarshiliklardan biri nazariyotchilar va eksperimentatorlar o‘rtasida, bir tomonidan, amaliy psixologlar o‘rtasida kuzatilgan. Amaliyotchilar va akademiklar jamoalari o‘rtasidagi o‘n yilliklar davomidagi keskinlik 1980-yillarda, amaliyotchilar ko‘pchilikda bo‘lganida keskin avj oldi. 1940- yilda APA a’zolarining 70% ga yaqini ilmiy psixologiya bilan shug‘ullangan bo‘lsa, 1985-yilda atigi 33% ni tashkil qilgan. Keyinchalik ilmiy

psixologiya tarafidorlari Amerika psixologik jamiyati (APS) deb nomlangan o‘z tashkilotlarini yaratdilar va u psixologiya fanlari uyushmasi deb nomlandi. APAning asosiy maqsadi amaliyotchi psixologlarning o‘z kasbiy jamiyatiga ega bo‘lish istagi, akademik olimlarning ilmiy jamiyatga ega bo‘lishi edi. Bu psixologiyaning birlashishi uchun juda keng va xilma-xil ekanligini alohida aytib o‘tish lozim. Rossiyada nazariy va amaliy psixologik yo‘nalishlarga qarab, professional psixologlarni birlashtirgan turli xil assotsiatsiyalar mavjud: Gumanistik psixologiya assotsiatsiyasi, Moskva psichoanalitik assotsiatsiyasi, Erikson terapiyasi, Gipnoz va neyrolinvistik dasturlash assotsiatsiyasi va boshqalar mavjud. O‘zbekiston psixologlar assotsiatsiyasining asosiy vazifasi O‘zbekiston Respublikasida aholiga psixologik xizmat qilishning markazini tashkil etish, unga psixolog mutaxassislarning faol amaliy va ilmiy-amaliy faoliyatlarini jalg qilish hisoblanadi. Psixologiyani kasb sifatida ta’lqin qilar ekanmiz, eng avvalo quyidagilar muhim:

-birinchidan, inson faoliyati sohalarida ijtimoiy tan olingan “psixolog” degan tushunchaning mavjudligi xoh u ilmiy soha bo‘lsin, xoh amaliy soha. Ushbu soha o‘zining predmeti, metodlariga ega bo‘lishi falsafa, tibbiyot, pedagogika fiziologiya va boshqa sohalar bilan bog`liq bo‘lishi darkor.

-ikkinchidan, jamiyatda ushbu faoliyat turi bilan shug`ullanuvchi va shu orqali moddiy ehtiyojlarini qondiruvchi shaxslarning mavjudligi;

-uchinchidan, ushbu soha boyicha kadrlar tayyorlash tizimining mavjudligi.

Yuqoridaqilardan xulosa qilgan holda, psixolog kasbiy faoliyatining uchta asosiy turi farqlanadi:

1. Yangi psixologik bilimlarni topishga qaratilgan ilmiy izlanishlar (psixologik hodisalarni tushuntirish, isbotlash va bashorat qilish, psixologikqonuniyatlarini o‘rganish);
2. Amaliy psixologik yordam muammolarni hal qilish uchun psixologik bilimlarni qo‘llash bilan bog`liq amaliy psixologik ish (psixologik diagnostika va maslahat, tuzatish va rivojlantirish ishlari, psixologik profilaktika);
3. Psixologik bilimlarni tayyorlash va psixologik ta’lim (ma’ruzalar, seminarlar, amaliy mashg’ulotlar o‘tkazish, odamlarning psixologik o‘z-o‘zini tarbiyalashiga rahbarlik qilish)

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

- 1.Psixologiya kasb sifatida.
2. Psixologlarning kasbiy faoliyat turlari.
3. G’apb mamlakatlari va MDHda mutaxassis psixologlarni tayyorlashni sifatini oshirish jihatlari.
4. Psixologlarni tayyorlash bosqichlari.
5. Psixologlar jamiyati va assotsiatsiyalarini shakllanishi.
6. Ilmiy tadqiqotlar psixologlar faoliyati turi sifatida.

7. Amaliy psixologik ish psixologlar faoliyat turi sifatida.
8. Psixologik bilimlarni o‘rgatish psixolog faoliyati turi sifatida.
9. Amaliy psixologiyaning boshqa sohalar bilan uzviyligi.
10. Milliy psixologiya va amaliy psixologiyaning o‘zaro muvofiqligi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Psixologiyaning kasbiy faoliyat turlari qaysi biri orqali amalga oshiriladi?
Tadqiqot, maslahat va diagnostika
Tasvirlash, kuzatish va eksperiment qilish
Tahlil qilish, mulohaza yuritish va sinovlardan o‘tkazish
Faoliyatni rejalashtirish va natijalarini baholash
2. Psixologiya tarmoqlarini qanday tasniflash mumkin?
Faoliyat turlari, yosh xususiyatlari va shaxslararo munosabatlar
Kasbiy faoliyat, shaxsiy xususiyatlar va jamiyatdagi roli
Inson ruhiyatining turli sohalari va metodologik yondashuvlar
Faoliyat turlari, rivojlanishning yosh xususiyatlari, va shaxs va jamiyatga ta’sir
3. Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi (APA) tashkil topgan yilni aniqlang.
1852
1892
1922
1945
4. Ilmiy tadqiqot ishi psixolog faoliyatining qaysi jihatini ko‘rsatadi?
Faqat maslahat berish
Shaxsiy muammolarni hal qilish
Ilmiy asoslangan bilimlar orqali yangi psixologik qonuniyatlarni ochish
Faqat amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish
- 5.B.G. Ananev insonning qanday to‘rtta sifati haqida fikr bildirgan?
Shaxs, aqliy salohiyat, sezgi, irodaviylik
Individ, subyekt, shaxs, individuallik
Intellekt, xulq, madaniyat, motivatsiya
Jismoniy salomatlik, ong, xotira, shaxs

3-MAVZU. PSIXOLOG KASBIY FAOLIYATI VA PSIXOLOGIYA METODLARI

Reja:

- 3.1. Psixolog kasbiy faoliyatida psixologiya metodlarining tutgan o‘rni.
- 3.2. Psixologiya metodlari klassifikatsiyasi.
- 3.3. Psixologiyaning asosiy metodlari.

Tayanch so’z va iboralar: *metodologiya, metod, ilmiy tadqiqot tamoyillari, metodologik funksiyalar, klassifikatsiya, ob’ektiv metodlar, tadqiqot metodlari, kuzatish, eksperiment, suhbat, so’rovnama, test, faoliyat mahsulini o’rganish metodi, biografiya, sotsiometriya, statistik metodlar*

3.1. Psixolog kasbiy faoliyatida psixologiya metodlarining tutgan o‘rni.

Ma’lumki, har qanday ilmiy fan o‘zining muayyan predmetiga ega. Psixologiya fanining predmeti — bu **psixikadir**. Psixika — tashqi (ob’ektiv) olamni aks ettiruvchi, bu aks ettirish natijasida yuzaga keluvchi va shakllanuvchi obrazlar orqali inson faoliyati hamda uning xulq-atvorini maqsad sari yo‘naltiruvchi jarayonlar yig‘indisidir.

Psixik hodisalar insonning muhit bilan o‘zaro munosabatlari asosida shakllanadi hamda ularning tahlili psixologiyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, psixologiya fani nafaqat inson ongini, balki uning idrok, xotira, tafakkur, histuyg‘u, iroda kabi murakkab ichki kechinmalarini ham o‘rganadi.

Har qanday fan singari, psixologiya ham o‘z oldiga qo‘yilgan ilmiy maqsad va vazifalarni amalga oshirishda turli metodlardan foydalanadi. Mashhur rus olimi **I.P. Pavlov** bu borada shunday degan edi: “*Metodning qo‘lida tadqiqot taqdiri yotadi.*” Bu fikr shuni anglatadiki, ilmiy izlanishlarning sifati va ishonchhliligi, birinchi navbatda, qo‘llanilgan metodga bog‘liqdir.

Psixologiyada metodlar tizimi umumiylil ilmiy metodologiya bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llaniladi. **Metodologiya** keng ma’noda — bu ma’lum bir tartibga, tizimga ega bo‘lgan va ilmiy bilimlarni izlab topishga qaratilgan, mantiqiy ketma-ketlik asosida amalga oshiriladigan metodlar majmuasidir.

Zamonaviy metodologik yondashuvda metodologiya faqatgina uslub sifatida emas, balki **ilmiy tafakkur madaniyati, tadqiqot strategiyasi, va bilimlar tizimini shakllantirish usuli** sifatida qaraladi. Ko‘pgina olimlar bu atamani **ilmiy metod** tushunchasiga mos tarzda tushunadilar va undan foydalanadilar. Ular metodologiyani faqat ilmiy tahlil vositasi sifatida emas, balki ilmiy izlanishlar mazmuni va yo‘nalishlarini aniqlovchi omil sifatida ham e’tirof etadilar.

Metodologiya (yunoncha methodes - bilish, tadqiq qilish, izlanish yo'li, logos - tushuncha, ta'limot) amaliy faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari, usullari tizimi hamda ushbu tizim haqidagi talimotdir. **Metodlar** - psixologiyani o'rghanish usullari va yo'llari yig'indisi, "**Metod**" bu bilish, anglash yo'li bo'lib, bu usul orqali fanning predmeti aniqlanadi. (S.L. Rubinshteyn). **Metodologiya** - uslubiyot deb ilmiy tadqiqot tamoyillari tizimiga aytildi. Aynan, metodologiya to'plangan faktlar bilimning real va ishonchli asosiga qay darajada xizmat qilishi mumkinligini aniqlaydi.

Rasmiy nuqtai nazardan, metodologiya real hayot haqidagi bilimlar mazmuni bilan bog'liq bo'lmay, balki bilimlarni tashkil etish borasidagi jarayonlar bilan ish ko'radi. Shuning uchun "metodologiya" termini, odatda, tadqiq etilgan protsedura, texnika, usullar majmuini va ma'lumotlar to'plash, ularni qayta ishslashni anglatadi.

Metodologiyani mohiyatan tushunish tadqiqot predmeti doirasidagi evristik (ya'ni, izlanayotgan) funksiyani amalga oshirish asoslanadi. Har qanday nazariy bilimlar tizimi nafaqat predmet doirasidagi tasvirlash va tushuntirish mazmuniga ega bo'ladi, balki, bir vaqtning o'zida yangi bilimlar izlanishida qurol hisoblanadi. Predmet doirasidagi ob'ektiv hayotni aks ettiruvchi nazariya qanchalik tamoyil va qonunlarni shakllantirsa u shunchalik voqe'likning o'rganilmagan qirralariga kirish usullarini ko'rsatadi. Gegelning ta'kidlashicha: "Har qanday fan amaliy mantiqdir". A.N. Kupriyan nazariyaning 3 ta asosiy metodologik funksiyalarini ajratibko'rsatadi: mo'ljallangan, bashoratlangan, klassifikatsiyalangan

birinchisi, tadqiqotchi harakatini ma'lumotlar olishga yo'naltirsa;

ikkinchisi, ba'zi maxsus sohalarda o'ziga xos bog'liqlikni tiklashga suyanadi;

uchinchisi esa xususiyat va aloqalarni namoyon qilish yo'li orqali faktlarni tizimlashtirishga yordam beradi.

3.2. Psixologiya metodlari klassifikatsiyasi

Har qanday fan taraqqiyotining muhim shartlaridan biri — uning imkon qadar ob'ektiv, aniq va ishonchli uslublarga ega bo'lishidir. Shuning uchun ham psixologiya fanida tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi, to'g'rilingini kafolatlaydigan metodlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega.

"**Metod**" atamasi yunoncha "**usul**", "**yo'l**" degan ma'noni anglatadi. U har qanday maqsadga erishish yo'li, ya'ni hodisalarini o'rghanish va anglash vositasi sifatida talqin etiladi. Psixologiyada metod deganda inson psixikasini ilmiy asosda o'rghanishga xizmat qiluvchi vositalar va usullar tizimi tushuniladi.

Psixologik tadqiqotlarda inson ruhiy faoliyatining turli jihatlarini o'rghanishga qaratilgan ko'plab metodlar mavjud. Bu metodlar mazmun va mohiyatiga ko'ra har xil tasnif qilinadi. Jumladan, taniqli rus psixologi **B.G. Ananev** psixologik metodlarni ularning **xususiyatlari** va **tadqiqotdagি o'rniga qarab** quyidagicha guruhlarga ajratgan:

A) tashkiliy guruhga - qiyoslash, longityud, kompleks metodlari kiradi;

B) emperik guruhga kuzatish, eksperiment, suhbat, so‘rov nomalari, test, faoliyat mahsulini o‘rganish metodi, biografiya, sotsiometriya;

V) natijalarini qayta ishlash yoki statistik metodlar;

G) sharhlar guruhiga genetik va donalash metodlari kiradi.

B.G.Ananev tomonidan ajratilgan klassifikatsiyaga ko‘ra, tadqiqot ishlarida foydalaniladigan asosiy metodlar emperik guruh metodlari hisoblanadi. Shunday bo‘lsada oshqa guruh metodlariga ham qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Tadqiqot metodlarining birinchi tashkiliy guruhi o‘z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko‘pyoqlama) deb ataladigan turlarni qamrab oladi.

Asosiy metodlar	Asosiy metodlarning variantlari
KUZATISH	Tashqi (ob’ektiv kuzatish) Ichki (sub’ektiv, o‘z-o‘zini kuzatish) Erkin kuzatuv Standartlashtirilgan Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish
SO‘ROV	Og‘zaki so‘rov Yozma so‘rov (anketa) Erkin so‘rov (suhbat) Standartlashtirilgan so‘rov
FAOLIYAT MAHSULLARINI TAHLIL QILISH	Bolalar faoliyat mahsulini tahlil qilish Kattalar faoliyat mahsulini tahlil qilish
TEST	Test - so‘rov Test - topshiriq Proektiv test Sotsiometrik test
EKSPERIMENT	Tabiiy eksperiment Laboratoriya eksperimenti
BIOGRAFIYA (TARJIMAI HOL) METODI	
MODELLASHTIRISH	Matematik modellashtirish Mantiqiy modellashtirish Texnik modellashtirish Kibernetik modellashtirish

3.3. Psixologiyaning asosiy metodlari

Kuzatish metodi tabiiy metodlar jumlasiga kirib, bunda tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq-atvorini bevosita tashqaridan turib kuzatish orqali ma’lumotlar to‘plash usuli bo‘lsa, o‘z-o‘zini kuzatish esa odam o‘zida kechayotgan biror o‘zgarish yoki hodisani o‘zi o‘rganish maqsadida ma’lumotlar to‘plashdir.

Erkin kuzatuvda ko‘pincha biror ijtimoiy hodisa yoki jarayonni o‘rganish maqsad qilib qo‘yiladi. Masalan, dars jarayonida ta’lim oluvchilarining u yoki bu mavzu yuzasidan umumiylar munosabatlarini bilish uchun ham ba’zan erkin kuzatish tashkil etilishi mumkin. *Standartlashtirilgan kuzatuv* esa, buning aksi bo‘lib, nimani, qachon, kim va kimni kuzatish qat’iy belgilab olinadi va maxsus dastur asosida kuzatuv olib boriladi.

Psixologiyada guruhiy jarayonlarning shaxs xulq-atvoriga ta'sirini o'rganish maqsadida bevosita *ichkaridan kuzatuv* tashkil qilinadi, bunda kuzatuvchi shaxs o'sha guruh hayotiga tabiiy ravishda qo'shiladi va zimdan kuzatish ishlarini olib boradi. Shu yo'l bilan olingen ma'lumotlar bir tomonidan tabiiyligi va mufassalligi bilan qimmatli bo'lsa, ikkinchi tomonidan, agar kuzatuvchida konformizm xislati kuchli bo'lsa, o'zi ham guruh hayotiga juda kirishib ketib, undagi ayrim hodisalarni sub'ektiv ravishda takrorlaydigan bo'lib qolishi ham mumkin. Guruhiy fenomenlarni *tashqaridan kuzatish* buning aksi – ya'ni kuzatuvchi guruhga yoki kuzatilayotgan jarayonga nisbatan chetda bo'ladi va faqat bevosita ko'zi bilan ko'rgan va eshitganlari asosida fikr-mulohaza yuritadi.

Kuzatish metodining ijtimoiy hayot, professional ko'rsatkichlarni qayd qilishda so'zsiz afzalliklari bor, lekin shu bilan birga kuzatuvchining professional mahorati, kuzatuvchanligi, sabr-qanoatiga bog'liq bo'lgan jihatlar, yana to'plangan ma'lumotlarni sub'ektiv ravishda tahlil qilish xavfi bo'lgani uchun ham biroz noqulayliklari yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun ham kuzatish boshqa metodlar bilan birlgilikda ishlatalidi.

So'rov metodi ham psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan biri bo'lib, unda tekshiriluvchi tekshiruvchi tomonidan qo'yilgan qator savollarga muxtasar javob qaytarishi kerak bo'ladi.

Og'zaki so'rov oddiygina qilib, suhbat metodi deb ham ataladi. Suhbat o'tkazadigan shaxs unga ma'lum darajada tayyorgarlik ko'rgach so'roq o'tkazadi. Agar so'rovchining professional mahorati yoki tajribasi bunga yetarli bo'lmasa, so'rov o'z natijalarini bermasligi, aksincha bo'lsa esa ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo'lgan noyob ma'lumotlarni to'plash imkoniga ega bo'ladi.

Yozma so'rov yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o'zida ko'pgina odamlar fikrini o'rganish mumkin bo'ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o'z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so'rvnomalar aniq va ravon tilda, javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo'lsa, qimmatli birlamchi materiallar to'planadi.

So'rovning ham *erkin* va *standartlashtirilgan* shakllari mavjud bo'lib, birinchisida oldindan nimalar so'ralishi qat'iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, hattoki, dastur ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so'roq o'tkazilishi nazarda tutiladi.

Faoliyat mahsullarini tahlil qilish metodi inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida psixologiyada keng qo'llaniladi. Ijodiy faoliyat mahsullariga sxema, ixtiro, asbob-uskunalar, referat, kurs va malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy ma'ruza, konspekt, taqriz, tezis, maqola, ko'rsatmali qurollar (bolalarning chizgan rasmlari, yasagan o'yinchoqlari) kabilar kiradi.

Test (ing. sinash, tekshirish) metodi yordamida biror o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, ularni ko'pchilikda

qayta-qayta sinash va ma'lumotlarni korrelyatsion analiz orqali ishonchlilikka tekshirish mumkin. Testga qo'yilgan talab hech qachon o'zgarmaydi, hattoki, shunday testlar borki, ular turli millat va elat vakillarida, turli davrlarda ham o'zgarmagan holda ishlatiladi (masalan, Ravenning aqliy intellektni o'lhash, Kettelning va Ayzenkning shaxs testlari).

Testning so'rov shaklida oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga javob berish talab qilinadi (masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya - ekstroversiyani aniqlab, undagi savollarga "ha" yoki "yo'q" tarzida javob berish so'raladi).

Test-topshiriqda esa odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholash tushuniladi. Bunday testlarga shaxsning kreativlilagini aniqlash maqsadida sinaluvchiga tugallamagan shakllardan o'zi xohlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Chizilgan rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrashi jarayoniga baho beriladi, miqdoriy ko'rsatkich aniqlanadi. Mazkur metodlarning afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining mavjudligidir. Kamchiligi – agar sinaluvchi testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, natijalar sun'iy xarakterga ega bo'lib qoladi.

Testning proaktiv (loyiha) turida uning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi. Bunda tekshiriluvchi o'zining qaysi xislati yoki holati, yoki jarayoni tekshirilayotganidan bexabar bo'ladi. Masalan, mashhur Rorshaxning "siyoh dog'lari" testi, assotsiativ (tugallanmagan hikoyalar), ekspressiv (psixodrama, o'yinlar, ishbilarmonlik o'yinlari, ijtimoiy treninglar, erkin mavzuda rasm chizish) kabi testlarda bir narsaning loyihasidan go'yoki ikkinchi bir narsaning mohiyati aniqlanadi.

Sotsiometrik test kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotSIONAL munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lhashda qo'llanilib, unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur test yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatlarini aniqlash uchun, uning qaysi faoliyatida kim bilan qatnashishi so'raladi.

Eksperiment metodining psixologiyada ikki turi: laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment tafovut qilinadi.

Laboratoriya eksperimentida tekshiruvchi kishi tekshiriladigan psixik hodisani qachon kerak bo'lsa, o'sha vaqtida ataylab vujudga keltiradi. Bunda tekshirilayotgan psixik hodisa tabiiy sharoitda birgalikda sodir bo'ladigan boshqa psixik hodisalar eksperiment mobaynida o'zgartirilishi, boshqa psixik hodisalar bilan muayyan bir tarzda bog'lanishi, kuchi, tezligi, hajmi va boshqa shu kabi jihatlari o'lchab ko'rlishi mumkin. Psixik hodisalarining qonuniyatları yaxshiroq aniqlanishi mazkur metodning yutug'i sanaladi. Bu metodni o'tkazishda maxsus metodik materiallar – narsa, rasm va so'zlar, maxsus asboblar qo'llaniladi.

Tabiiy eksperiment kuzatish va laboratoriya eksperimenti metodi o'rtasida turadi. Tabiiy eksperimentda tekshiruvchi kishining o'zi tekshiriladigan kishida yoki kishilarda psixik jarayon (masalan, xotira, diqqat, tasavvur) hosil qilish yoki

tekshiriladigan kishilarda individual xususiyatlarni namoyon etish uchun maxsus sharoit tug‘diriladi.

Biografiya (tarjimai hol) metodi yordamida inson hayoti, faoliyati, ijodiyoti to‘g‘risidagi og‘zaki va yozma ma’lumotlar o‘rganiladi. Bunda kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o‘zgalar ijodiga bergen baholari, tanbehlari, taqrizlari alohida o‘rin egallaydi.

Modellashtirish metodi kuzatish, so‘roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida olingan natijalar qoniqtirmagan vaziyatda qo‘llaniladi. Bunda o‘rganilayotgan hodisaning umumiyligi xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o‘sha model asosida tadqiqotchni qiziqtirgan jihat o‘rganiladi va xulosalar chiqariladi

Har bir metodni o‘z vaqtida va professional tarzda qo‘llay bilish va olingan natjalardan to‘g‘ri xulosalar chiqara olish muhim ahamiyatga egadir

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

- 1.Psixolog kasbiy faoliyatida psixologiya metodlarining tutgan o‘rni.
2. Psixologiyada metod va metodologiyaning o‘zaro aloqadorligi.
3. Psixologiya metodlari to‘g‘risida umumiyligi tushunchasi.
4. Kuzatish metodi va uning variantlari.
5. Eksperiment metodining ijobiy va salbiy tomonlari.
6. Suhbat- intervju metodining ahamiyati.
7. Psixodiagnostik metodlar va ularga tasnif.
8. Test metodining bugungi imkonitlari.
9. Proektiv metodikalar tavsifi.
- 10.Psixodiagnostik metodlar imkoniyatlarining chegaralanganligi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

- 1.Kuzatish metodining turlar qayi juftlikda to‘g‘ri keltirilgan?
Ob’ektiv va sub’ektiv
Bilvosita va bevosita
Yo‘nalgan va yo‘nalmagan
Distan va konstant
- 2.Laboratoriya usuli qanday usul?
Tajriba sinov
Yashirin kuzatuv
Sinov o‘tkazish
Ma’lumotlarni to‘plash
- 3.B.G. Ananev metodlarni tasniflashda nimalarga asoslangan?
Shaxsiy tajriba va ilmiy faoliyatga
Ularning tadqiqotdagi o‘rni va xususiyatlariga
Psixologik makteblarga qarab
Tarixiy davrlarga qarab

4-MAVZU. PSIXOLOGLARNI TAYYORLASH BOSQICHLARI.

Reja:

- 4.1. G'arb mamlakatlari va MDHda mutaxassis psixologlarni tayyorlashni sifatini oshirish jihatlari
- 4.2. G'arb va MDH mamlakatlaridagi psixolog mutaxassislar tayyorlanuvchi mashhur institutlar va universitetlar
- 4.3. .Psixologlarni tayyorlash bosqichlari

Tayanch so'z va iboralar: Psixolog, MDH, mutaxassis, amaliyotchi psixolog, professional psixologiya, psixologlar tayyorlash instituti, axloq kodeksi, psixologik xizmat

4.1. G'arb mamlakatlari va MDHda mutaxassis psixologlarni tayyorlashni sifatini oshirish jihatlari

Bugungi globallashuv sharoitida inson salohiyatini to‘liq ochib berishga qodir psixolog kadrlarni tayyorlash har bir davlat uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, G'arb mamlakatlari va MDH davlatlarida psixologiya sohasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etib, psixologlarni tayyorlashda sifat jihatidan yangicha yondashuvlar shakllanmoqda. Bugungi kunda professional psixologiya sohasi o‘zining chuqur tarixiy ildizlariga ega bo‘lib, uning rivojlanishiga falsafiy, tibbiy va pedagogik asoslar zamin bo‘lgan. Adabiyotlarda qayd etilishicha, zamonaviy professional psixologiyaning shakllanishida muhim bosqichlardan biri Leiptsig shahrida psixologik institutning tashkil etilishi bo‘lgan. Aynan shu institutning ochilishi psixologiyaning ilmiy-akademik, tadqiqotchilik sohasi sifatida mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Ilk bor psixologiya fanlari bo‘yicha professor ilmiy unvoni amerikalik olim Jeyms Kettellga berilgan. Bu esa psixologiyani mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida tan olish yo‘lida muhim qadam bo‘lgan. XX asr boshlaridan boshlab professional psixologlar tayyorlashga oid an’anaviy tizim Yevropaning bir qator mamlakatlarida shakllana boshladi. Jumladan, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shveysariya, Avstriya, Belgiya, Gollandiya, Rossiya, shuningdek AQSh va Kanada kabi davlatlarda professional psixologlarning ilmiy va o‘quv faoliyatları tarixiy tajribaga asoslangan holda oliy ta’lim tizimiga joriy etilgan. Boshqa Yevropa mamlakatlari, shuningdek Avstraliya, Osiyo, Afrika hamda Janubiy Amerika davlatlari esa odatda allaqachon shakllangan psixologik ta’lim modellariga tayanadilar. Ular bu tajribalarni o‘z milliy sharoitlariga moslab, zamonaviy talablar asosida tatbiq etadilar.

Shu bilan birga, ayrim mamlakatlarda oliy psixologik ta’lim tizimining tuzilishi va davomiyligi, avvalo, milliy an'analar, qadriyatlar tizimi, o’rgatilayotgan fanlarning mazmuni va psixologiya fanining ilmiy-amaliy yutuqlari asosida belgilanadi.

1990-yil 14–16-sentabr kunlari Lyuksemburg shahrida bo‘lib o’tgan Yevropa Psixologik Assotsiatsiyalar Federatsiyasi (EFPA)ning Bosh Assambleyasida professional psixologlarni tayyorlash masalasi keng muhokama qilindi. Ushbu muhim yig‘ilishda har bir mamlakatda psixologiya sohasi bo‘yicha ta’lim mazmuni va shakli, albatta, o‘zining milliy huquqiy, ta’limiy va kasbiy an'analariga asoslangan holda tashkil etilishi lozimligi ta’kidlandi.

Shu bilan birga, EFPA professional psixologlar o’rtasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, a’zo tashkilotlarni o‘z mamlakatlarida psixologik ta’lim va amaliyot tizimini takomillashtirishdagi harakatlarida qo’llab-quvvatlash maqsadida muhim tashabbusni ilgari surdi. Bunda mustaqil kasbiy faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur bo‘lgan optimal ta’lim standartlarini belgilovchi rasmiy bayonot ishlab chiqildi.

Mazkur bayonotda Yevropa miqyosida psixologik ta’limni muvofiqlashtirish, ta’lim sifati va mazmunini bir tizim asosida olib borish orqali psixolog mutaxassislarning kasbiy malakasini xalqaro darajada tan olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan qoidalar mujassamlashtirilgan.

Chet el mamlakatlarida psixolog mutaxassislarni tayyorlash tizimi umumiy tamoyillarga asoslangan bo‘lib, bu sohadagi kasbiy tayyorgarlik jarayoni puxta rejalshtirilgan va bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Odatda, bu quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. 5–6 yillik universitet yoki kasbiy yo‘nalishga ixtisoslashgan kollej ta’limi;
2. So‘ngra ikki-uch yillik magistratura bosqichi. Bu davrda talabalar litsenziyaga ega bo‘lgan professional psixolog (odatda, tajribali amaliyotchi yoki klinik psixolog) rahbarligida amaliy mashg‘ulotlar va nazorat ostidagi faoliyatni olib boradilar;
3. Shuningdek, doktorantura darajasigacha davom etuvchi ilmiy yo‘nalish ham mavjud. Bu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot olib borish, doktorlik dissertatsiyasi yozish, tajriba va tahlil asosida ilmiy xulosalar chiqarish talab etiladi.

Ko‘plab mamlakatlarda magistr darajasini olgan shaxslar faqat litsenziyaga ega psixolog rahbarligida amaliyot olib borishi mumkin. Bu holat nazorat ostidagi amaliyotni kuchaytirish va tajribani oshirishga qaratilgan.

Diplom organidan so‘ng, professional psixologlar o‘z kasbiy malakasini oshirish uchun, odatda, ikki xil yo‘nalishdan birini tanlaydilar:

- **Ilmiy yo‘nalish** – bu doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilishga qaratilgan o‘quv dasturlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu yo‘nalish akademik faoliyat, ilmiy tadqiqot va universitetda dars berishga tayyorlaydi.
- **Amaliy yo‘nalish** – bu esa muayyan sohaga (masalan, ta’lim psixologiyasi, sog‘liqni saqlash yoki tashkilot psixologiyasi) ixtisoslashgan holda sertifikat olish va professional faoliyatni boshlash huquqini beradi. Bu yo‘nalishda maxsus qo‘srimcha kurslar, amaliyot va kompetensiya baholovlari mavjud bo‘ladi.

Bugungi kunda ko‘plab Yevropa va boshqa rivojlangan mamlakatlarda psixologlarni tayyorlashda umumiy kasbiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Bu, bir tomondan, psixologik ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilsa, boshqa tomonidan, xalqaro miqyosda malaka tan olinishi va hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Nazorat ostidagi amaliyot ko‘plab mamlakatlarda 6 oydan 1 yilgacha davom etadi va bu bosqich yakunlanganidan so‘nggina mustaqil faoliyat yuritishga ruxsat beriladi.

4.2. G’arb va MDH mamlakatlaridagi psixolog mutaxassislar tayyorlanuvchi mashhur institutlar va universitetlar

MDH davlatlari ichida o‘ziga xos o‘ringa ega Rossiyada ham psixologiya sohasida turli institut, laboratoriyalarning ochilishi, psixologlar tayyorlash tizimini takomillashuviga xizmat qildi. Rossiyada psixologiyaning shakllanishi 19-asr oxirlariga borib taqaladi. Bu davrda birinchi bo‘lib psixologik laboratoriylar tashkil etildi va bu ilmiy yo‘nalishning mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos yaratildi. Xususan, V.M.Bexterov tomonidan birinchi bo‘lib Rossiyadagi Kazan universitetida 1885 yilpsixologik eksperimental laboratoriya, 1908 yil Sankt-Peterburgda psixonevrologik institut, psixolog va filosof olim G.I.Chepanov tomonidan birinchi Psixologiya institutining ochilishi hamda oddesiyalik psixolog N.N.Lange, gruziya psixologik maktabi asoschisi D.N.Uznadze va boshqalarning ilmiy izlanishlari natijasida professional psixologlar zarurati namoyon bo‘ldi. Rossiyada psixologik ta’lim faqat 20-asrning oxirida keng tarqaldi. Birinchi rus psixologiya fakultetlari 1966 yilda Moskva va Leningrad davlat universitetlarida ochilgan, u yerda allaqachon psixologik kafedralar bo‘lgan. Moskva universitetida psixologik ta’limning asoschilarini taniqli rus psixologlari P.Y.Galperin, B.V.Zeigarnik, A.N.Leontiev, A.R.Luriya, K.E.Fabri, D.B.El’konin va boshqalar. Sankt-Peterburg universitetida psixologiya fakultetini yaratishda B.G.Ananiev, E.S.Kuzmin, B.F.Lomov, V.N.Myasishev va boshqalar qatnashdilar.

XX asrning so‘nggi o’n yilligiga kelib Rossiyadagi professional psixologlar ko‘plab ixtisoslashgan va ixtisoslashgan bo‘limgan universitetlar tomonidan tayyorlangan. Deyarli barcha yirik oliy o‘quv yurtlari Psixologiya faniga ega edilar. Bunday psixologik ta’lim ko‘lami ijobiy jihatlar bilan bir qatorda uning sifatidagi muammolarni ham keltirib chiqardi. Rossiyada psixologlar uchun oliy universitet ta’lim tizimidan tashqari asosiy ta’limning boshqa shakllari mavjud emas. Bu holat boshqa ko‘pgina mamlakatlar uchun odatiy hol bolib, professional psixologlarni o‘qitish muddati besh yildan kam bo‘lmasligi o‘zgarib turadi.

Hozirgi paytda psixologlar uchun kunduzgi va sirtqi ta’lim mavjud bo’lsa-da, shuningdek masofaviy o‘qitish shakllana boshlaganiga qaramay, professional psixologning to’laqonli shakllanishi, avvalambor, kunduzgi ta’limni nazarda tutadi. Bu psixologiyani boshqa shakllarda egallashga urinishning iloji yo‘qligini anglatmaydi, ammo talaba avvalambor, amaliyotni o‘quv

jarayonida va o'qishni tugatgandan so'ng tajribali mutaxassislar rahbarligida "to'plahi" zarurligini aniq anglab yetishi kerak. Talaba har qancha iqtidorli bo'lmasin, u har xil nazariy bilimlarni, turli tasniflarni har qancha to'iq tarzda o'zlashtirgan bo'lsa ham, uni psixolog deb hisoblash uchun yetarli emas. Kasalliklarning barcha alomatlarini eslab qolish shifokor bo'lishni anglatmaganligi va faylasuflarning asarlari haqida katta ma'lumot bilish, uni bilgan kishi o'zi faylasuf degani emasligi kabi, bo'lajak mutaxassis amalyotda sinalmasa, kasbni egallagan hisoblanmaydi. Psixolog agar o'z vakolatlari chegaralarini (yoki qobiliyatsizligini) anglamasa boshqalar uchun xavflidir. Psixologik ta'lif bo'yicha eng katta tajriba mamlakatning quyidagi ta'lif muassasalarida: Moskva, Sankt-Peterburg, Yaroslavl, Rostov-Don universitetlarida mavjud. Shu bilan birga, so'nggi yillarda ko'plab boshqa oliy o'quv yurtlarida psixologiya kafedralari ochildi. Qozon, Samara, Ufa, Perm, Kursk, Novosibirsk, Irkutsk yirik psixologik markazlarga aylanmoqda. Psixologik fakultet bitiruvchilar, odatda, 020400-"Psixologiya" ixtisosligini oladilar. 1998 yildan boshlab klinik psixologiya alohida ixtisosga aylandi. "Maxsus psixologiya"ni alohida mutaxassislik sifatida ko'rib chiqish masalasi hal qilinmoqda. Rossiyada 2000 yil mart oyida Ta'lif vaziri o'rinnbosarining buyrug'i bilan "Psixologiya" ixtisosligi bo'yicha yuqori kasbiy ta'lif uchun yangi Davlat ta'lifstandarti tasdiqlandi ("Psixolog. Psixologiya o'qituvchisi" ixtisosligi). Kunduzgi ta'lif tizimida 020400-"Psixologiya" ixtisosligi bo'yicha psixolog tayyorlash bo'yicha asosiy ta'lif dasturini o'zlashtirishning me'yoriy muddati 4 yil.

Davlat standarti mutaxassisni kasbiy tayyorgarligi uchun quyidagi talablarni ilgari suradi:

- ✓ olingan nazariy bilimlar, ilmiy izlanish orqali ma'lumot olish asosida zamonaviy ilmiy kontseptsiyalar boyicha faoliyatini tashkillastira olishi, ilmiy va amaliy muammolarni to'g'ri qo'yishi va hal etishi;
- ✓ amaliy faoliyatda ishtirok etishi, psixodiagnostika, psixokorreksiya va psixologik maslahat berishning asosiy usullarini o'zlashtirishi;
- ✓ oliy o'quv yurtlarida psixologiyani o'qitish metodikasi va bilimlari kompleksiga ega bo'lish.

Akademik ta'lifni tugatgandan so'ng, talaba mutaxassisning yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tishi kerak, bu yakuniy malakaviy ish va kasbiy muammolarni hal qilish uchun nazariy tayyorgarlikni aniqlashga imkon beradigan davlat imtihonini o'z ichiga oladi.

Psixologik mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lifning to'liq kursi eng maqbuldir va mustaqil psixologik faoliyatni boshlash uchun yetarli malakalarni beradi. Biroq, ba'zida, istisno tariqasida, psixologiyaning ayrim sohalari bo'yicha mutaxassislar qisqa muddatli malaka oshirish kurslaridan so'ng ishlashi mumkin. Daniya, AQSh, Portugaliya, Finlyandiya, Norvegiya, Niderlandiya, Avstriya, Ispaniya, Vengriya, Italiya, Germaniya, Shveytsariya talabalari so'nggi o'quv kurslarida psixologik mutaxassislik olishgan bo'lsa, Rossiya, Finlyandiya, Shvetsiya, Belgiyada psixologlar ixtisoslashuvi boshidanoq amal qilib

kelinmoqda Ko'pgina mamlakatlarda, aslida psixologik ta'limga bajarish odatdagidan ko'proq vaqt talab etadi. Bu, birinchi navbatda, talabalar mustaqil ravishdao'quv yukini va psixologiyani o'rganish tezligini tartibga solish imkoniyatiga ega ekanligi bilan bog'liq. Masalan, Germaniyada dasturni to'liq amalga oshirish uchun intensiv o'quv yoki bilan talabaga 9 semestr kerak, ya'ni. 4,5 yil. Ammo ko'pchilik talabalar buning uchun 12 semestrga muhtoj, ya'ni. 6 yil. AQShda 4 yil davomida asosiy psixologik ta'limga talabaning bakalavr darajasiga ega bo'lishiga olib keladi. Barcha keyingi ta'limga odatda aspirantura deb nomlanadi. Magistrlik darajasi uchun siz qo'shimcha 2 yil o'qishingiz kerak yoki talabaning xohishiga ko'ra, uning qiziqishi va kasbiy niyatiga qarab, u bakalavr darajasini olganidan so'ng, amaliy psixologlarni tayyorlash bo'yicha 2 yillik dasturni qabul qilishi mumkin (Professional psixologiya). G'arb va MDH mamlakatlaridagi psixologlarni tayyorlash tizimlarini tahlil qilish va taqqoslash natijasida Yevropaning barcha davlatlari, AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiyada umumiy o'ziga xoslikni ko'rish mumkin, yani psixologlarni tayorlash tizimi uzoq vaqt shallanib, zamonga mos tarzda o'zgarib kelmoqda.

4.3. Psixologlarni tayyorlash bosqichlari.

Psixologlarni tayyorlash bosqichlari ilmiy va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borish uchun kerakli bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni rivojlantirishni maqsad qiladi. Ushbu jarayon odatda bir necha bosqichga bo'linadi So'nggi yillarda O'zbekistonda psixologiya sohasida pedagogik kadrlarni tayyorlash va amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonning oliy ta'limga tizimida psixologiya fanining rivojlanishi va uning amaliyotdagi roli sezilarli darajada o'sdi. Jumladan: Respublikaning 10 ta oliy ta'limga muassasasida "Psixologiya", 20 ta oliy ta'limga muassasasida "Pedagogika va psixologiya" ta'limga yo'naliishlari va mutaxassisliklari bo'yicha talabalar tahsil olmoqda edi. 2019 yil ushbu sohada qabul kvotalari keskin oshirilib, ayrim nufuzli oliy ta'limga muassasalarida yangi yo'naliishlar ochildi.

Aholiga, ayniqsa yoshlarga samarali psixologik xizmat ko'rsatish, psixologik xizmat faoliyatini boshqarishni muvofiqlashtirish, ta'limga muassasalari bilan profilaktika inspektorlari va jamoat vakillari o'rtasidagi hamkorlikni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, psixologiya mifiktabini rivojlantirish hamda oliy ta'limga tor ixtisosliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish, psixologik markazlar tashkil etishni yo'lga qo'yish maqsadida, 2019 yil 7 iyunda Vazirlar Mahkamasi "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbazarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 472-sonli qarorni qabul qildi. Qarorda belgilangan vazifalar sirasiga, xorijiy tajribadan kelib chiqib, oliy ta'limga yo'naliishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga ijtimoiy psixologiya, yoshlar psixologiyasi, psixologik xizmat faoliyatini boshqarish, oilaviy konsultatsiya va kouching kabi bakalavriat yo'naliishlari va

magistratura mutaxassisliklarini kiritish, respublikaning chekka hududlarida amaliyotchi psixologlarga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda 2019-2020 o‘quv yilidan boshlab psixologiya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha talabalarni davlat granti asosida maqsadli qabul qilish hamda oliv ta’lim muassasalarining magistratura bosqichida psixologiya bo‘yicha mutaxassisliklar kvotalarini keskin oshirish kabilar belgilandi.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

- 1.Psixologlarni tayyorlashga qanday voqelik sabab bo‘lgan?
2. Professional psixologlarni tayyorlashda salmoqli tajridaga ega davlatlar qaysilar?
3. Rossiyada psixologlik eksperimental laboratoriya qachon va kim tomonidan ochilgan?
4. Yevropa Psixologik Assotsiasiyalar Federatsiyasi tomonidan belgilangan umumjahon axloqiy printsiplariga nimalar kiradi?
5. Angliyada asosiy psixologik ta’lim necha yillik o‘qishni o’z ichiga oladi?
7. Rossiyada psixologik ta’lim bo‘yicha eng katta tajriba ega ta’lim muassasalarid qaysi?
8. Rossiyada ilk psixologiya fakultetlari qachon ochilgan?

Mavzu yuzasidan test savollari:

- 1.Psixologlarni tayyorlash jarayonida quyidagi bosqichlardan qaysi biri boshlang‘ich bosqich sifatida qaraladi?

Magistratura

Bakalavriat

Doktorantura

Amaliyot

2. Psixologlarni tayyorlashning birinchi bosqichida talabalar qanday yo‘nalish bo‘yicha ta’lim olishadi?

Psixologiya fanining asosiy tamoyillari

Psixologik amaliyot

Psixologik izlanishlar

Psixologik metodologiya

3. Qaysi universitet G‘arb mamlakatlarida psixologiya sohasida mashhur bo‘lib, psixologiya fakultetiga ega?

Oksford universiteti

Moskvadagi Lomonosov universiteti

Harvard universiteti

Toshkent davlat pedagogika universiteti

5-MAVZU. PSIXOLOGIK XIZMAT VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI.

Reja:

- 5.1. Psixologik xizmat tushunchasi va turli yo'nalishlari.
- 5.2. Psixologning targ'ibot va tashviqot ishlari mazmuni.
- 5.3. Psixoprofilaktika va uning bosqichlari.

Tayanch so'z va iboralar: *aholiga psixologik xizmat, tibbiy va ijtimoiy yordam, psixologik ta'lif, psixologik tadqiqot, psixologik bilimga bo'lgan ehtiyoj, psixologik profilaktika, psixologik maslahat, psixologik tashxis, psixologik muammo, psixologik tahlil.*

5.1. Psixologik xizmat tushunchasi va turli yo'nalishlari

Psixologik xizmat – bu odamlar yoki guruhlarga psixologik muammolarni hal qilish, ularni yaxshilash va rivojlantirish uchun psixologlar tomonidan ko'rsatiladigan mutaxassislik xizmatidir. Psixologik xizmat odamlarning ruhiy holati, hissiy va psixologik muammolariga yordam berish, shuningdek, sog'lom va xavfsiz muhit yaratishga qaratilgan.

Psixologik xizmatning asosiy vazifalari:

- ✓ Psixologik yordam va maslahat: Psixologlar shaxsiy yoki oilaviy muammolarni hal qilishda yordam beradi, stress, depressiya, o'zini past baholash va boshqa ruhiy muammolarni davolashda yordam ko'rsatadi.
- ✓ Psixologik tekshiruvlar va testlar: Psixologik testlar yordamida shaxsning psixologik holati, intellektual darajasi, shaxsiyat xususiyatlari va boshqa psixologik parametrlar aniqlanadi.
- ✓ Psixologik tarbiya va treninglar: Psixologlar odamlarni maqsadli ravishda psixologik ko'nikmalarni rivojlantirishga, hissiy intellektni oshirishga va jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashishga o'rgatadilar.
- ✓ Reabilitatsiya va psixoterapiya: Odamlarning ruhiy holatini tiklash uchun turli xil psixoterapiya usullari, shu jumladan, kognitiv-behavioral terapiya, psixoanaliz va boshqa usullar qo'llaniladi.

Quyidagilar psixologik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:

- psixologik ma'rifat va tashviqot;
- psixologik-pedagogik tashxis;
- psixologik profilaktika;
- psixologik korreksiya;
- psixologik maslahat;
- kasb-hunarga yo'naltirish

Psixologik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilarni nazarda tutadi:

- a) *psixologik ma'rifat va tashviqot yo'nalishida:* pedagogik jamoa, sinf rahbarlari va ota-onalarning psixologik savodxonligi

va kompetentligini oshirishda dastlabki psixologik-pedagogik bilim va tushunchalar, har bir o‘quvchiga individual yondashuv orqali oilaviy munosabatlar, shaxsiy gigiena va sog‘lom turmush bo‘yicha tavsiyalar berish; o‘quvchilar, pedagog xodimlar, ota-onalar bilan yakka va jamoaviy shakldagi suhbatlar, maslahatlar, seminar-treninglar tashkil etish, turli xil yig‘ilishlarda ma’ruzalar bilan chiqishlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali psixologik bilimlarni berib borish;

b) *psixologik-pedagogik tashxis yo‘nalishida:*

-o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ishtiroki, ularning har bir holat, voqeа va hodisaga munosabatini psixologik-pedagogik tashxisga oid yangi metodikalar asosida o‘rganish, tahlil etish va zarur ko‘rsatmalar berish; o‘quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, iste’dodi va iqtidoridagi asosiy yo‘nalishlarni aniqlash; -ta’lim muassasasiga qabul qilingan o‘quvchilarning psixologik moslashuvi va rivojlanish dinamikasini, o‘quvchilarning o‘qishga tayyorgarlik holatlari, o‘zlashtirishi va rivojlanishiga to‘sinqinlik qilayotgan omillarni aniqlash, o‘rganish, tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqish; -ta’lim muassasasining keyingi bosqichlariga o‘tgan o‘quvchilarning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi, o‘quv faoliyati, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasi, shaxs sifatlari, shaxslararo munosabatlar shakllanishini kuzatib borish, tahlil etish, korreksion mashg‘ulotlarni tashkil etish; -psixologik-pedagogik tashxislar, so‘rovnomalari, suhbatlar orqali o‘quvchilarning kasbiy qobiliyatları, qiziqishlari va fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan moyilliklarini aniqlash, ularning ongli ravishda kasb-hunar tanlashlariga ko‘maklashish, ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish uchun o‘quvchilar va ota-onalarga tavsiyalar berish va yo‘naltirish; -ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud hamda fanlarni o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar bilan psixologik-pedagogik tashxislar, so‘rovnomalari, suhbatlar o‘tkazish orqali muammo turini aniqlash, guruhlash va ular bilan korreksion ishlarni olib borish;

v) *psixologik profilaktika yo‘nalishida:*

-o‘quvchilardagi barcha salbiy holatlar va moyilliklarning oldini olish bo‘yicha pedagog xodimlar va ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqish; -o‘quvchilarning tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabatlarida psixologik shikast yetkazuvchi omillarni bartaraf etishda yordam ko‘rsatish; -o‘quvchilar o‘rtasidagi huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha olib boriladigan profilaktika ishlarida ishtirok etish; -o‘quvchilar xulq-atvorigagi salbiy holatlarning oldini olish, ruhiy zarba, nizo, salbiy emotsiyalar kechinmalar holatlari yuzaga kelishining oldini olish; -salomatligi jihatidan imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash; mahalliy davlat hokimiyati organlari, sog‘liqni saqlash, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, otaonalar bilan uchrashuvlar, suhbatlar, seminar-treninglar, munozaralar va ochiq muloqotlar tashkil etish, taqdimotlar va videofilmlar namoyishlarini o‘tkazish;

g) psixologik korreksiya yo‘nalishida:

- ta’lim olish va kasb-hunar tanlashda qiynalayotgan o‘quvchilar, shaxsning motivatsion doirasi bilan bog‘liq muammolarni hal etish borasida individual va jamoaviy korreksiya ishlarini olib borish; -yetim va ota-onal qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning psixologik reabilitatsiyasini ta’minlash;
- mutaxassis sifatida o‘quvchining psixologik holatiga oid ma’lumotlarga munosabat bildirish, tarbiyasida salbiy holatlar mavjud bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion ishlarni amalga oshirish; -ta’lim olish jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligi hamda qiziqishlarini rivojlantirish, ularning intellektual passivligini korreksiyalash;
- individual yoki jamoaviy tartibda ota-onalar va pedagog xodimlarni jalg etgan holda o‘yin, muloqot, suhbat, trening, mashq va mashg‘ulotlar shaklida tadbirlar tashkil etish;

d) psixologik maslahat yo‘nalishida:

- o‘quvchilarning individual rivojlanishidagi muammolarni hal etish bo‘yicha barcha ta’lim jarayoni qatnashchilariga maslahatlar berish;
- o‘quvchilarga ta’lim olish, kelajagini aniqlash, tengdoshlari va yoshi kattalar bilan munosabatlaridagi muammoli holatlar yuzasidan maslahatlar berish;
- o‘quvchilarning psixik rivojlanish xususiyatlari, shaxs sifatida shakllanishi, shaxslararo munosabat maqomi, ularning yosh, jins, individualtipologik xususiyatlari muammosi bo‘yicha amaliy maslahatlar tashkil etish;

ye) kasb-hunarga yo‘naltirish yo‘nalishida:

- o‘quvchilarga turli kasblar, ixtisosliklar, mansab lavozimlari, tanlangan kasbni, ixtisoslikni egallash mumkin bo‘lgan ta’lim muassasalari hamda kasbning insonga, uning jismoniy, psixologik va shaxsiy sifatlariga, salomatligiga qo‘yadigan talablari haqida ma’lumotlar berish;
- o‘quvchilarning bilish (o‘quv predmetlariga, fanga) va kasbiy (kasblarga, mutaxassisliklarga) qiziqishlarini, kasb tanlash motivlari va kasbiy rejalarini aniqlash hamda baholash;
- o‘quvchilarga ularning individual xususiyatlari va mehnat bozori talablarini, ta’lim olish hamda kelgusida ishga joylashish imkoniyatlarini hisobga olgan holda kasb va ta’lim muassasasini tanlashga ko‘maklashish;
- o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmalarini, kasblarga qiziqish, mehnatsevarlik, ishchanlik va mas’uliyatni shakllantirish hamda rivojlantirish.

5.2. Psixologning targ‘ibot va tashviqot ishlari mazmuni

Psixologning targ‘ibot va tashviqot ishlari jamiyatda ruhiy salomatlikni mustahkamlash, sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish hamda insonlarning psixologik madaniyatini oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Turli sohalarda faoliyat yuritar ekanmiz, albatta, kasbiy sifatlar psixologning kasbiy jarayonini to‘ldirib turuvchi muhim jabha hisoblanadi. Bugungi kunda maktab amaliyotchi psixologlari o‘quvchi faoliyatidagi ijtimoiy-psixologik

muhofazani takomillashtirish bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari zarur:

- har bir sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitning har bir o‘quvchi shaxsiga ijobiy ta’sirini tarkib toptirish, hamda har bir o‘quvchining o‘quv faoliyatiga nisbatan o‘z-o‘ziga adekvat baho bera olishini ta’minlash;
- har bir o‘quvchining o‘z-o‘zini bilishi, anglash, idora qilish va o‘z-o‘zidan ijtimoiy ma’noda muvaffaqiyatlari qoniqish hosil qilishi uchun shart-sharoitlarni hozirlash, shuningdek, har qanday o‘quv faoliyati talablarini bajarish jarayonida o‘quvchining meyoriy-hissiy holat chegarasidan chiqib ketmasligi uchun barchatadbirlarni qo‘llash;
- o‘quvchining faoliyat talablariga va aksincha, faoliyat talablarining o‘quvchishaxsiga moslasha olishlarini ta’minlash va o‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchio‘qituvchi, o‘quvchi-jamoa o‘rtasidagi hamkorlik faoliyati uchun muhim muvaffaqiyatli munosabatlar o‘rnatila borishni muntazam nazorat ostiga olish;
- o‘quv faoliyati talablarini muvaffaqiyatli bajari-lishini ta’minlashga xizmat qiluvchi o‘quvchi shaxsi faolligi bilan bog‘liq individual uslub imkoniyatlarini o‘rganish va qaror toptira borish, hamda har bir o‘quvchini mакtabga qabul qilishda u yoki bu fan bo‘yicha chuqur o‘zlashtiruvchi sinflarga jalb etish orqali kasb tanlashga yo‘llashda tegishli ilmiy amaliy tavsiyalar berib borish;
- umumiyligi psixologik xizmat Nizomi asosida psixoprofilaktik, psixodiagnostik va psixokorreksion ishlarni tizimli ravishda amalga oshirish. Maktab amaliyotchi psixologlari faliyati muayyan talab asosida ishlab chiqilgan tegishli yo‘l-yo‘riqlar, ko‘rsatmalar va ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida tashkil etiladi.

Yuqorida yo‘nalishlarning barchasi maktabda psixologik xizmat tizimini amalga oshiruvchi amaliyotchi psixologlar faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Ayni paytda, ushbu yo‘nalishdagi vazifalarning bajarilish jarayoni “Nizom” da belgilangan umumiyligi amaliy vazifalar – psixodiagnostik, psixologik maorif, psixoprofilaktik, psixokorreksion va psixologik maslahat kabi amaliy ishlar ko‘laming yuqori saviyada olib borilishini ham taqozo etadi.

5.3. Psixoprofilaktika va uning bosqichlari

Psixoprofilaktika – bu shaxsning sog‘lom psixik rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan, zaruriy psixologik sharoitlarni yaratish hamda ehtimoliy psixik va shaxsiy muammolar, buzilishlar, qiyinchiliklarning oldini olishga qaratilgan tizimli faoliyat yo‘nalishidir. Psixoprofilaktikaning **asosiy vazifalari**:

1. Har bir yosh bosqichiga mos psixologik rivojlanishni ta’minlash: Bu vazifa doirasida insonning har bir rivojlanish bosqichida uning shaxs sifatida shakllanishi, aqliy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun maqbul va qulay shart-sharoitlarni yaratish muhim hisoblanadi..
2. Psixik muammolarning oldini olish: Shaxs kamoloti, intellektual va emotsiyonal rivojlanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli psixologik muammolar, buzilishlar va og‘ishlarning oldini olish, ularni erta aniqlab, profilaktik choralarini ko‘rish psixoprofilaktikaning muhim vazifalaridan biridir. Psixoprofilaktikaning

asosiy maqsadi – og‘ir psixologik muammolar, stress holatlari, emotsiyonal va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarning vujudga kelishining oldini olish hamda ular paydo bo‘lgan taqdirda, imkon qadar erta bosqichda ularni bartaraf etishdan iborat.

Psixolog mijoz bilan individual tarzda ishlaydi, har bir insonning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga oladi. Ammo amaliyotda ko‘pincha asosiy e’tibor uchinchi bosqichga, ya’ni “tarbiyasi qiyin” deb baholanadigan bolalarga qaratiladi. Natijada esa, boshqa ko‘plab o‘quvchilar – odatda psixologik ko‘makka muhtoj bo‘lsa-da – psixolog e’tiboridan chetda qolib ketadi. Bu esa psixoprofilaktika jarayonining keng qamrovli va har tomonlama yo‘lga qo‘yilishini talab etadi. Psixoprofilaktika masalalari amerikalik psixologlar asarlarida ancha keng talqin qilingan

Psixoprofilaktika – hayotiy qiyinchiliklarga chidamlilikni shakllantirish, antijitimoiy holatlarga hamda xulqi og`ishlikka salbiy munosabati shakllantirishga qaratilgan usul va vositalar majmuidir

Psixoprofilaktika bosqichlari.

Birlamchi profilaktika – pozitiv xulqni shakllantirishga qaratilgan psixologopedagogik usullar bo`lib, yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammolarni hal qilishni ko`zda tutadi, negative holatlarga olib kelishi mumkin bo`lgan sabablarni o`z vaqtida oldini olish.

Bunda asosiy metod – noqulay, salbiy ta`sirotlarga qarshi tura olish imkonini beruvchi malakalarga o`rgatish. Bunda psixologik profilaktikaning maqsadi – insonni(bola,o`smir,katta yoshli) o`rab turgan muhitni o`zgartirish.

Birlamchi profilaktika o`z ichiga quidagilarni oladi:

- Bo`sh vaqtini tashkil etish;
- Ijobiy hayotfaoliyatiga yo`naltirilgan treninglar;
- Ijtimoiy modellashtirish;
- Ijtimoiy mustahkamlash.

Ikkilamchi profilaktika – xulqi ogishga moyilligi bor, nizoga beriluvchan, yuqori xavotirlikka ega kishilarga psixologo-pedagogik yordam metodlaridir.

Ikkilamchi profilaktika vazifalari:

1.Insondagи shaxsiy o`zgarishlarni, psixik salomatlik darajalarini deformatsiya xususiyatlarini, motivatsion-ehtiyoj hamda qadriyatli-mazmuniy sohalarni, shaxsdagi dolzarb amaliy muammolarni baholash va muammoni hal qilish yo`llarini izlash.

2.Psixolog kompetentsiyasiga kiruvchi vazifalarni aniqlab olish.

3.Shaxs anomal rivojlanishi oqibatlarini tuzatish imkonini beruvchi usul va vositalarni ishlab chiqish.

Ikkilamchi profilaktika mohiyatiga ko`ra tarbiya va shaxs korreksiysi vazifalariga yaqin bo`lib, o`z-o`ziga bahoni oshirish, kayfiyatni ko`tarish, yordam so`ray olishni bilish, o`z hissiyotlarini tahlil qila olish usullariga o`rgatishni o`zichiga oladi.

Shaxsning antijitimoiy faoliyatdan prosotsial faoliyatga o`tishida 3 ta zona farqlanadi:

- Yangi faoliyatga ehtiyojni shakllantirish va uni tanlash;
- motivni shakllantirish;
- Faoliyat turini o`zgartirish.

Ikkilamchi profilaktika ishlari bosqichlari:

- ✓ Motivatsion (psixokorreksiya mashg`ulotlariga qiziqish uyg`otish);
- ✓ Mavjud ehtiyojlarga mos keluvchi xulq-atvor va hayotni o`zgartirish motivlarini yuzaga keltirish;
- ✓ “yangi” hayot motivatsiyasini shakllanishi;
- ✓ Faoliyat (kelajak hayotni qurish rejasini ishlab chiqish).

Profilaktikaning 3- bosqichi – davolash, vaziyatni to`g`rilash bosqichi bo`lib, o`z muammolaridan holi bo`lishni istayotgan kishilarni psixologik qo`llab-quvvatlash(psixologik qo`llab-quvvatlash va reabilitatsiya)

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Psixologik xizmat tushunchasini izohlang.
2. Psixologik xizmatning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Psixologik xizmatning qanday yo‘nalishlari mavjud? Psixoprofilaktika deganda nimani tushunasiz?
4. Psixoprofilaktikaning asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
5. Psixologik maslahat (konsultatsiya) xizmatining mohiyati nimada?
6. Ta’lim muassasasida psixologik xizmat kimlar bilan olib boriladi?
7. Psixologik xizmat ko‘rsatishda maxfiylik (konfidensiallik) qoidalari qanday ahamiyatga ega?
8. Psixologik xizmat ko‘rsatishda ota-onalar bilan ishslash nega muhim?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1.Psixologik xizmatning asosiy maqsadi nima?

Faqat ruhiy kasalliklarni aniqlash

Inson ruhiyatini tahlil qilish

Shaxsning sog‘lom psixik rivojlanishini ta’minlash

Psixologik tajribalarda ishtirok etish

2.Quyidagilardan qaysi biri psixologik xizmatning yo‘nalishi hisoblanadi?

Tibbiy xizmat

Psixodiagnostika

Ma’muriy boshqaruv

Texnik xizmat

3. Psixoprofilaktika nima?

O‘quvchilarga baho qo‘yish

Shaxsiy muammolarni e’tiborsiz qoldirish

Psixik buzilishlarning oldini olishga qaratilgan faoliyat

Faqat bolalar bilan ishslash

6-MAVZU.PSIXOLOGNI TA'LIM TIZIMINING TURLI BO'G'INLARIDAGI FAOLIYATI

Reja:

- 6.1. Ta'lism tizimida psixologik xizmat tushunchasi
- 6.2. Psixologning maktabgacha tarbiya muassasasidagi ishlari
- 6.3. Psixologning mehribonlik uylaridagi ishi
- 6.4. Psixologning umumiy o'rta ta'lism maktablaridagi faoliyati

Tayanch so'z va iboralar: *ta'lism tizimida xizmat, maktabgacha ta'lism tizimi,, psixologik ta'lism, psixologik tadqiqot, mexribonlik uyi psixologi,, psixologik profilaktika,umumiy o'rta ta'lism psixologi, psixologik maslahat, psixologik tashxis, psixologik muammo, psixologik tahlil.*

6.1. Ta'lism tizimida psixologik xizmat tushunchasi

Psixologlar inson hayotining deyarli barcha jabhalarida faoliyat olib borishlari mumkin. Xususan, ta'lism tizimida psixologning roli nihoyatda muhim bo'lib, bu soha keng qamrovli psixologik masalalar bilan uzziy bog'liqdir. Psixolog ta'lism muassasalarida nafaqat o'quvchilarning ruhiy holatini o'rganadi, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va emotsiyal rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi xizmatlarni ham ko'rsatadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lism tizimida psixologik xizmatning samarali tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Amaliy psixologlar maktabgacha ta'lism muassasalari, umumta'lism maktablari, mehribonlik uylari va boshqa ta'lism tashkilotlarida faoliyat yuritib, ta'lism-tarbiya jarayonini psixologik jihatdan ta'minlash bilan shug'ullanadilar.

Ta'lism tizimidagi amaliy psixolog faoliyatining bosh maqsadi – bolalarning psixologik salomatligini ta'minlashdir. Bu yondashuv psixologik xizmatning asosiy vazifalari va prinsiplarini belgilab beradi.

Eng avvalo, psixolog o'z faoliyatida individuallikka asoslangan yondashuv tamoyiliga amal qiladi. Bu – har bir shaxsni o'ziga xos inson sifatida qadrlash, uning ichki dunyosini tushunishga intilishdir. Shuningdek, psixolog ta'lism tizimining barcha ishtirokchilari – ota-onalar, tarbiyachilar, pedagoglar bilan hamkorlikda ishlashi, ya'ni kasbiy o'zaro ta'sir va muloqot olib borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, ta'limga psixologik xizmat nafaqat o'quvchilarning, balki butun ta'lism muhitining sog'lom va samarali bo'lishiga xizmat qiladi. U insoniy qadriyatlarni e'zozlaydi, sog'lom jamiyatni shakllantirish yo'lida muhim vosita hisoblanadi.

Psixologik xizmat — bu ta’lim muassasalarida o‘quvchilar, talabalar, o‘qituvchilar va ota-onalarga psixologik yordam ko‘rsatish, shaxsiy rivojlanishga ko‘maklashish, muammolarni aniqlash va ularni hal etishda yordam berish faoliyatidir.

Psixologik xizmat orqali ta’lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarga ruhiy-emosional qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatiladi. Psixologik xizmatning maqsadi:

- ◆ O‘quvchilar va talabalar shaxsini har tomonlama o‘rganish
- ◆ Ularning psixologik salomatligini asrash
- ◆ Rivojlanishidagi muammolarni erta aniqlash
- ◆ Kasbiy yo‘naltirish, o‘z-o‘zini anglashga yordam berish
- ◆ Ota-onalar va pedagoglarga maslahatlar berish

Psixologik xizmatning ahamiyati shundaki ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi, psixologik muhitni sog‘lomlashtiradi hamda o‘quvchining ichki dunyosini tushunishga yordam beradi, mojarolarni bartaraf etadi va rivojlanishdagi muammolarni erta bosqichda aniqlashga imkon beradi.

6.2. Psixologning mакtabgacha tarbiya muassasasidagi ishlari

Maktabgacha ta’lim muassasasida faoliyat yurituvchi psixologning asosiy vazifalaridan biri – bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonini qo‘llab-quvvatlashdir. Ya’ni, psixolog bolalarga jamoada yashash, o‘z tengdoshlari bilan o‘zar o‘sishda faoliyat yuritish, bir-birlarini tushunish va hurmat qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda yordam beradi.

Bola ilk ijtimoiy tajribani aynan bog‘chada oladi. Shu sababli, psixologning vazifasi – ularni muloqot qoidalariga rioya qilishga, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash va boshqalarning his-tuyg‘ularini inobatga olishga o‘rgatishdir. Ayniqsa o‘yin mashg‘ulotlari chog‘ida bolalar o‘rtasida yuzaga keladigan muomala, nizoli vaziyatlar, raqobat yoki hamkorlikni boshqarish psixolog uchun muhim jihatlardan biridir.

Bundan tashqari, psixolog:

- O‘yin faoliyati davomida qoidalarni tushuntirish va ularga amal qilish zarurligini bolalarga tushuntiradi;
- Bolalarning bir-birlariga nisbatan hurmatli munosabatda bo‘lishlariga yordam beradi;
- Ularning emotsiyal holatini kuzatadi va kerak bo‘lsa, korreksion mashg‘ulotlar tashkil etadi.

Shuningdek, psixologning muhim funksiyalaridan biri – pedagoglar, tarbiyachilar va ota-onalarga amaliy maslahatlar berishdir. Bola bilan ishlaydigan har bir kattaning psixologik savodxonligi muhim bo‘lganligi sababli, psixolog ularni bola psixologiyasi, tarbiyatagi yondashuvlar, emotsiyal-ijtimoiy rivojlanish kabi masalalar bo‘yicha yo‘naltirib boradi. Bu esa tarbiyaviy jarayonning yaxlit va muvofiqlashtirilgan tarzda olib borilishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim muassasasiga yangi qadam qo‘ygan bolalar uchun moslashuv davri alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayonda ko‘plab psixologik va

emotsional muammolar kuzatilishi mumkin. Har bir bola o‘ziga xos individuallikka ega bo‘lgani uchun, uning yangi muhitga moslashuvi ham turlicha kechadi. Bu jarayonning muvaffaqiyatlari kechishi ko‘p jihatdan bolaning psixologik tayyorgarlik darajasiga bog‘liq.

Bolaning psixologik tayyorgarligi — bu uning yangi muhitda (ya’ni bog‘chada) mustaqil harakat qilishi, ijtimoiy muloqotga kirishishi va o‘zini erkin tutishi uchun zarur bo‘lgan ruhiy-emotsional, ijtimoiy va funksional tayyorgarlik holatidir.

Quyidagi mezonlar bola mакtabgacha ta`lim muassasasiga tayyor ekanligini bildiradi:

- ◆ Bolaning onasidan biroz muddatga holi qolishga hotirjam munosabatda bo‘lishi;
- ◆ Boshqa bolalarga qiziqishning yuzaga kelishi va birgalikda oynashga intilish;
- ◆ Bolaning o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishning asosiy ko‘nikmalarini egallaganligi.

Maktabgacha ta`lim muassasasida ishlovchi psixolog:

1.Bolalarga boshqa jamoada yashashga, hamkorlik o‘rganishga yordam berishi;

2.O‘yin mashg`ulotlarida qoidalarni qabul qilish va ularga amal qilishga, bolalarnig bir-birlariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatishi;

3.Bu masalalarda tarbiyachilar, ota-onalar va boshqa xodimlarga maslahatlar berishi zarur bo‘ladi.

Psixologning maktabgacha ta`lim muassasasidagi ishlarining o‘ziga xosligi quyidagilar bilan bog‘liq:

✓ Bola mustaqil tarzda o‘zining muammolarini bildira olmaydi. Uni qiyinayotgan muammolar haqida bayon etib bera olmaydi. Muammoning mavjudligi rivojlanishda orqada qolish; injiqliklar; qo‘rquv, agressivlik kabi xulq-atvor ko‘rinishlarida bilvosita namoyon bo‘ladi;

✓ Bola ongli tarzda o‘z oldiga maqsad qoyish va unga erishishga intilishni bilmaydi. Shunday ekan, psixolog bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, bolalar manfaati va kelajagi uchun guruhlar kesimida diagnostik va korrektcion, rivojlantirish ishlarini olib boradi;

✓ Psixologik yordamga bo‘lgan murojaat bola tomonidan emas, balki pedagog yoki ota-onalar tomonidan qilinadi. Shuni unutmaslik kerakki, goho pedagog va ota-onalar o‘z shaxsiy muammolarini bolaga ko‘chirishga moyil bo‘ladilar;

Muassasaga bolalar bolalarning moslashuvi ham ko‘p uchraydigan muammo sanaladi. Bu o‘rinda bolaning maktabgacha ta`lim muassasasiga psixologik tayyorligi moslashuvning samarasini belgilab beradi. Bolaning maktabgacha ta`lim muassasasiga psixologik tayyorligi mezonlari:

Bolaning onasidan biroz muddatga holi qolishga hotirjam munosabatda bo‘lishi;

Boshqa bolalarga qiziqishning yuzaga kelishi va birgalikda oynashga intilish;

Bolaning o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishning asosiy ko‘nikmalarini egallaganligi. Shuningdek, bolalarda refleksianing shakllanmaganligi bola kechinmalari bilan “shu erda va hozir” ishlash zaruriyatini tug`diradi, Bola psixolog bilan faqat u uchun qiziqarli bo‘lgan taqdirdagina hamkorlik qilishi mumkin,

Bola – shakllanayotgan shaxs, bu esa psixik funktsiyalarni rivojlantirish, shuningqek, rivojlanishda orqada qolish va uning sabablarini bartaraf etish ishlarini taqozo etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar xulq-atvorining buzilish shakllari:

- Agressivlik
- Jizzakilik
- Passivlik
- Giperaktivlik¹.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan rivojlantiruvchi ishlar bolani predmetlar, insonlar va munosabatlar olami bilan to‘liq va har taraflama tanishtirishga qaratilishi kerak, chunki bu jarayonda bola taraqqiy etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar bilan hamkorlikda faoliyatni bajarishga ehtiyoj sezadilar. Bu esa pedagog, tarbiyachilar hamda psixologning ular faoliyatida ishtirok etishlari zaruriyatini keltirib chiqaradi. Maktabgacha ta’lim muassasasi psixologi bolalarni mакtabga psixologik tayyorlashda faol ishtirok etib, ularni mакtab ta’limiga tayyorligi diagnostikasini ham amalga oshiradi

6.3 Psixologning mehribonlik uylaridagi ishi

Psixologning mexribonlik uylaridagi faoliyati. Mehribonlik uylari — ota-onasiz qolgan, qarovga muhtoj yoki og‘ir ijtimoiy sharoitlarda yashayotgan bolalar tarbiyalanadigan muassasalardir. Bu yerda bolalarga ta’lim, tarbiya, yashash sharoitlari bilan birga psixologik qo‘llab-quvvatlash ham zarur. Shu bois, psixologning roli mehribonlik uylarida alohida ahamiyat kasb etadi

Mehribonlik uylarida faoliyat yurituvchi psixologning ishi o‘ziga xos murakkablik va mas’uliyat bilan ajralib turadi. Bu o‘ziga xoslik, avvalo, **bola psixologiyasining chuqur xususiyatlarini** va bolalarning og‘ir hayotiy tajribasini hisobga olish zaruratidan kelib chiqadi.

❖ Bola ruhiyatidagi buzilishlar sabablari

Garchi bolalar mehribonlik uylarida yetarli moddiy va maishiy sharoitlarda tarbiyalansalar-da, **ona mehridan mahrumlik** — ularning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan eng muhim omildir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu

kabi muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalarning **90 foizdan ortig‘ida rivojlanishning turli darajadagi buzilish holatlari uchraydi.**

❖ Psixik va emotsiyonal deprivatsiya

Internat tipidagi muassasalarda tarbiyalanuvchilar ko‘pincha **psixik va emotsiyonal deprivatsiya** holatini boshdan kechiradilar. Bu holat — bolaning unga zarur bo‘lgan hissiy iliqlik, mehr, ishonch va xavfsizlikni yetarli darajada olmasligi natijasida yuzaga keladi. Natijada, bola ichki dunyosida bo‘shliq paydo bo‘ladi, u o‘zini yolg‘iz, keraksiz deb his qilishi mumkin.

❖ Ijtimoiy izolyatsiya va real hayotdan uzilish

Ko‘plab tarbiyalanuvchilar ijtimoiy muhitdan ajralgan, **ijtimoiy izolyatsiyaga** tushib qolgan bo‘lib, real hayotdagi munosabatlarni, ijtimoiy rollarni to‘laqonli tushunmaydilar. Bu esa ularning ijtimoiylashuviga va kelajakdagagi jamiyatga moslashuviga katta to‘siq bo‘ladi.

Shuningdek, mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning deyarli barchasi **psixologik travmani** boshdan kechirgan bo‘ladi. Bu esa ularning shaxs sifatida to‘liq rivojlanishida chuqur iz qoldirishi mumkin.

Mehribonlik uylarida faoliyat yurituvchi psixologning asosiy maqsadi — bolaning emotsiyonal va ruhiy holatini barqarorlashtirish, shaxs sifatida to‘laqonli rivojlanishini ta’minalash va uni jamiyatga moslashishiga yordam berishdir. Buning uchun quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ish olib boriladi:

1. Psixokorrektcion faoliyat

- ✓ Emotsional jarohatlarni yumshatish, bola o‘zini qadrlash hissini shakllantirish;
- ✓ Stress, xavotir, tajovuzkorlik kabi holatlarni bartaraf etish;
- ✓ Rivojlanishda kuzatilgan buzilishlarni kompensatsiya qilish.

2. Ijtimoiylashuvga ko‘maklashish

- ✓ Bola jamiyatga moslashishi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- ✓ Tengdoshlari bilan sog‘lom munosabatlarni o‘rnatishga yordam berish;
- ✓ Kasbga yo‘naltirish va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish.

3. Huquqiy va psixologik himoya

- ✓ Bola huquqlarini tushuntirish va himoya qilishda ko‘mak;
- ✓ Zo‘ravonlik, beparvolik, haqorat va e’tiborsizlik holatlarining oldini olish;
- ✓ Bolani o‘zini himoya qilishga o‘rgatish, ishonch hissini mustahkamlash

Mehribonlik uylaridagi psixologik xizmat — bu nafaqat bolani tarbiyalash yoki o‘qitish bilan cheklanadigan faoliyatdir. Bu xizmat bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning psixologik salomatligi, ijtimoiy integratsiyasi va kelajakka bo‘lgan ishonchini tiklash uchun muhim zamin yaratadi.

Psixolog mehribonlik uyidagi har bir bolaga mehr, sabr va chuqur tushuncha bilan yondashib, ularning yuragidagi og‘riqni yumshatish va qalbiga ishonch urug‘ini ekish orqali jamiyatga barkamol insonlarni yetkazib beradi.

6.4. Psixologning umumiy o‘rtta ta’lim mакtablaridagi faoliyati

Bugungi kunda mamlakatimizda umumiy o‘rtta va o‘rtta maxsus ta’lim tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etish davlat siyosati darajasidagi dolzarb masala hisoblanadi. Bu tizimning asosiy vazifasi – ta’lim jarayonida ishtirok etayotgan barcha subyektlar – o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalarning ruhiy holatini o‘rganish, ularni qo‘llab-quvvatlash hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni o‘z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf etishga xizmat qilishdir.. Psixologik xizmatda tadqiqot va ta’sir o‘tkazish obyekti o‘quvchi va talabalar, o‘qituvchilar, ota-onalar bo‘lib hisoblanadi. Psixologik xizmat mutaxassislari barcha muammolarni hal qilishda, har qaysi shaxs pedagog, o‘quvchi, ota - ona manfaati va uning har tomonlama uyg‘un kelib chiqishini o‘rgangan holda yondoshadi. Shuningdek, ular o‘z faoliyatlarini tibbiyot xodimlari, deffektolog xizmati, muhofaza tashkilotlari, muayyan komissiyalar, balog’atga yetmagan o‘smirlar inspeksiyasi, ota-onalar, mahalla qo‘mitasi, ishlab chiqarish jamoasi va jamoatchilik bilan uzviy aloqada amalga oshiradilar. Amaliyotchi psixolog faoliyati maktabni hozirgi zamon psixologiyasi fani yutuqlari bilan ilmiy uslubiy ta’minlashga, insonning shaxsiy va intellektual jihatdan rivojlanishini diagnostika qilishga, eng muhimi mavjud kamchilik va buzilishlarni oldini olishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Ta’im tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi shaxsnинг har tomonlama garmonik kamoloti, to‘laqonli psixologik taraqqiyotini ta’minlovchi yuqori darajadagi shart - sharoitlarni yaratish, o‘quv - tarbiya ishlarini yaxshilash, bu sohada pedagogik jamoaga ilmiy - uslubiy jihatdan yordam ko‘rsatishdan iborat.

Amaliyotchi psixolog asosan psixologik xizmatning markaziy yoki yuqori turuvchi boshqaruв organi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida ishlaydi. Bu dasturda odatda amaliyotchi psixolog tomonidan ma’lum muddat davomida bajarilishi kerak bo‘lgan ishlarning turlari beriladi, ularning mazmuni va xajmi, shuningdek bajarishga ketadigan vaqt belgilanadi. Amaliyotchi psixologning ish rejimini belgilab beruvchi normativlar mavjud, bu normativlar orqali uning ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan bo‘ladigan ish yuzasidan o‘zaro ta’sirini tashkil etish normalari va qoidalari belgilab beriladi. Shuningdek, amaliyotchi psixologlar va psixologik xizmat boshqaruvi organlarining o‘zaro javobgarligi, o‘zaro mas’uliyatlari belgilangan bo‘ladi. Ta’lim tizimida amaliyotchi psixolog lavozimiga da’vogar odamga ma’lum kasbiy talablar qo‘yiladi. Bulardan eng asosiysi shuki, bunday muraxassis maxsus psixologik oliy ma’lumot to‘g’risida diplomga ega bo‘lishi kerak. U universitetning “Psixologiya” mutaxassisligini yoki pedagogika oliy o‘quv yurti qoshida tashkil etilgan “Ta’lim tizimida amaliyotchi psixolog” mutaxassisligi bo‘yicha maxsus kursni tamomlagan bo‘lishi kerak. Chunki ular o‘quv-tarbiya

jarayoni bilan hamda inson taqdiri bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilishda ishtirok etadilar. Ular o'quvchining intellektual va shaxsiy potensialini, undagi layoqat, qobiliyatlar, qiziqish va mayillarning o'z vaqtida aniqlanishini ta'minlaydilar, o'quvchining psixik faoliyati taraqqiyotida orqada qolish, xulqidagi og'ishlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish chora tadbirlarini amalga oshirdilar. Shu sabab, psixolog chuqur kasbiy bilimlardan tashqari, ya'ni unga psixodiagnostika, psixoterapiya, psixokorreksiya, patopsixologiya, defektologiya, psixologik konsultatsiya va boshqa sohalardagi bilim ko'nikma va malakalar zarur, shuningdek, u yetarli darajada bolalar bilan ishslash amaliy tajribasiga ega bo'lishi kerak. U oliv pedagogik ma'lumotli, maktab yoki maktabgacha tarbiya muassasalarida ishlagan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Psixologik targ'ibot va tashviqot ishlari - matabning pedagogik jamoasini, o'quvchilarni va ota-onalarni psixologik bilimlarni egallashga jalg'etish. Ularning psixologik bilimlari va madaniyatini oshirish maqsadida turli mashg'ulotlar, seminarlar, suhbat, ma'ruzalar uyushtirish ishlarini olib boradi.

Psixologik profilaktika - har bir yosh bosqichida bolaning shaxs sifatida shakllanishi, aqlan barkamolligini ta'minlashning oqilona shart-sharoitlarini yaratish shaxs kamoloti va ta'lim-tarbiyasidagi psixologik buzilish va nuqsonlarni o'z vaqtida oldini olish omili hisoblanadi.

Psixologik diagnostika - o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, ta'lim-tarbiyasidagi nuqsonlar sababini aniqlash, kasbga qiziqishlari, kasb tanlashlarida aniq tashxis qo'yish va tegishli maslahatlar berishga xizmat qiladi.

Psixokorreksiya va rivojlanantirish ishlari- shaxs shakllanishi va psixik rivojlanishidagi salbiy nuqsonlarni bartaraf etish, shaxs va jamoaga faol ijobiy psixologik ta'sir o'tkazish, ijtimoiy-psixologik muhitni sog'lomlashtirish har bir shaxsning mavjud imkoniyatlarini namoyon etishiga shart-sharoit yaratishdir.

Psixologik maslahat ishlari-bu yo'nalishda psixolog o'quvchilar ta'limtarbiyasi bilan shug'ullanuvchi barcha o'qituvchi, murabbiy, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari xodimlariga aniq, yaqqol maslahatlar beradi.

Yuqoridagilardan tashqari, psixologning asosiy ishlaridan birio'quvchilarni kasbhunarga yo'naltirish ishlari hisoblanadi. Shu maqsadda turli kasb egalarining uchrashuvlarini tashkil qilish, kasblar bo'yicha ma'lumotlar tayyorlash, kasbiy diagnostika, profkonsultatsiyalarni tashkil etish ishlarini amalga oshiradi.

O'zini-o'zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Ta'lim tizimining qaysi bo'g'inlarida psixologlar faoliyat yuritadilar?
2. Maktabgacha ta'lim muassasasida psixologning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasiga moslashuvi qanday psixologik tayyorgarlik mezonlariga bog'liq?

4. Mehribonlik uyi sharoitida psixologik yordam ko'rsatishning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
5. Internat muassasalarida tarbiyalanuvchilar orasida uchraydigan psixik va emotsiyonal muammolar haqida nimalarni bilasiz?
6. Psixolog ta'lif muassasalarida qanday subyektlar bilan hamkorlikda ishlaydi?
7. Umumiy o'rta ta'lif muassasasidagi psixologik xizmatning asosiy maqsad va vazifalarini sanab bering.
8. Psixologning o'qituvchilar va ota-onalar bilan ishlashdagi roli qanday ifodalanadi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Psixologning matabgacha ta'lif muassasasidagi asosiy vazifalaridan biri qaysi?
Bolalarning yozma nutqini rivojlanterish
O'quv dasturlarini tuzish
Bolalarni jamoada yashashga o'rgatish
Maktab rejimiga rioya qilishni nazorat qilish
2. Psixologning mehribonlik uydagi faoliyati nimaga asoslangan?
Tashqi ijtimoiy muhitni o'zgartirishga
Rivojlanishdagi buzilishlarni aniqlash va korreksiya qilishga
Faqat tibbiy muolajalarni tashkil etishga
Tarbiyachilarning ish rejasini tuzishga
3. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari orasida ko'p uchraydigan muammo bu –
Imlo xatolari
Psixik va emotsiyonal deprivatsiya
Nutqning rivojlanishi
Ijtimoiy faollikning oshishi
4. Umumta'lif maktabida psixolog faoliyatining eng muhim yo'nalishi bu –
O'quvchilarni darsga qatnashishini nazorat qilish
Dars jadvalini tuzish
O'quvchilarning psixologik rivojlanishini o'rganish va qo'llab-quvvatlash
Uyga vazifalarni berish
5. Psixologning faoliyati ta'lif tizimida qanday tamoyilga asoslanadi?
Buyruqbozlik va intizomga
Statistika tahliliqa
Individuallik va hamkorlikka
Ta'lif texnologiyalarini joriy qilishga

7-MAVZU. TIBBIYOT VA ISHLAB CHIQARISH SOHASIDA PSIXOLOGIK XIZMAT

Reja:

- 7.1. Tibbiyot sohasida psixologik xizmatning o'ziga xosligi.
- 7.2. Klinik psixolog kasbiy faoliyati predmeti.
- 7.3. Ishlab chiqarish sohasida psixolog faoliyati xususiyatlari
- 7.4. Tashkilot psixologining asosiy faoliyat sohalari va vazifalari.

Tayanch so'z va iboralar: aholiga psixologik xizmat, tibbiy va ijtimoiy yordam, klinik psixolog, ishlab chiqarish sohasi, tashkilot psixologi, psixologik ta'lif, psixologik tadqiqot, psixologik bilinga bo'lgan ehtiyoj, psixologik profilaktika, psixologik maslahat, psixologik tashxis

7.1. Tibbiyot sohasida psixologik xizmatning o'ziga xosligi.

Tibbiyot sohasida psixologik xizmat — bu bemorlar, ularning yaqinlari va tibbiyot xodimlariga ruhiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatish, stress va xavotirni kamaytirish, kasallikni qabul qilish jarayonini yengillashtirishga qaratilgan muhim faoliyatdir. O'ziga xos jihatlari quyidagicha:

- ❖ **Bemorlarning ruhiy holatini tushunish va qo'llab-quvvatlash:** Tibbiyot psixologi kasallik tashxisi qo'yilgan yoki og'ir jarrohlik oldidan bo'lgan bemorlarga ruhiy tayyorgarlik ko'rsatadi. Kasallikni qabul qilishda, umidsizlik, qo'rquv va depressiya holatlarini yengillashtirishda psixologik yordam zarur bo'ladi.
- ❖ **Psixosomatik kasalliklar bilan ishslash:** Ruhiy holat va jismoniy salomatlik o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olib, psixolog organizmda stress, xavotir yoki depressiya natijasida paydo bo'lgan kasalliklar (massalan, yurak-tomir kasalliklari, oshqozon-ichak muammolari) bilan bog'liq omillarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish ustida ishlaydi.
- ❖ **Tibbiyot xodimlariga psixologik yordam:** Shifokorlar, hamshiralalar va boshqa tibbiyot xodimlari ko'p hollarda ruhiy bosim, charchash (burnout), shoshilinch vaziyatlar va insoniy yo'qotishlar bilan yuzma-yuz kelishadi. Ularni stressdan himoya qilish, hissiy holatini muvozanatga keltirish psixologning muhim vazifasidir.
- ❖ **Davolash jarayoniga psixologik yondashuv:** Psixologik xizmat, shifokorlar bilan hamkorlikda bemorlar bilan suhbatlar, relaksatsiya mashqlari, motivatsion terapiya orqali davolash samaradorligini oshiradi. Ruhiy holati barqaror bemorning tiklanish jarayoni ham tez va samaraliroq bo'ladi.

❖ **O'limga yaqin holatlardagi yordam (terminal bosqich):** Hayotining oxirgi bosqichida bo'lgan bemorlar bilan ishlash — tibbiy psixologiyaning eng murakkab va nozik yo'nalishlaridan biri. Bu holatda inson o'limni qabul qilishi, hayotining ma'nosini anglashga urinishlari, yaqinlari bilan xayrashish kabi ruhiy jarayonlardan o'tadi. Psixolog ularni ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

❖ **Bemor yaqinlari bilan ishlash:** Og'ir kasallikka chalingan bemorlarning oila a'zolari ham ruhiy zarbani boshdan kechiradilar. Ularga beriladigan psixologik maslahatlar oila muhitining sog'lom va barqaror bo'lishiga xizmat qiladi.

Ushbu yo'nalishlarda psixologik xizmatning olib borilishi sog'liqni saqlash tizimidagi muvaffaqiyatlarni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayni paytda, psixologik xizmat amaliyoti eng avvalo insonga, uning salomatligiga yordam bera olishi bilan ham ahamiyatlidir. Chunki, sog'lom ruhiyat ustuvorlik qilgan odamda hamisha o'z kasbiga, hayotga va o'z taraqqiyotiga bo'lgan ijobiy munosabatlar bevosita namoyon etiladi. Natijada insonning o'z hayotidan mammunligi ta'minlanadi. Bu esa uni yanada ko'proq muvaffaqiyatlarga chorlayveradi. Shu ma'noda, barcha tibbiyot muassasalarida muayyan psixologik qoida va talablarga rioya qilinishi juda muhimdir. Qolaversa, sog'liqni saqlash tizimi faoliyatining muayyan psixologik ko'nikma va malakalar assosida olib borilishi, bu tizimda inson omilidan yanada unumliroq foydalanish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi

7.2. Klinik psixolog kasbiy faoliyati predmeti.

Klinik psixologiya – keng tarmoqli mutaxassislik bo'lib, sog'liqni saqlash, xalq maorifi va aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimidagi kompleks vazifalarni hal qilishda qatnashadi. Klinik psixologlar faoliyati insonning psixik rezervlari adaptatsionimkoniyatlarini oshirishga, psixik rivojlanishni uyg'unlashtirish, salomatliknemuhofaza qilish, psixoprofilaktika va psixologik reabilitatsiyaga yo'naltirilgan.

Klinik psixologiya **obyekti** - adaptatsiya va o'z-o'zini namoyon qilishdagi qiyinchiliklari bor inson bo'lib, bu qiyinchiliklar uning jismoniy, ijtimoiy va ma'naviy holati bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Klinik psixolog kasbiy faoliyati **predmeti** - psixik jarayon va holatlar, individual va shaxslararo munosabat xususiyatlari, inson faoliyatining turli sohalarida namoyon bo'luvchi ijtimoiy-psixologik fenomenlar. Bugungi kunda davolash reabilitatsiya jarayoni klinik psixologlar ishtiropi bilan amalga oshirilmoqda. Sog'liqni saqlash sohasida klinik psixologlar davolash-profilaktika muassasalarida keng doiradagi masalalarni hal qilishda ishtirop etadilar. Klinik psixologlar o'sib kelayotgan yosh avlodning psixik salomatligini muhofaza qilish bilan bog'liq masalalarni hal qilishda faol qatnashadilar. Bunda ular maktabgacha ta'lim muassasalarini, məktəb, sanatoriylar, maxsus internatlar, korreksion va davolash pedagogikasi Markazlari, oila va bolalar Markazlarida faoliyat yuritadilar. Shuningdek, klinik

psixologlar aholini ijtimoiy himoya qilish xizmatlariga jalb qilinishlari ham mumkin (ichki ishlar boshqarmasi va mehnat-tuzatish koloniyalari, zo'ravonlik, ijtimoiy, stixiya va tabiiy ofat qurbanlariga psixologik yordam ko'rsatish markazlari).

Klinik psixologlar faoliyat yurituvchi maxsus xizmatlar:

- Aholiga psixiatriya yordami korsatish tizimidagi psixologik xizmat.
- Nevrologiya hamda neyroxirurgiya sohasida neyropsixologik xizmat.
- Somatik klinikalar: jarrohlik, terapeutik, onkologik, ginekologik klinikalarda psixologik xizmat.

Shuningdek, ular quyidagi sohalarda ham faoliyat yuritadilar:

- ✓ Narkologik disspanserlar
- ✓ Psixoterapeutik kabinetlar
- ✓ Psixologik maslahat markazlari

Klinik psixologlar faoliyatining asosiy yo'nalishlari psixodiagnostika, psixokorreksiya hamda psixoterapeutik jarayonda ishtirok etish hisoblanadi.

Klinik psixologning faoliyatidagi diagnostik yo'nalish muassasaning davolash-profilaktika ishlari mohiyati hamda vazifalari bilan belgilanadi. **Diagnostika** – klinik psixologlar asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri. Klinik psixologik diagnostika turlari:

- ✓ Shaxs diagnostikasi (tipologik) – psixosomatik, nerv-psixik kasalliklar va psixik buzilishlarni aniqlash;
- ✓ Funksional diagnostika – psixik holatlar, terapeutik samaradorlikni baholashda qo'llaniladi.
- ✓ Bolalar va o'smirlarni anomal rivojlanishida psixik va aqliy rivojlanishi diagnostikasi.
- ✓ Psixologik korreksiya maqsadlarida o'tkaziladigan diagnostika – xavf psixologik omillarini aniqlash, psixologik taassirotlar samarasini baholash.
- ✓ Psixologik-pedagogik ekspertiza (maqsadi – bola taraqqiyotini prognoz qilish hamda ta'lim va psixikani korreksiya qilish shakllarini tavsiya etish).

Klinik psixologlar tomonidan amalga oshiriladigan **ekspertlik** vazifalar turlari:

- ✓ Tibbiy-mehnat ekspertizasi (psixik faoliyatning buzilishlari va saqlanganligini hisobga olish, psixologik xususiyatlarning u yoki bu kasbning psixologik talablari va professiogrammaga mosligini aniqlash).

Klinik psixologlar faoliyati turlaridan biri psixoterapeutik ishlar hisoblanadi. Bunda poliknikalarda amalga oshiriladigan psixologik yordam quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

- ◆ Vrach va patsient o`rtasida tezda aloqa o`rnatish zaruriyati;
- ◆ Qisqa va intensiv psixoterapeutik yordam ko'rsatish;
- ◆ Psixoterapiyani davolashning boshqa turlari bilan yug`unlashtirish;
- ◆ Psixosomatik buzilishlar va depressive buzilishlarning ko`pligi

7.3. Ishlab chiqarish sohasida psixolog faoliyati xususiyatlari

Ishlab chiqarish sohasi – bu texnik, mexanik va jismoniy mehnat faoliyatining markazi bo‘lib, u insonning psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ishlab chiqarish muhitida psixologik xizmatni tashkil qilish juda muhimdir. Bu sohaga ixtisoslashgan psixologlar mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, kasbiy yo‘naltirish va mehnat muhitini optimallashtirish bilan shug‘ullanadilar.

1.Kasbiy tanlov va yo‘naltirishda nimalarga axamiyat berishimiz zarur:

- ✓ Ishchilarning qobiliyati, temperamenti, qiziqishlari va salohiyatini hisobga olgan holda ularga mos kasb yoki lavozimni tanlashda yordam beradi.
- ✓ Kasbiy yo‘nalishni noto‘g‘ri tanlash oqibatidagi ruhiy tushkunlik, charchoq, samarasizlik kabi muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

2.Mehnat unumdorligini oshirishda:

- ✓ Ishchi xodimlarning psixologik holatini o‘rganadi va stress, charchoq, motivatsiya yetishmasligi kabi omillarni aniqlab, ularni kamaytirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni taklif etadi.
- ✓ Tashkiliy iqlimni sog‘lomlashtirish orqali jamoaviy muvofiqlikni kuchaytiradi.

3. Ish joyida stress va zo‘riqishlarni boshqarishda:

- ✓ Ish bilan bog‘liq stress, zo‘riqish (burnout), mojarolar va xavfli holatlar tufayli yuzaga keladigan ruhiy muammolarni bartaraf etishda maslahat va treninglar o‘tkazadi.

4. Psixologik xavfsizlikni ta’minlashda:

- ✓ Ish joyidagi xavf-xatarlar (masalan, yuqori harorat, shovqin, sust yoritilish, zax joylar) inson psixikasiga qanday ta’sir qilishini baholab, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishga ko‘maklashadi.
- ✓ Ishchilarning e’tibor, reaksiyaviylik, stressga bardoshlilik darajasini o‘lchaydi (ayniqsa xavfli sanoat tarmoqlarida).

5. Muloqot va jamoaviy ish faoliyatini rivojlantirishda:

- ✓ Rahbar va ishchi o‘rtasidagi munosabat, jamoa ichidagi ziddiyatlar, etakchilik uslublari va ularning samarasini psixologik jihatdan o‘rganadi.
- ✓ Jamoaviy ishda ruhiy uyg‘unlikni ta’minlaydigan mashg‘ulotlar tashkil qiladi (team-building).

6. Kasbiy salomatlik va ruhiy barqarorlikni nazorat qilishda:

- ✓ Ishchilar orasida psixologik holat monitoringi olib boriladi.
- ✓ Depressiv holat, ishdan charchash, demotivatsiya kabi kasbiy kasalliliklar profilaktikasi bilan shug‘ullanadi.

Ishlab chiqarish sohasida psixologning roli — faqatgina insonning ichki ruhiy muammolarini hal qilish bilan cheklanmaydi. U mehnat samaradorligini oshirish, xavfsizlikni ta’minalash, kasbiy stressni kamaytirish va sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratishga xizmat qiladi.

7.4. Tashkilot psixologining asosiy faoliyat sohalari va vazifalari

Psixolog faoliyatining asosiy ko`rinishlaridan biri tashkilot va muassasalarda psixologik xizmatni amalga oshirish hisoblanadi. Ishlab chiqarish korxonasidagi psixologik xizmat ijtimoiy rivojlanish xizmatining tarkibiy qismidir.

Tashkilot psixologgi faoliyati quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi:

1. Ishga qabul qilishda nomzodlarni psixologik tanlovdan o‘tkazish.
2. Personal kar’erasini psixologik qo‘llash.
3. Tashkilot xodimlarini psixologik baholash

Bu vazifalarga alohida to‘xtalamiz.

1. Ishga qabul qilishda nomzodlarni psixologik tanlovdan o‘tkazishning asosiy maqsadi – ularning psixologik xususiyatlari haqida ma’lumot to‘plash.

Nomzodlarni ishga qabul qilishda psixologik tanlovdan o‘tkazish 3 bosqichda amalga oshiriladi:

- Birlamchi tanlov.
- Psixologik testdan o‘tkazish.
- Xulosa berish.

Birlamchi tanlovda xodimlar bo‘limi mutaxassislari ham ishtirok etadi, nomzodlarning shaxsiy ma’lumotlari: rezyume, tavsiyanomalari baholanadi, turli formallahgan anketalar to‘ldiriladi. Bu esa nomzod to‘g‘risidagi ma’lumotlar bankini shakllantirish imkonini beradi. Kelajakda ushbu nomzod tashkilotning qaysi bo‘limida ishlashi mumkinligi aniqlanadi. Bunday yondoshuv kadrlarni almashtirish zarur bo‘lganda kadrlar agentliklariga murojaat qilmay va pul sarflamay muammoni hal qilishga yordam beradi.

Psixologik testdan o‘tkazish bosqichi. Test nomzod shaxsining psixologik xususiyatlari, xulq-atvori to‘g‘risida ma’lumot to‘plash maqsadida o‘tkaziladi.

Bunda psixik jarayonlarning rivojlanish darajasi, nomzodning faoliyat turiga tayyorligi, uning malaka va ko‘nikmalarini aniqlanadi. SHuningdek:

- Intellekt;
- Emotsional barqarorlik;
- Adaptiv xususiyatlar;
- Xulq-atvorning normativligi;
- O‘ziga bo‘lgan munosabat;
- Insonlarga bo‘lgan umumiyligini ustyanovkalar;
- Liderlikka moyillik;

- Nizolashuvchanlik;
- Aloqa o‘rnata olish;
- Komandada ishlay olish qobiliyati;
- Internallik darajasi
kabi jihatlar o‘rganiladi.

Xulosa berish bosqichida tekshiruv natijalari asosida xulosa tayyorlanadi va unda olingan natijalar interpretatsiya qilinadi. Nomzodning mutaxassislik kasb talablariga moslik darajasi, uning psixologik xususiyatlari tashkilot bo‘linmasining talablariga qanchalik javob bera olishi hamda mavjud ishlayotgan komandaga to‘g‘ri kelishi yoki kelmasligi bayon qilinadi.

Xulosa rekomendatsiya xarakteriga ega bo‘ladi. Qabul qilish g‘aqidagi qarorni tashkilot rahbari chiqaradi

2.Personal kar’erasini psixologik qo‘llash tashkilot psixologi faoliyatida quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- Tadqiqotchilik;
- Korreksion;
- Maorif ishlari.
- Tadqiqot ishlari tashkilot ma’muriyati buyurtmasiga ko‘ra olib boriladi.
- Korreksion ishlar tashkilot xodimlarining psixologik salomatligini saqlashga qaratilgan dasturni o‘z ichiga oladi. Ushbu dastur ishlab chiqarishdagi turli sabablar natijasida kelib chiqadigan stress holatlarini bartaraf etishda qo‘llaniladi.
- Maorif yo‘nalishida mehnat faoliyati samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi psixologik omillar haqida ma’lumot beruvchi ma’ruza va seminarlar o’tkaziladi.

Korreksion ishlar doirasida quyidagi ishlar olib boriladi:

- Ishga yangi qabul qilinganlarni jamoaga va yangi sharoitlarga moslashuviga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish;
- Tashkilotda ijtimoiy-psixologik iqlimni optimallashtirishga qaratilgan guruhiy va individual mashg‘ulotlar o’tkazish.

Korreksion tadbirlarning maqsadi – xodimlarni dezadaptatsiya belgilari va sabablariga bardosh bera olish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Korreksion tadbirlarni amalga oshirishda relaksatsiya mashg‘ulotlari, emotsiyal zo‘riqishlarni yo‘qotishga o‘rgatish, kommunikativ treninglar, individual maslahat, “Ishonch telefon” dan foydalaniishi mumkin.

3.Personalni baholash vazifasi bo‘yicha psixolog amalga oshiradigan ishlar:

- Xodimlarni kategoriylarini oshirishda, boshqa lavozimga o’tkazishda, mutaxassislar psixologik xususiyatlarini va qobiliyatları yangi lavozim talablari yoki yangi sharoitlarga moslik darajasini aniqlashda qatnashish;
- Yuqori lavozimlarga zahiralar bankini yaratishda ishtiroy etish.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1.Tibbiyot muassasalarida psixologik xizmatning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?

2. Klinik psixolog kim va uning tibbiyat sohasidagi o‘rni qanday?
3. Psixosomatik kasalliklar deganda nimani tushunasiz
4. Ishlab chiqarish korxonasiidagi psixologik xizmatning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
5. Tashkilot psixologining lavozimiy vazifalarini aytib bering.
6. Xodimlarni ishga qabul qilishda psixolog qanday bosqichlardan foydalanadi?
7. Psixologik testlashning maqsadi nima va qanday metodlar qo‘llaniladi?
8. Tashkilotda psixologik muhitni optimallashtirish bo‘yicha qanday chora-tadbirlar ko‘riladi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Klinik psixologning asosiy vazifasi nima?

Jarohlik amaliyotini bajarish

Dorilar yozish

Psixik buzilishlarni aniqlash va korreksiya qilish

Fizik davolashni nazorat qilish

2. Tibbiyotda psixosomatik kasalliklar deganda nima tushuniladi?

Bosh og‘rig‘i bilan bog‘liq kasalliklar

Ruhiy omillar sababli yuzaga kelgan jismoniy kasalliklar

Virusli kasalliklar

Sport jarohatlari

3. Psixolog bemor bilan suhbatda birinchi navbatda nimani aniqlaydi?

Uning moliyaviy holatini

Tibbiy sug‘urtasi bor-yo‘qligini

Emotsional holati va ehtiyojlarini

O‘qigan oliygohini

4. Ishga qabul qilishda psixologik tanlovning birinchi bosqichi qanday ataladi?

Suhbat

Xulosa berish

Birlamchi tanlov

Kasbiy yo‘naltirish

5. Ishlab chiqarishdagi stress holatlari uchun qanday chora-tadbirlar qo‘llaniladi?

Jazolash

Sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari va treninglar

Dam olish kunlarini kamaytirish

Ish haqi pasaytirish

8-MAVZU. HUQUQ VA SPORT SOHASIDA PSIXOLOGIK FAOLIYAT.

- 8.1. Huquq sohasida psixologik faoliyat o‘ziga xos xususiyatlari
- 8.2. Yuridik mehnat faoliyatining boshqa kasblardan ajralib turuvchi tomonlari.
- 8.3. Sport psixologiyasi predmeti va vazifalari

Tayanch so’z va iboralar: aholiga psixologik xizmat, xuquqiy bilimlar, yuridik psixolog, ishlab chiqarish sohasi, tashkilot psixologi, psixologik ta’lim, psixologik tadqiqot, sport psixologi, mexnat, psixologik profilaktika, psixologik maslahat, psixologik tashxis

8.1. Huquq sohasida psixologik faoliyat o‘ziga xos xususiyatlari

Yuridik psixologiya – bu psixologiyaning huquq sohasidagi amaliy jihatlari bilan bog‘liq bo‘lgan tarmog‘i bo‘lib, u huquqiy tizim ishtirokchilarining psixologik holatlari, xulq-atvori, motivlari va qarorlar qabul qilish jarayonlarini chuqr o‘rganadi. Bugungi kunda yuridik psixologiyaning dolzarb vazifalaridan biri — korruptsiya, o‘zboshimchalik, va noqonuniy faoliyatlar singib ketgan tizimlar sharoitida yuzaga kelgan psixologik muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.Yuridik psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari quyidagicha:

◆ Sud psixologiyasi – jinoyat ishlari bo‘yicha sud jarayonida ishtirok etayotgan shaxslarning (sudlanuvchi, guvoh, jabrlanuvchi, suda, prokuror, advokat va boshqalar) ruhiy holati, psixologik xususiyatlari, xatti-harakatlarini tahlil qiladi.Bu yo‘nalish quyidagi savollar bilan shug‘ullanadi:

- ✓ Guvohlarning ko‘rsatmalariga ta’sir etuvchi psixologik omillar nimalar?
- ✓ Jabrlanuvchilarning ruhiy zarbalari qanday baholanadi?
- ✓ Sudlanuvchining ruhiy holati uni jazoga loyiqlik yoki yo‘qligini qanday aniqlash mumkin?

◆ Kriminal (jinoyat) psixologiya- jinoyat sodir etgan shaxslarning psixologik portretini tuzish, jinoyatning sabablari, motivlari, shaxs taraqqiyoti va jinoyatga olib kelgan omillarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bu yo‘nalishda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

Kriminal psixologiya Jinoyatchi shaxsining shakllanish bosqichlari;

- ✓ Jinoyat sodir etilishida ichki va tashqi ta’sir omillari;
- ✓ Jinoyatchilikka moyillikning oldini olish choralarini ishlab chiqish.

Yuridik psixologiyaning amaliy ahamiyati:

- Jinoyatlarni tahlil qilish orqali ularning oldini olish;
- Sudda adolatli qaror qabul qilishga ko‘maklashish;
- Jinoyat sodir etgan shaxslar bilan ishlashda psixologik yondashuvlar qo‘llash;
- Tergov va surishtiruv ishlari davomida psixologik ekspertiza berish;
- Reabilitatsion dasturlarni ishlab chiqish.

8.2. Yuridik mehnat faoliyatining boshqa kasblardan ajralib turuvchi tomonlari

Huquq sistemasining amal qilishibilan bog’liq masalalarning psixologik asoslarini o‘rganadigan fan - yuridikpsixologiyadir. Yuridik psixologiya – yuridik faoliyat va huquq sistemasiningamal qilishi bilan bog’liq masalalarning psixologik asoslarini o‘rganadi. Shubilan birga, yuridik psixologiya inson, jamiyat, huquq kabi tushunchalarni hartomonlama oydinlashtiradi. Shaxs jamiyatda yashar ekan, o‘zining xattiharakatlarini, xulq-atvorini, turmush va mehnat faoliyatini shu jamiyatda qabulqilingan axloqiy, huquqiy, ijtimoiy va madaniy norma va qoidalarga amalqilishga moslashishga majbur. Bu qoida va normalar asrlar davomida shaxsningijtimoiylashuvi jarayonida shakllangan va jamiyat tomonidan e’tirof etilgan. Shaxs tomonidan bu normalarning buzilishi atrofdagi kishilar (ijtimoiy sanksiyalar), jamoat tomonidan qoralanadi.

Jinoyatchi huquq organlari tomonidan jinoyatiga yarasha jazolanadi. Bu jinoyatni o‘rganishda:

- 1) jinoyatnikeltirib chiqargan sabablar;
- 2) jinoyatchining motivlari, ehtiyojlari, psixik holatikabi psixologik jihatlarni o‘rganish tergovchi, sudya va boshqalarningjinoyatchi shaxsini har tomonlama o‘rganishiga yordam beradi.

Bu esa o‘znavbatida jinoyat jarayonini qayta tasavvur etish (rekanstruksiya) va odil hukm chiqarishga imkon yaratadi

- ⊕ Yuqoridaqilardan kelib chiqib, yuridik psixologiya fanining vazifalari:
- ⊕ Psixologik va huquqiy bilimlarni ilmiy tahlilini amalga oshirish;
- ⊕ Huquqiy kategoriyalarning psixo-yuridik muammolarini o‘rganish;
- ⊕ Yuristlarni o‘z faoliyati obyekti bo‘lmish- inson xulq-atvorini chuqr tushunilishini ta’minalash;
- ⊕ Turli huquqiy subyektlarning (gumondor yoki jinoyatchining) psixologik faoliyati xususiyatlarini va turli vaziyatlarda ularning psixologik holatini ochib berish;
- ⊕ Jamiyat hayotida huquqiy madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berish (jinoyatchining jazoni o‘tashda, uni qayta tarbiyalashda psixologik tavsiyalar) hisoblanadi

Huquqiy psixologiya yuridik psixologiya fanining bo‘limi bo‘lib, u huquqiy bilim, huquqiy xulq-atvor, huquqiy madaniyat, individual, guruhiy va jamiyatda huquqiy ong shakllanishining psixologik jihatlarini o‘rganadi.

Fuqarolik shaxsning o‘z huquq va burchlarini to‘liq his etishi, huquqiy, axloqiy meyorlarga ongli rioya etishi, ijtimoiy hayotdagi faolligi, yuksak ma’naviy yetukligi bilan xarakterlanadi

8.3. Sport psixologiyasi predmeti va vazifalari.

Sport psixologiyasi – sportchilarning shaxsiy va faoliyatiga xos xususiyatlarini, ularning musobaqalarga psixologik tayyorgarligini, shuningdek, sport mashg‘ulotlari va musobaqalarni tashkil etish jarayonidagi psixologik omillarni o‘rganadigan fan hisoblanadi. Ushbu fan sportchilarning sportda yuqori natijalarga erishishlari uchun xizmat qiladi va jismoniy mashqlar, raqobat muhiti, kuchlanish holatlari kabi vaziyatlarda sportchilarning ruhiy jarayonlari qanday kechishini o‘rganadi.

- ◆ Sport psixologiyasining eng muhim vazifalaridan biri — sportchini musobaqalarga psixologik jihatdan tayyorlashdir. Bu jarayon sportchilarning:
 - Jismoniy sifatlarini (kuch, chaqqonlik, chidamlilik);
 - Sport ko‘nikmalarini va texnik malakalarini;
 - Ruhiy holatini (stressga chidamlilik, diqqatni jamlash, o‘ziga ishonch);
 - Iroda va sabr-bardoshini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.
- ◆ Mashg‘ulotlar va musobaqalarda yuzaga keladigan ruhiy va jismoniy zo‘riqishlarni yengish uchun psixologik tayyorgarlik uslublari ishlab chiqiladi. Bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
 - Motivatsiyani oshirish texnikalari;
 - Stressni kamaytirish va relaksatsiya usullari;
 - Vizualizatsiya va ijobiy tasavvurlar bilan ishlash;
 - O‘z-o‘zini boshqarish (avtogen mashqlar, meditatsiya) texnikalari.
- ◆ Psixolog jamoada ijobiy muhit yaratish, sportchilarning bir-biriga ishonchi, hamjihatlik, to‘g‘ri muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida ishlaydi. Bu musobaqalarda jamoaning bir butun bo‘lib harakat qilishiga xizmat qiladi.
- ◆ Sport psixologi sportchining quyidagi tayyorgarlik turlarini hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi:
 - **Jismoniy tayyorgarlik** – mashqlar va sport vazifalarini bajarishga tayyorlik;
 - **Psixik tayyorgarlik** – ichki ruhiy holatni boshqarish;
 - **Taktik tayyorgarlik** – raqib harakatlarini tahlil qilish va to‘g‘ri strategiya tanlash;
 - **Texnik tayyorgarlik** – sport usullarini mukammal bajarish qobiliyati.

Sport psixologiyasi — nafaqat sportchilarning ruhiy holatini yaxshilash, balki ularning **jismoniy va taktik imkoniyatlarini to‘liq ochib berish** orqali, musobaqalarda yuqori natijalarga erishishlariga xizmat qiladigan muhim fan hisoblanadi. U sportchining **ichki resurslarini safarbar qilish**, jamoa bilan uyg‘unlikda ishlash va psixologik muvozanatni saqlashga qaratilgan.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Huquq sohasida psixologik faoliyat o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Yuridik mehnat faoliyatining boshqa kasblardan ajralib turuvchi tomonlari.
3. Yuridik psixolog mutaxassisligiga xos kasbiy fazilatlar.
4. Jinoiy xulq-atvorga sabab bo’luvchi omillarni o’rganish muammolari.
5. Huquq-tartibot organlari xodimlari kasbiy deformatsiyalari profilaktikasi.
6. Sport psixologiyasi predmeti va vazifalari.
7. Sportchilarga psixologik yordam ko’rsatish.
8. Mashq jarayoni samaradorligining psixologik asoslari.
9. Sport komandasidagi liderlik va psixologik muhit masalasi.
10. Sport trenerlari faoliyatining psixologik xususiyatlari

Mavzu yuzasidan test savollari:

1.Yuridik psixologiya nimani o’rganadi?

Huquqiy normalarni belgilash

Jinoyatchilarning jismoniy rivojlanishini

Huquq sohasi bilan bog‘liq psixologik muammolarni

Jamoat tartibini saqlash

2.Quyidagilardan qaysi biri yuridik psixologiyaning tarmoqlaridan biri hisoblanadi?

Pedagogik psixologiya

Sud psixologiyasi

Sotsial psixologiya

Tashkiliy psixologiya

3. Sport psixologiyasining asosiy maqsadi nima?

Sportchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish

Sportchilarning jismoniy sog‘lig‘ini nazorat qilish

Sportchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish

Sport o‘yinlarini tashkil qilish

4.Sport psixologiyasi qaysi holatlarda sportchilarga yordam beradi?

Faqat jarohat olganlar uchun

Musobaqa oldi stressi va zo‘riqishlarni yengish uchun

Faqat jismoniy mashqlarni bajarish uchun

Dori vositalarini tavsiya qilish uchun

5.Sportchilarda motivatsiya va ishonchni oshirish uchun qaysi usul ishlataladi?

Tanaffus berish

Huquqiy maslahatlar

Vizualizatsiya va ijobjiy tasavvurlar

Taktik rejani o‘zgartirish

9-MAVZU. OILAGA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISH.

REJA

- 9.1. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi haqida tushuncha
- 9.2. Oila psixologik tadqiqotlarning predmeti sifatida
- 9.3. Oila diagnostikasi va maslahat ishlarini tashkil etish

Tayanch so'z va iboralar: aholiga psixologik xizmat ko'rsatish, oilaviy munosabatlar, tarbiya, oila psixologi, psixologik ta'lim, psixologik bilimlar, psixologik bilimga bo'lgan ehtiyoj, psixologik profilaktika, psixologik maslahat, psixologik tashxis, psixologik muammo, psixologik tahlil.

9.1. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi haqida tushuncha

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi — oilada yuzaga keladigan psixologik holatlar, o'zaro munosabatlar, nizolar, hissiy bog'liqlik va rollarni o'rGANADIGAN psixologiya sohasi hisoblanadi.

U insonlar oila qurishidan boshlab, uning barcha bosqichlarida – turmush qurish, farzand tarbiyasi, qarilik davriga qadar – yuzaga keladigan ruhiy va hissiy jarayonlarni tahlil qiladi.

Ma'lumki, mutaxassisga murojaat etgan oilali odamlarning aksariyati turmush o'rtog'i yoki farzandlarining fe'l-atvori o'zgarishini istaydi. Ular bu istagini odatda quyidagicha ifodalaydi: "O'g'lim (qizim, erim yoki xotinim) bilan gaplashib qo'ysangiz, chunki u o'zgarmasa yashash qiyin bo'lib qoldi!" Ammo vaziyat biz o'ylaganchalik oson emas. Chunki atrofimizda paydo bo'layotgan barcha hayotiy vaziyatlarda bizning xam ulushimiz, ta'sirimiz borligini tushunish, ya'ni turli muammolarning paydo bo'layotganiga o'zimiz ham sababchi ekanimizni anglash zarur. Ba'zan nojo'ya fe'l-atvorimiz, hatti- harakatimiz bilan anglab yoki anglamagan holda noxush vaziyatlarni keltirib chikaramiz va oqibatda uzoq vaqt iztirob chekib yuramiz. Hayotda yuzaga keladigan muammolar faqat boshqa odamlarning xatti-harakati bilan bog'liq emas. Biz ham ushbu muammolarning shakllanishida bilgan yoki bilmagan holda o'z hissamizni qo'shgan bo'lishimiz mumkin. Masalan:

- ✓ Farzandingiz sizni eshitmayaptimi? Balki siz uni yetarlicha eshitmagandirsiz.
- ✓ Turmush o'rtog'ingiz sovuqmu? Ehtimol, sizda ham hissiy masofa paydo bo'lgandir.
- ✓ Oiladagi gap-so'zlar ko'payganmi? Balki muammoni o'z vaqtida muhokama qilmagandirsiz. Bu degani — muammo faqat "ular"da emas, "**biz**"da hamdir.

Psixolog xizmatiga murojaat qilishdan oldin ayrim kishilar mavjud muammolarni mustakil ravishda hal etishga urinib, ba’zan qaltis yo’l tutishi, deylik, uydan bosh olib chikib ketadi, boshqa ish joyiga o’tadi, farzandlariga “urush e’lon” qiladi, arazlab, kunlab, oylab turmush o’rtog‘i bilan gaplashmay yuradi. Lekin har safar hafsalasi pir bo‘lib, hatti-harakatini samarasiz deb topadi. Chunki yuzaga kelgan yangi vaziyat ilgarigisidan ham *chigalroq* ekanini anglab yetadi. Natijada odam o‘zini baxtsiz his eta boshlaydi, vaziyatni o‘zgartirishga kuch topa olmaydi, uni qiyayotgan muammolar chigallashib boraveradi. Har qanday ijtimoiy guruh jumladan, oiladagi munosabatlar muayyan bosqichda yangicha qirralar kasb etadi. Masalan, deyarli xar bir oilada ota-onas va ulg‘ayayotgan farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarda anglashilmovchilik va ziddiyatlar ko‘payib borishini kuzatish mumkin. Bir tarafda — nazorat qilishga o‘rganib qolgan ota-onas, boshqa tarafda - hali hatti-harakati va qarorlari uchun ma’suliyatni to‘liq his eta olmaydigan farzand turadi. Masalaning chigalligi shundaki, farzandlar ota-onalaridan mustaqil bo‘lish va ular nazoratidan qutulish maqsadida ba’zan, hatto hayoti uchun xavf soladigan harakatlarni ham sodir etishi mumkin. Qalbi mehrga to‘lik ota-onas esa farzandlarni nazorat etish bilan ularni qiyin ahvolga solayotgani va baxtsiz qilayotganini anglab yetmaydi

Tabiiyki, insonni o‘rab turgan muhit uning shakllanishida yetakchi o‘rin tutadi. Ulg‘aygan sari insonda unga xos bo‘lgan, yon-atrofidagilarda ham ma’noda namoyon bo‘ladigan (demak, o‘zgalar ham qo’llab-quvvatlaydigan) hatti harakatlar ko‘zga tashlanadi. Psixologiyada stereotip deb atalgan bunday hattiharakatlar ko‘pincha anglanmagan holda amalga oshiriladi. Stereotip atrof muhitga, turli vaziyatlarga moslashish xamda ortikcha zo‘riqish-larsiz qaror qabul qilishga imkon beradi. Biroq ayrim hollarda stereotip shaxs kamoloti yo‘lidagi to‘sinqa aylanishi va buning asorati shaxslararo munosabatlarga ham ta’sir etishi mumkin. Inson botiniy olamida bunday holat ichki ziddiyat, stress va diskomfort sifatida aks etsa, tashqi fe’l-atvor va hatti-harakatda ishonchszilik, befarqlik, tushkunlik yoki jahl, asossiz tajovuz kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Bu hol insonning aqliy salohiyatiga salbiy ta’sir etib, uning ijodiy imkoniyatlarini cheklaydi.

Shunday qilib, yuqorida tilga olingan holatlar shaxs rivojini cheklashi va tabiiyki, oilaviy munosabatlarda ham muayyan muammolarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin

9.2. Oila psixologik tadqiqotlarning predmeti sifatida

Oila – azaldan muayyan iliq hissiyotlar, o‘zaro mehr va muhabbat asosida quriladigan maskan sanaladi. Ikki inson o‘zaro ahdu-paymon qilib ro‘zg‘or qilishga qaror qilar ekanlar, ularda yuksak axloqiy hislar iffat, hayo, sabr, iroda, shukur, aql va farosat, sahovat va mehr bo‘lishi lozim.

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 maydag‘i “Respublikada psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash va psixologik xizmat tizimini takomillashtirish to’g‘risida” gi 472-sonli Qarorini uchinchi bandida: “Aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish etarlicha yo’lga qoyilmaganligi oqibatida jamiyatda ijtimoiy-psixologik, jumladan,

oilaviy muammolar (ajrimlar, oiladagi nizolar, ota-onasiga farzand munosabatlari, qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, erta tug'ruq), "omaviy madaniyat" ning salbiy ta'sirlariga tobeklik, o'z joniga qasd qilish holatlari davom etmoqda" – deb ko'rsatilgan. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5938-son farmoniga muvofiq: O'zbekiston respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida qarorni imzoladi. Bu ham hozirda Oila institutiga beriliyotgan yuqori darajadagi e'tiborning bir asosidir, shu sababli ham, oilaga psixologik xizmat ko'rsatish xozirgi kunda dolzarb mavzu ekanligini belgilaydi. Oilaga psixologik xizmat ko'rsatish bu-oilaga uning muammolarini echishda yordam berish, quvvatlash xisoblanadi. Avvalom bor shuni aytish kerakki yordam-bu jamiyatdagagi har qanday tizimga, uning psixologik muammolariga, o'zini kompetitligi darajasida saqlab qolish, ko'maklashish, quvvatlash hisoblanadi. Bunga misol sifatida xarbiy yordam, gumanitar yordam, biringchi yordam, psixologik yordam va shu kabilarni kiritish mumkin. Oilaviy turmushda nizoli holatlarni idrok etish, turmush o'rtoqlarning xar biridagi shaxsga xos xususiyatlardan kelib chiqadi. Bu nizo ko'p hollarda turmush o'rtoqlarni doimiy charchashi bilan xam bog'liq bo'ladi. Xozirda zamonaviy oilalarda bunday nizolarni ko'payib borishi o'ziga xos ayrim salbiy sabablar bilan ham bog'liqdir. Bunday holatlar ikkala tamonni javobgarlikni sezmagانلاردا, ma'suliyatni his etmagانلارдан kelib chiqadi. Yoshlar har doim o'zlarini yaxshi tamondan ko'rsatib yoqishga intiladilar. Faqat ijobiy va ko'r-ko'rona sohta munosabatlari orqali tanlangan yoshlar hayotning murakkab vaziyatlariga duch kela boshlaganlarida o'zlarini to'la to'kis nomoyon qiladilar. Natijada yaxshi sinalmagan oila yaqindan bir-birlarini yaxshi o'rgangandan so'ng hayat davomida kelisholmay turmush tarzidan norozi bo'la boshlaydilar va oilada kelishmovchiliklarga sabab bo'ladi

9.3. Oila diagnostikasi va maslahat ishlarini tashkil etish

Oila diagnostikasi — bu psixolog tomonidan oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni, kommunikatsiya uslublarini, roldagi taqsimotni va oiladagi umumiy ijtimoiy-psixologik muhitni o'rganishga qaratilgan faoliyatdir. Asosiy maqsad — oilada mavjud muammolarni aniqlash, ularning sabablarini tushunish va shaxsiy va oila darajasida yechim yo'llarini topishdan iborat.

Oila diagnostikasi bosqichlarda amalga oshiriladi:

➤ Ma'lumot yig'ish:

- ✓ Anketa, suhbat va so'rovnomalar yordamida oila a'zolari haqida dastlabki ma'lumotlar to'planadi.
- ✓ Oilaning tarixi, tuzilmasi, muammolarining paydo bo'lish tarixi o'rganiladi.

➤ Psixodiagnostik testlar:

- ✓ Kommunikatsiya darajasi, murosaga tayyorlik, emotsional bog'liqlik, stressga chidamlilik o'lchanadi.
- ✓ Mashhur uslublar: "Oila a'zolarining roli", "Oila a'zolari orasidagi yaqinlik xaritasi", "Oilaviy hayotdan qoniqish testi" va boshqalar.

➤ Kuzatuv va suhbat:

- ✓ Oila a'zolari o'rtasidagi muloqot uslubi bevosita kuzatiladi.
- ✓ Muloqot jarayonida mavjud kelishmovchiliklar, psixologik to'siqlar aniqlanadi.

Oila psixologik maslahati – psixolog tomonidan oilaviy muammolarni hal qilish, muloqotni yaxshilash va oila a'zolarini ruhiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan psixokorreksion ishlar **tizimidir**.

- Maslahat ishlarining asosiy yo'nalishlari: Oila a'zolari o'rtasidagi muammolar: ya'ni muloqotdagi nosamimiylilik, o'zaro tushunmovchilik,hissiy begonalashuv xamda xiyonat, rashk, moliyaviy yoki tarbiyaviy kelishmovchiliklardir.
- Farzand tarbiyasi bo'yicha maslahat berishda asosiy masalalar bolaning yoshiga xos muammolar (qarshilik, tortishuvlar, ijtimoiy izolyatsiya, darsga bo'lgan qiziqishning pasayishi),va ota-onha va bola o'rtasidagi ziddiyatlar xamda tarbiya uslubini tanlashdan iboratdir.
- Umumiy oilaviy muammolarga bulsa qaynona-kelin yoki boshqa qarindoshlar bilan bo'lgan munosabatlar, uyda ko'p avlod vakillari yashaganda yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik bosimlar kiradi.

Oila bilan ishlashda psixologning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ Ishonchli muhit yaratish
- ✓ Har bir oila a'zosining pozitsiyasini tushunish
- ✓ Oila a'zolariga o'zaro muloqotni o'rgatish
- ✓ Muammolar ildizini ko'rsatish, emas – hal qilishga yordam berish
- ✓ Mustahkam, sog'lom oilaviy munosabatlarni shakllantirish

Oila diagnostikasi va maslahat jarayoni oila ichidagi muammolarni tahlil qilish, ularni hal qilish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish va oilaviy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu — jamiyatning eng muhim bo'g'ini bo'lgan oilani sog'lomlashtirishga qaratilgan professional xizmatdir.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Oilaviy munosabatlar psixologiyasining asosiy o‘rganish obyekti nima?
2. Oilaviy psixologik diagnostika qanday bosqichlardan iborat? Har bir bosqichni izohlang.
3. Oilaviy maslahat jarayonida psixolog qanday yondashuvlardan foydalanadi?
4. Oilaviy nizolarning asosiy psixologik sabablari nimalar bo‘lishi mumkin?
5. Farzandlar va ota-onalar o‘rtasidagi psixologik muammolarni bartaraf etishda qanday usullar qo‘llaniladi?
6. Oiladagi psixologik salomatlikni ta’minlashda muhit va muloqotning o‘rnini qanday?
7. Oilaga psixologik yordam ko‘rsatishda madaniy va diniy qadriyatlar qanday inobatga olinadi?
8. Oilaviy psixologik xizmatda foydalaniladigan mashhur testlar va usullarni nomlang.

. Mavzu yuzasidan test savollari:

1.Oilaviy psixologik xizmatning asosiy maqsadi nima?

Oila a’zolari o‘rtasida nizoni kuchaytirish

Faqat farzandlar bilan ishslash

Oilada sog‘lom psixologik muhitni yaratish

Shaxsiy rivojlanishni o‘rganish

2.Oila a’zolarining muammolarini tahlil qilishda psixolog birinchi navbatda nimaga e’tibor beradi?

Huquqiy masalalarga

Moliyaviy ahvolga

O‘zaro munosabat va muloqotga

Shaxsiy mulkka

3.Oilaviy diagnostikaning birinchi bosqichi qanday nomlanadi?

Tashxis qo‘yish

Muloqotni o‘rganish

Muammoni aniqlash

Interventsiya

4.Oilada ro‘y beruvchi ziddiyatlar asosan qaysi soha bilan bog‘liq bo‘ladi?

Faqat moddiy holat

O‘zaro psixologik tushunmovchiliklar

Ta’lim darajasi

Kasb tanlovi

10-MAVZU. PSIXOLOG FAOLIYATIDA PSIXODIAGNOSTIK METODLAR.

REJA

- 10.1. Psixodiagnostika haqida tushuncha
- 10.2. Psixolog faoliyatida psixodiagnostik metodlarning tutgan o‘rni
- 10.3. Proyektiv metodikalar tavsifi
- 10.4. Psixodiagnostik metodlar imkoniyatlarining chegaralanganligi

Tayanch so’z va iboralar: psixologik xizmat, psixodiagnostik metod, psixologik ta’lim, psixologik tadqiqot, psixologik bilimlar, test, psixologik maslahat, psixologik tashxis, psixologik muammo

10.1. Psixodiagnostika haqida tushuncha

Psixodiagnostika – bu nafaqat nazariy fan, balki amaliy psixologik faoliyatning muhim yo‘nalishidir. Amaliy psixologiyaning barcha tarmoqlarida psixodiagnostika yetakchi o‘rinni egallaydi. Sababi, psixologik tekshiruvlarsiz **psixoprofilaktika, psixokorreksiya, psixologik maslahat** va boshqa psixologik xizmat turlarini to‘laqonli amalgalashib bo‘lmaydi.

Psixolog tomonidan olib boriladigan har qanday tuzatish, maslahat yoki rivojlantiruvchi ishlar asosida aynan **psixodiagnostik ma’lumotlar** yotadi. Bu ma’lumotlar shaxsning psixik holati, xulq-atvori, hissiyoti, aqliy rivojlanishi, kommunikativ salohiyati kabi jihatlarni chuqur o‘rganishga xizmat qiladi. **Psixodiagnostika** – bu shaxsga **psixologik diagnoz** qo‘yish jarayonini o‘z ichiga olgan fan va amaliy faoliyatdir. “Psixodiagnostika” atamasi ilk bor psixiatriya sohasida, xususan, **G. Rorshaxning** 1921-yilda chop etilgan mashhur asari orqali keng ommalashgan. Tez orada bu soha nafaqat tibbiyot doirasida, balki ta’lim, huquq, ishlab chiqarish, sport va oilaviy psixologiya kabi ko‘plab sohalarda ham mustaqil yo‘nalish sifatida shakllana boshladi. **Diagnoz**” (yunoncha “**diagnosis**” – **aniqlash, bilish**) degani – bu shaxsning hozirgi psixologik holatini aniqlash, uning individual xususiyatlariga baho berish, shuningdek, uning kelajakdagagi rivojlanishini **prognoz qilish** va unga mos **psixologik tavsiyalar** ishlab chiqishni anglatadi.

Psixologik diagnoz quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- ✓ Shaxsning psixik holatini aniqlash;
- ✓ Rivojlanish bosqichini baholash;
- ✓ Muammoli jihatlarni aniqlash;
- ✓ Korreksion yoki maslahat faoliyatini rejalashtirish;
- ✓ Shaxs imkoniyatlarini prognozlash.

Psixodiagnostika faqatgina oddiy test o'tkazish bilan cheklanmaydi. U o'z ichiga testlar, suhbatlar, kuzatuvlar, eksperimentlar, proektiv metodlar va boshqa metodik vositalarni ham qamrab oladi.

10.2. Psixolog faoliyatida psixodiagnostik metodlarni tutgan o'rni

Psixodiagnostik tadqiqot yosh xususiyatlariga, u yoki bu yosh davri uchun etakchi faoliyat turining ta'siriga, individual – tipologik tavsifnomalarning taraqqiyot darajasiga bog'liq bo'ladi. Bola taraqqiyotining har – bir yosh davri bolalar bilan ishslashning usullari va metodlarini, ekspreminal tadqiqotning o'z maqsadlari va vazifalarini talab qiladi.

Ta'lim-tarbiya muassasalarida psixodiagnostik tadqiqotlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Diagnostika uchun zarur ma'lumotlarni olish. Bunda bola psixik holati va shaxsi xususiyatlarining ba'zi belgilari ko'rinishi o'rganish maqsadida tadqiqot olib boriladi. Tadqiqot olingan ma'lumotlar yordamchi xarakterga ega bo'lib, bola xulq – atvoring haqiqiy kuzatilgan xususiyatlari, uning psixik funksiyalari, taraqqiyot darajasi bilan taqqoslashda foydalaniлади.

Masalan, darsda bola diqqatining barqaror emasligi, diqqatni bir joyga toplashga qiynalishi, aqliy ish qobiliyatining pastligi, tez chalg'ishi va boshqalar bilan ajralib turadi.

Lekin xulq – atvoring ko'rsatilgan belgilari bola xulq – atvori ehtiyojlari va motivlari ketma – ketligi (ierarxiya) ning o'zgarish natijasi bo'lishi mumkin. Bunda o'qituvchi shaxs holatining normal bo'lмаган ko'rinishlaridan biriga, yoki miya rivojlanishidagi kamchiliklarining funktsional belgilariga duch keladi. Ikkala holatda ham u yoki bu o'qivchi o'zlashtirishi va intizomining pasayishi tashqaridan sezilsada, psixodiagnostik tadqiqotlarda o'rganilayotgan o'zgarishlar manbalari, rivojlanishi va kelgusida qanday bo'lishi psixologik holat belgilari ham o'rganiladi. Psixodiagnostik tadqiqotlar bolaning psixik funksiyalari rivojlanish darajasining aqliy taraqqiyot darajasi, yosh va ma'lumot bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish uchun ham o'tkaziladi. Bu tadqiqotlar bolada ma'lum qiziqishlar, amaliy malakalar va kasb tanlashda juda muhimdir.

2. Psixik taraqqiyot o'zgarishini o'rganish uchun zarur ma'lumotlar toplash.

Agar ba'zi metodlar ("ko'ndalang kesim") orqali psixodiagnostik tadqiqot ma'lum bosqichda bola psixik taraqqiyot darajasini, ya'ni psixik funksiyalar rivojlanishining aktual zonasi aniqlanadigan bo'lsa, "uzunasiga kesim" (langityud) psixodiagnostik tadqiqotlarida bola psixik hayoti taraqqiyoti xususiyatlari rivojlanishda, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida o'rganiladi.

O'yin va o'qish faoliyatida ko'p martalab o'tkazilgan eksperimental – psixologik tadqiqotlar bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga ma'lum faoliyatning ta'sir ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. O'tkazilgan psixodiagnostik tadqiqotlar muhim prognostik ahamiyatga ega, chunki qo'llanilgan turli metodlarning o'quv – tarbiyaviy ta'sirini hisobga olgan holda shaxs rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkoniyatini yaratiladi.

3. Aqliy zaiflik darajasini yoki boshdan kechirgan kasallik tufayli psixik kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik tadqiqotlar maxsus yoki yordamchi maktabda o'qishi haqida masalalar hal bo'layotganda tibbiy pedagogik hay'at (komissiya) tomonidan foydalanishi mumkin.

4. Bolalarda paydo bo'lgan etarlicha o'rganilmagan yangi psixik holatlarni tahlil qilish uchun ilmiy maqsadda psixologik tadqiqot o'tkazish. Vazifa bunday qo'yilganda tadqiqotchini qiziqtirgan masala bo'yicha katta guruhlarda tadqiqotlar o'tkaziladi. Bu erda olingan natijalarning statistik ishonchliligi muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, psixodiagnostika ta'lim – tarbiya amaliyotida katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy asoslangan diagnostik metodlarsiz bolaning mакtabda o'qishga tayyorligini aniqlash va zarur bo'lganda ularga kerak bo'lgan yordamni berish mumkin emas. Shuningdek, diagnostik metodlarsiz, ta'limning rivojlantiruvchi samarasini kuzatish, o'quvchilarning ayrim fanlardan o'zlashtirishi haqidagi asosli ma'lumotlarni qo'lga kiritish mumkin bo'lmaydi, ta'limning turli metodlari, shakl va vositalarining samaradorligini taqqoslab, baholash mumkin emas

10.3. Proyektiv metodikalar tavsifi

Proyektiv metodikalar – bu klinik yo'nalishga ega bo'lgan, o'ziga xos va turli ko'rinishdagi psixodiagnostik vositalar guruhidir. Bu yerda "klinik yo'nalish" deganda shaxsning faqatgina anomal yoki patologik holatlarini aniqlash emas, balki uning xulq-atvoridagi individual uslublarni, nizoli vaziyatlarda namoyon bo'ladigan affektiv holatlarni, emotsiyonal kechinmalarini, shuningdek ongsiz (noaniq, chuqur) jarayonlarni aniqlashga xizmat qiluvchi metodikalar tushuniladi. Proyektiv metodikalarning tarixi 1904–1905-yillarga borib taqaladi. Ularning dastlabki shakli sifatida K.G. Yung tomonidan ishlab chiqilgan so'zli assotsiatsiya testi e'tirof etiladi. Keyinchalik ushbu testning turli variantlari rivojlantirildi va quyidagi maqsadlarda qo'llanildi: Tugallanmagan hikoya yoki gap testlari ham Yungning assotsiativ testlari asosida shakllangan proyektiv texnikalar turkumiga kiradi. Bu metodikalar, ayniqsa, shaxsning ichki ziddiyatlari, yashirin motivlari, ongsiz kechinmalarini aniqlashda qo'llanadi. Proyektiv diagnostikaning kelib chiqishi 1921 yilda G.Rorshax tomonidan Bernda, nemis tilida "Psixodiagnostika" asarining nashr qilinishi bilan bog'langan. O'zi rassomlikdan voz kechishiga qaramay, Germon Rorshax san'at va rassomlik tarixi bilan ko'proq qiziqardi. Unga ma'lum bo'lishicha, buyuk Leonardo da Vinci o'z xayolini osmondagi bulutlar, ulardagi turli shakllarni uzoq vaqt davomida kuzatish va ularni tahlil qilish orqali mashq qildirar edi. Bu xususiyat, ya'ni atrofimizdagi predmetli dunyoni "jonlantirish" barchaga, ayniqsa rassomlar va yosh bolalarga xos bo'lgan xususiyatdir. G.Rorshaxning taxminiga ko'ra, siyoh dog'lari, ya'ni ko'rishga yo'naltirilgan siyoh dog'lari motor (harakat) fantaziyalarini jonlantiradi. Rassiyada Rorshax testini qo'llashga dastlabki urinishlar 20 – 30 yillarga to'g'ri kelib, u asosan shaxs anomal xususiyatlarini aniqlash, nevroz va

psixopatlar diagnostikasi, shuningdek epilepsiya kasalligini tadqiq qilishda fo‘ydalanildi. 60 yillardan boshlab Rorshax testi psixologlarning tadqiqot va klinik diagnostik ishlarida keng tadbiq qilina boshlaydi. Dastlabki metodik qo‘llannmalar yuzaga keladi. Bu testdan tashqari proyektiv metodikalar qatoriga 1935 yilda dastlab jurnalda nashr qilingan Tematik appersepsion testini ham (TAT) kiritish mumkin. Bu test fantaziyani eksperimental o‘rganish metodikasi sifatida yuzaga keldi. Uning avtori G.Myurrey hisoblanadi. Rorshax testi singari bu testning ham o‘z tarixi mavjud. Psixolog va psixiatrlarga shu narsa oldindan ma’lum ediki, tekshiriluvchilar uchun maxsus tanlab olingan syujetli rasmlar asosida tuzilgan hikoyaga qarab, insonning qiziqishlari, mayllari haqida xulosa chiqarish mumkin.

PROYEKTIV METODIKALARING IMKONIYATLARI VA KAMCHILIKLARI

	Imkoniyatlari (Afzalliklari)	Kamchiliklari
1	O‘ngsiz (ong osti) jarayonlarni ochib beradi	Natijalarni talqin qilishda subyektivlik mavjud
2	Tabiiy va sun’iylikdan holi diagnostika	Normativ me’yorlar yetarli emas
3	Muloqotga kirishishni yengillashtiradi, ayniqsa bolalar bilan	O‘tkazish va talqin qilish murakkab, malaka talab qiladi
4	Emotsional kechinmalar, ichki ziddiyatlarni ochib beradi	Tahlil qilish ko‘p vaqt talab etadi
5	Har bir shaxsga individuallik asosida yondashadi	Bir xil testning turli modifikatsiyalari talqinlarni noaniq qiladi
6	Klinikadan tortib ta’limgacha turli sohalarda keng qo‘llanilishi mumkin	Ba’zan noto‘g‘ri yoki ortiqcha talqin qilish xavfi mavjud

10.4. Psixodiagnostik metodlar imkoniyatlarining chegaralanganligi

Psixologning amaliy ishi ishlab chiqarishning turli sohalari, tibbiyat, ta’lim va boshqa sohalarda psixodiagnostik metodikalarni qo‘llashni talab etadi. Shuning uchun bunday amaliyotni normativ boshqarish zarur bo’ladi, ya’ni metodikalrn ni yaratuvchilar hamda qo‘llovchilarga nisbatan aniq talablar tizimi ishlab chiqiladi. Metodikani qo‘llovchi psixolog quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Psixodiagnostikaning umumiy-nazariy-metodologik tamoyillarini bilishi va amaliyotda qo‘llay olishi; differentsiyal psixometrikaning asoslarini egallagan bo’lishi; psixodiagnostika bo‘yica joriy metodik adaiyotni kuzatib borishi; muayyan soha bo‘yicha qo‘llaniladigan metodikalar kartotekasini mustaqil tarzda tuzishi hamda metidikalar shaxsiy kutubxonasiga ega bo’lishi lozim;
- Psixolog test natijalariga javobgar bo’lib, metodikalar reprezentativligi va validligini ta’minlashi hamda noprofessionallar tomonidan xatoliklarga yo’l qo‘yish oldini ola bilishi kerak;
- Psixolog noprofessionallarga nisbatan psixodiagnostikani qo‘llashda ustunlik va huquqlarga ega; tadqiqot protokollaridan kasbiy-ma’naviy tamouillarga

amal qilgan holda hamda psixologiyaning qiziqishlaridan kelib chiqib foydalanishi mumkin. Psixolog diagnoz ishonchlilagini parallel ravishda standartlashtirilgan va strukturalashtirilmagan metodikalarni qo'llash, shuningdek, ekspert baholash metodini qo'llash orqali ta'minlaydi;

▪ Tadqiqot dasturi uchun metodikalarni tanlashda psixolog o'zining metodikaga bo'lgan sub'ektiv munosabatlari va baholaridan kelib chiqmay, balki diagnostikaning maksimal darajadagi samaradorligi talablaridan kelib chiqishi zarur. "Kam kuch sarflab, yuqori ishonchlilikka erishish" qoidasiga amal qilish zarur;

▪ Psixolog metodikalarni qo'llash bilan bir qatorda ilmiy-uslubiy ishni ham olib borishi lozim. Muayyan sohada metodikani qo'llash samaradorligini qo'lga kiritilgan ma'lumotlar asosida tahlil qilish talab qilinadi. Bu orqali amaliy psixolog metodik tashkilotlar bilan aloqada bo'lib turadi, ularga olingan natijalar protokollari nusxasini berib, ulardan instruktiv metodik hujjatlar olib turadi;

▪ Psixolog tadqiqotning standart metodikalarini o'tkazish uchun barcha talablarga toliq amal qilinishini ta'minlaydi. Ballarni hisoblash, tavsiflash, prognoz qilish metodik ko'rsatmalarga mos ravishda amalga oshiriladi. Psixolog metodikani qo'llashda sandartdan chetga chiqishga haqqi yo'q. Metodikani qo'llash bo'yicha barcha takliflarni psixolog metodik markazga jo'natadi hamda metodikani qayta ko'rib chiqishda ularni inobatga olishni talab qiladi;

▪ Psixolog tekshiriluvchidan "shaxsiy ishonch" asosida qo'lga kiritgan psixodiagnostik axborotni yashirin holda, konfidentciyal saqlanishini ta'minlashi shart. Psixolog tekshiriluvchini albatta natijalar kim tomonidan va qanday maqsadlarda foydalanishi haqida ogohlantiradi. Psixolog psixologik diagnostika asosida chiqaraladigan xulosa va qarorlarni tekshiriluvchidan yashirishga haqli emas;

▪ Psixolog kasbiy sirni saqlay bilishi zarur: psixodiagnostika amaliyotini olib borolmaydigan shaxslarga instruktiv hujjatlarni berishi, potentciyal sinaluvchilarga u yoki bu psixodiagnostik metodika sirlarini ohib berishi mumkin emas;

▪ Psixolog ehtimoldan holi bo'limgan diagnostik tahmin bilan bir qatorda alternativ (muqobil) tahminni ham albatta nazarda tutadi; Psixolog psixodiagnostika tamoyillarining buzilishi to'g'risida psixologlar jamiyatining markaziy va xududiy bo'limlariga xabar berishi, psixodiagnostikani noahloqiy qo'llanilishiga shaxsan to'sqinlik qilishi zar

O'zini-o'zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Psixodiagnostika nima va uning psixolog kasbiy faoliyatidagi o'rni qanday?
2. Psixologik diagnoz tushunchasini izohlang. U qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
3. Psixodiagnostik metodlar qanday guruhlarga bo'linadi? Har bir guruhga misollar keltiring.
4. Suhbat usuli psixodiagnostikada qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
5. Kuzatuv usuli psixodiagnostikada qanday ahamiyatga ega?

6. Psixometrik testlar bilan proektiv metodlar o‘rtasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?
7. Test natijalarining ishonchliligi va aniqligi qanday ta’minlanadi?
8. Psixodiagnostik metodlarni tanlashda psixolog nimalarga e’tibor qaratishi lozim?
9. G.Rorshaxning siyoh dog‘lari testi qanday metod hisoblanadi va u qanday maqsatlarda qo‘llaniladi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1.Psixodiagnostika qanday soha hisoblanadi?

Faqat klinik psixologiyaga tegishli

Faqat nazariy fan

Faqat amaliy fan

Ham nazariy, ham amaliy fan

2.“Psixodiagnostika” atamasi dastlab qaysi sohada ishlataligani?

Ta’limda

Psixiatriyada

Huquqshunoslikda

Kriminologiyada

3.Quyidagilardan qaysi biri psixometrik testga kiradi?

TAT (Tematic Apperceptiv Test)

Rorshax testi

MMPI testi

“Katta-on” testi

4.Psixologik diagnoz – bu:

Jismoniy kasallik aniqlash usuli

Kuzatuvdan olingan xulosa

Shaxs holatini aniqlash va prognoz qilish

Tibbiy tekshiruv natijasi

5.Psixodiagnostik testlar ishonchliligi nimaga bog‘liq?

Testni kim o‘tkazayotganiga emas

Testning validligi va ishonchliligiga

Faqat testning nomiga

Qog‘oz rangiga

6.Psixologik suhbat usulining asosiy maqsadi nima?

Yozma malakani aniqlash

Shaxs haqida chuqur ma’lumot olish

Faoliyat samaradorligini baholash

Grafik test o‘tkazish

11-MAVZU. PSIXOLOGIK MASLAHATNI TASHKIL ETISH.

REJA

- 11.1. Psixologik maslahatni tashkil etishning umumiy masalalari
- 11.2. Psixokonsultatsiya samaradorligi shartlari
- 11.3. Psixologik maslahatni o'tkazish va uning bosqichlari

Tayanch so'z va iboralar: psixologik maslahat, psixokonsultatsiya, mijoz, psixologik test, psixologik tadqiqot, psixologik bilimlar, test, psixologik maslahat, psixologik tashxis, psixologik muammo

11.1. Psixologik maslahatni tashkil etishning umumiy masalalari

Psixologik maslahat – bu amaliy psixologianing muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, insonlarga turli hayotiy muammolarni hal qilishda yordam berishga qaratilgan muloqot jarayonidir. Maslahat jarayonida psixolog mijozga kerakli axborot, yo'l-yo'riqlar, tahlil va fikr almashish orqali ko'maklashadi.

Psixologik maslahat psixolog va mijoz o'rtasidagi ishonchli hamkorlikka asoslanadi. Bu jarayonda psixologning quyidagi fazilatlari muhim ahamiyatga ega:

- ✓ **Individual yondoshuv** – har bir mijozning holati va ehtiyojlariga qarab yondashish;
- ✓ **Madaniy empatiya** – turli ijtimoiy va madaniy guruhlar vakillarining dunyoqarashini tushunish va hurmat qilish;
- ✓ **Kuzatuvchanlik** – mijozning og'zaki va og'zaki bo'limgan xattiharakatlarini diqqat bilan tahlil qilish;
- ✓ **Ijobiy yondashuv** – shaxsiy rivojlanish va o'sishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yondoshuvni tanlash;
- ✓ **Muvofiqlashtiruvchi metodlar** – mijozga mavjud vaziyatni har xil nuqtai nazardan tahlil qilish, muqobil qarorlar ishlab chiqish imkonini beradigan uslublarni qo'llash xisoblanadi

Psixologik maslahatning asosiy maqsadi: madaniyatli, ongli, ijobiy o'zgarishlarga tayyor bo'lgan, turli hayotiy vaziyatlarga to'g'ri strategik yondasha oladigan mustaqil va mahsuldor shaxsni shakllantirishdan iborat.

Maslahat natijasida mijoz:

- muammoga boshqacha nigoh bilan qarashni;
- muqobil yechimlarni ko'rib chiqishni;
- shaxsiy resurslarini anglashni;
- kelajakka umid bilan qarashni o'rganadi.

Psixolog- maslahatchining asosiy vazifasi normal, psixik jihatdan sog'lom bo'lgan mijoz uchun madaniy imkoniyatlar darajasida va unga mos holda hatti-harakatni amalga oshirishga yordam beruvchi ongli va ijodiy usullar bilan (bir qolipda bo'limgan) harakat qilish uchun sharoitlar yaratishdan iborat

Psixolog-maslahatchi mijoz bilan shunday o‘zaro ta’sir o‘rnata olishi zarurki, uning natijasida mijoz hatti-harakatning yangi usullarini, yangi kechinmalar, yangi fikrlar, hayotini davom ettirish uchun yangi maqsadlar hosil qila olsin. Bunda psixolog o‘z nazariy mo‘ljallaridan qat’iy nazar ish jarayonida hayot, hayot mazmuni, insonning undagi o‘rni, qadriyatlar, individuallik kabi tushunchalarni qo‘llaydi.

Psixologik maslahat amaliyotiga bo‘lgan bir necha yondoshuvlar mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos yo‘nalishga ega. Ular: Psichoanaliz (Z. Freyd); Individual psixologiya (A. Adler); Analitik psixologiya (K. Yung); Tranzakt analiz (E. Bern); Bixevoiral yo‘nalish (ijtimoiy o‘zlashtirish); Kognitiv terapiya; Gumanistik yo‘nalish – geshtaltterapiya (R. Perlz); Guruhiy terapiya (K. Rodjers); Logoterapiya (V. Frankl); Psixodrama (Moreno).

Psixologik maslahatning asosiy metodi – intervyudir. Psixolog maslahatchi mijoz talabnomasi asosida ishlaydi. Intervyu mijoz talabnomasining, vaziyatning o‘ziga xosligini tahlil qilishning maxsus usuli bo‘lib, uning maqsadi mijoz uchun hatti-harakatning alternativ variantlarini yuzaga keltirishdan iborat.

Amaliyotchi psixolog ishida qo‘llaniladigan intervyu boshqa metodlardan nimasi bilan farqlanadi? Avvalom bor, intervyu doimo individuallashgan bo‘lib, u psixolog bilan mijozning o‘zaro ta’siri predmetini tuzishga qaratilgan bo‘ladi. O‘zaro ta’sir predmeti – mijozning ichki dunyosi. U bayon etiladigan modalliklar psixolog bilan mijoz o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mavzusini tashkil etadi. Masalan, mavzu sifatida mijozning kechinmalar yoki uning alohida hatti-harakatlari ham chiqishi mumkin.

11.2. Psixokonsultatsiya samaradorligi shartlari

Psixolog-konsultantning o‘z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi, ko‘pincha u psixologik maslahat jarayonidagi o‘z o‘rnini qanday tushunishiga bog‘liq bo‘ladi. Agar psixolog:

- ✓ O‘z faoliyatining **mazmuni va chegaralari** haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmasa;
- ✓ Ishini faqat **mijoz kutgan natijalarni** qondirish bilan chekla;
- ✓ Amaliyotda **Aniq nazariy printsiplarga** tayanmasa — unday holda u samarali natijaga erisha olmaydi. Chunki bu yondashuv professionallikdan uzoqlashadi va maslahatchining **psixologik yetakchi** emas, balki oddiy “maslahat beruvchi”ga aylanishiga olib keladi.

- ❖ **Mijozning noto‘g‘ri kutishlari:** mijozlar ba’zida psixologdan quyidagilarni kutishadi:
 - ⊕ Ularning o‘rniga **muammolarini hal etish**;
 - ⊕ Hayotiy muhim qarorlarni **psixolog aytib bersin** (masalan, qayerda o‘qish, ajrashish kerakmi, ish joyini o‘zgartirish va h.k.);
 - ⊕ Ularning og‘irliliklarini yengillashtirib, **mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishini** xohlashadi. Ammo bu holatda psixologning roli noto‘g‘ri tushuniladi.

- ❖ To‘g‘ri yondashuv qanday bo‘lishi kerak? Professional psixolog:
 - ✚ Mijozni eshitadi, tushunadi va **unga qaror qabul qilishda yordam beradi**, lekin qarorni o‘zi chiqarib bermaydi.
 - ✚ Mijozni **faol, ongli ishtirokchi** sifatida ko‘radi.
 - ✚ Psixologik maslahat jarayonida **shaxsiy o‘sish, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni** maqsad qiladi.
 - ✚ O‘z faoliyatini **aniq nazariy yondashuvlarga** tayanib olib boradi (masalan, kognitiv, psixoanalitik, gumanistik yondashuvlar).

Bizga ma’lumki, psixolog-konsultant faoliyati haqida gap ketarkan, uning psixodiagnostika bilan bog`liq faoliyati haqida ham gapirishimiz maqsadga muvofiq. Psixologik testlar yordamida shaxsni tadqiq etish, shaxsning ma`lum psixologiksifatlari va xossalarni tekshirish mumkin bo‘ladi. Psixologik testlarni asosano‘qitish va tarbiyalashni optimallashtirishda, ishga qabul qilishda, psixoterapiya hamda psixologik konsultatsiya o‘tkazishda, psixokorrekteziya uchun qo‘llaydilar. Amaliy psixolog faoliyati faqatgina psixodiagnostik muolaja bilan yakunlanib qolmaydi. Psixokonsultatsiyani faqatgina psixodiagnostik tadqiqotlar bilan chegaralash professional jihatdan noto‘g`ridir.

11.3. Psixologik maslahatni o‘tkazish va uning bosqichlari

Psixologik maslahat – bu murakkab, ammo ehtiyojkorlikni talab qiladigan muloqot jarayoni bo‘lib, unda psixolog va mijoz o‘zaro ishonch asosida suhbat olib boradilar. Y.Y. Aleshina tomonidan ishlab chiqilgan maslahat berish texnologiyasi bir necha muhim tamoyillar va bosqichlardan iborat. **Suhbatni olib borishdagi asosiy tamoyillar:**

1. **Psixolog nutqining chegaralanganligi**
 - ❖ Konsultant doimo suhbatni boshqarib turadi, lekin o‘z fikrlarini ko‘p gapirmaydi – aksincha, mijozni tinglashga ustuvorlik beradi.
 2. **Muloqot uslubini mijozga moslashtirish**
 - ❖ Psixolog suhbatda o‘z tilini mijozga yaqinlashtiradi, ya’ni, murakkab psixologik iboralar o‘rniga oddiy, mijoz tushunadigan tildan foydalanadi.
 3. **Mijozning emotsiional kechinmalarini tahlil qilish**
 - ❖ Mijoz aytayotgan voqeа, hodisa yoki harakatlar ortidagi emotsiional holatlarni aniqlash va ularni tushunish psixolog uchun muhimdir.
 4. **Suhbat davomida doimiy aloqani saqlab turish**
 - ❖ Psixolog suhbat mobaynida mijoz bilan ishonchli, samimiy aloqani yo‘qotmasligi kerak. Bu suhbatning samaradorligini ta’minlaydi.
- Konsultativ suhbat jarayoni bosqichlari quyidagicha
- 1-bosqich: Taniştiruv va suhbatga kirish (5–10 daqiqa)**
- Mijoz bilan ishonchli aloqani o‘rnatish.
 - Suhbatning maqsadi va qoidalari haqida qisqacha tushuncha berish.

2-bosqich: Mijozni tinglash va muammoni aniqlashtirish (25–35 daqiqa)

- Mijozning muammolarini diqqat bilan tinglash.
- Konsultativ gipotezalarni shakllantirish (muammo sabablarini taxmin qilish).
- Bu gipotezalarni suhbat davomida **tekshirib ko‘rish** (savollar orqali aniqlik kiritish).

3-bosqich: Psixologik ta’sir ko‘rsatish (5–10 daqiqa)

- Mijozda mavjud xulq-atvor va fikr yuritishdagi noto‘g‘ri qarashlarni o‘zgartirish (ustanovkalarni korreksiya qilish).
- Ijobiy qarorlar va konstruktiv yondashuvni shakllantirish.

4-bosqich: Suhbatni yakunlash (5–10 daqiqa)

- Qisqacha xulosa chiqarish.
- Mijozga kelgusi harakatlar uchun tavsiyalar berish.
- Suhbatni iliq ohangda yakunlash.

Psixologga ko‘proq shunday odamlar murojaat qiladi:

- ◆ Ular **tashqi tomondan sog‘lomdek ko‘rinsalar-da**, aslida ichki psixik va jiemoniy holati bilan **yuqori xavf guruhida** bo‘lishadi.
- ◆ Bunday odamlar asabiylilik, tushkunlik, xavotir, ruhiy bosim ostida yashaydi.
- ◆ Hayotdagи oddiy muammolar ularga qiyinchilik tug‘diradi.

Boshqa sog‘lom odamlar esa shunday vaziyatlarda faqatgina biroz noqulaylik yoki asabiylikni his qilib, bunday holatlardan mustaqil chiqib ketishadi.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Psixologik maslahat nima va uning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Psixologik maslahatning amaliy psixologiyadagi o‘rni qanday?
3. Psixologik maslahatning boshqa psixologik faoliyat turlaridan farqi nimada?
4. Psixologik maslahat jarayonida qanday bosqichlar mavjud?
5. Suhbat jarayonida psixolog qanday professional qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak?
6. Mijoz bilan birinchi marta uchrashuvda psixologning vazifalari nimalardan iborat?
7. “Empatiya” tushunchasining psixologik maslahatdagi o‘rni qanday?
8. Mijozning muammosini tahlil qilishda qanday yondashuvlar qo‘llaniladi?
9. Konsultatsiya jarayonida mijozga qanday tavsiyalar berilishi mumkin?
10. Psixologik maslahat jarayonida etik me’yor va qoidalarga rioya qilish nega muhim?
11. Psixologik maslahatni samarali olib borish uchun qanday tashkiliy sharoitlar bo‘lishi kerak?
12. Qaysi hollarda psixolog maslahatdan ko‘ra psixoterapiyaga yo‘naltirishi zarur?
13. Maslahat jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar va ularning yechimlari nimalardan iborat?

14. Mijozning shaxsiy ma'lumotlari bilan ishlashda qanday maxfiylik qoidalariga amal qilinadi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Psixologik maslahatning asosiy maqsadi nima?

Mijozni tibbiy davolash

Mijozga pul yordam ko'rsatish

Mijozga muammoni yechish uchun yo'l-yo'riq ko'rsatish

Mijoz ustidan hukm chiqarish

2. Quyidagilardan qaysi biri psixologik maslahat jarayonidagi asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi?

Hukm chiqarish

Jismoniy tekshiruv

Mijoz bilan tanishish va muammoni aniqlash

Vrach yo'llanmasi

3. Psixologik maslahatda "empatiya" nima degani?

Mijozni hukm qilish

Mijoz bilan janjallashish

Mijozni his-tuyg'ularini tushunishga harakat qilish

Mijozni yolg'iz qoldirish

4. Psixologik maslahatning eng asosiy vositasi nima hisoblanadi?

Jismoniy tekshiruvlar

Suhbat va muloqot

Tibbiy ko'rsatmalar

Ijtimoiy tarmoqdagi fikrlar

5. Qaysi holatda psixolog maslahat o'rniga psixoterapiya tavsiya etiladi?

Mijozda kuchli emotsional buzilishlar kuzatilganda

Mijoz yangi ish qidirayotganda

Mijoz notanish inson bilan tanishmoqchi bo'lsa

Mijozga dars tayyorlashda yordam kerak bo'lsa

12-MAVZU. PSIXOKORREKSIYA VA PSIXOTERAPIYA MASALALARI.

REJA

- 12.1. Psixokorreksiya haqida tushuncha. Psixokorreksion faoliyatning asosiy tamoyillari
- 12.2. Psixokorreksion jarayon qoidalari
- 12.3. Psixoterapiya va undagi asosiy yo‘nalishlar

Tayanch so‘z va iboralar: psixokorreksiya, psixoterapiya, psixokorreksion tamoyillar, psixoanaliz, geshtalt terapiya, ekzistensial terapiya, kognitiv terapiya, gumanistik yo‘nalish

12.1.Psixokorreksiya haqida tushuncha. Psixokorreksion faoliyatning asosiy tamoyillari

Psixokorreksiya — bu shaxsning ruhiy (psixik) holati yoki xulq-atvoridagi noqulaylik va nuqsonlarni **maxsus psixologik vositalar** orqali ijobjiy tomonga o‘zgartirish, tuzatish jarayonidir. Ushbu atama **yunoncha “psixe”** — ruh va **lotincha “korrektio”** — tuzatish degan so‘zlardan olingen bo‘lib, umumiy ma’noda **“ruhni tuzatish”** degan mazmunga ega. Psixokorreksiya fani – shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish usullarini qo‘llash, psixik rivojlanishdagi salbiy holatlarni bartaraf etish muammolarini o‘rganadi.

Psixokorreksion faoliyatning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Korreksiya va psixologik diagnostika birligi.
2. Rivojlanish normativligi.
3. «Yuqorida quyiga» prinsipi asosidagi korreksiya.
4. «Quyidan yuqoriga» prinsipi asosidagi korreksiya.
5. Psixik faoliyatning tizimli taraqqiyoti.
6. Faoliyat doir korreksiya

1. Korreksiya va psixologik diagnostika birligi tamoyili psixologik amaliyotning o‘ziga xos fenomeni sifatida psixologik yordam ko‘rsatish jarayoni yaxlitligi, mujassamlashganligini aks ettiradi. I.V.Dubrovina, D.B.Elkonin va boshqalarning asarlarida batafsil yoritib berilgan mazkur tamoyil butun korreksion faoliyatning negizi deb e’tirof etiladi, zotan korreksion faoliyat samaradorligining to‘qson foizi avval amalga oshirilgan psixologik diagnostika jarayonining chuqurligi, jiddiyligi bilan belgilanadi. Yuqorida zikr etilgan tamoyil ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi. **Birinchidan**, korreksion muolajalarni psixologik diagnostika izlanishlari bilan uyg’unligini ta’minlash, uning asosida birlamchi xulosa tuzish va korreksion-rivojlantiruv ishning maqsad va vazifalarini aniqlash zarur. Korreksion ish samarasi faqatgina dastlabki puxta psixologik diagnostika ishlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga «eng aniq, chuqur tashhis ma’lumotlari agar ular jiddiy o‘ylangan psixologik-pedagogik korreksion tadbirlar tizimi

bilan uyg'unlashtirilmasa ma'nisiz bo'lib qolishi mumkin» (D.B. Elkonin, 1989).

Ikkinchidan, psixologning korreksion-rivojlaniruv faoliyati mijozning korreksion ishlari jarayonidagi kechinmalari va his-tuyg'ulari, emotsiyal holati dinamikasi, faoliyati, fe'l-atvori, shaxs o'zgarishi dinamikasining doimiy nazoratini talab etadi. Ushbu nazorat programmasi vazifalarga zaruriy o'zgartirishlar kiritishni, mijozga psixologik ta'sir ko'rsatish uslublari va vositalarini vaqtida yangilash imkonini beradi.

2. Rivojlanish normativligi tamoyili – bu psixokorreksion faoliyatda muhim o'rinni tutuvchi tamoyil bo'lib, unda har bir shaxsning psixik rivojlanishi belgilangan normativ bosqichlar asosida baholanadi va yo'naltiriladi. Bu tamoyilga ko'ra, psixolog har bir insonni yoshi, individual rivojlanish sur'ati, ijtimoiy tajribasi va madaniy muhitiga mos tarzda baholashi kerak. Shaxsni baholashda yoki korreksion ish olib borishda uni jamiyat tomonidan tan olingan rivojlanish standartlari (normativlari) bilan solishtirish lozim. Bunda bolaning yoki kattalarning psixik rivojlanishidagi og'ishlar, orqada qolish yoki ilg'orlik darajasi aniqlanadi.

1. Ijtimoiy vaziyat (ahvolning) xususiyatlarini (masalan, tarbiyaviy yoki ta'limiy idoraning turini, bolaning muloqot doirasi, kattalar, oila a'zolarini hisobga olgandagi o'zgarishi.).

2. Rivojlanishning aynan shu yosh bosqichidagi yangi psixologik hosilalarning shakllanganlik darajasini.

3. Bolaning yetakchi faoliyatini rivojlanish darajasi, uning optimallashuvini

3. Korreksianing «yuqoridan quyiga» ushbu tamoyil **L.S. Vigotskiy** tomonidan ilgari surilgan **«yuqoridan quyiga» tamoyili** psixokorreksion faoliyatda rivojlanishni **oldinga qarab ilgarilatuvchi** va **istiqbolli** yo'nalishda olib borishni nazarda tutadi. Bu yondashuvga ko'ra, psixolog mijoz (ayniqsa bolalar bilan ishlaganda) bilan ishlashda:uning hozirgi rivojlanish darajasidan emas, balkirivojlanishning ertangi kuni — ya'ni yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) dan kelib chiqib ish olib boradi. Vigotskiy bu zonani shaxs hozir o'zlashtira olmagan, lekin yetukroq shaxslar (o'qituvchi, psixolog, ota-onalari) ko'magida bajara oladigan faoliyatlar sohasi deb ta'riflagan.

4. Korreksianing «quyidan yuqoriga» tamoyili. Ushbu tamoyil amalga oshirilayotganda korreksion ishning asosiy mazmuni sifatida mavjud psixologik qobiliyatlar zahirasini ishga solish nazarda tutiladi. Bu tamoyil, asosan, bixevoiristik yondashuv tarafдорлари tomonidan amalga oshiriladi. Ularning nuqtai-nazariga ko'ra xulq-atvor korreksiyasi, ijtimoiy ma'qullangan xulqni mustahkamlash va ijtimoiy noma'qul fe'l-atvorni tormozlash maqsadida, avvaldan mavjud bo'lgan xulqiy andozalarni (xoh ijobiy bo'lsin, xoh salbiy) kuchaytirish orqali amalga oshirilishi lozim.

5. Psixik faoliyatning tizimli taraqqiyoti tamoyili Bu tamoyil korreksion ishda rivojlantiruv va profilaktik vazifalarni hisobga olish zaruriyatini tug'diradi. Mazkur vazifalar tizimliligi shaxs turli jihatlarining o'zaro bog'liqligini va ularning rivojlanishi geteroxronligini (birday emasligi) aks ettiradi. Shaxs rivojlanishining hamma aspektlari psixika tuzilishining tizimliligi tufayli o'zaro bog'liq. Vaqtida ko'rilgan choralar rivojlanishdagi turli og'ishlarning oldini oladi. Korreksion ishning strategiyasini aniqlashda rivojlanishning tizimlilikprinsipi «yuqoridan quyiga» korreksion prinsip bilan uzbek bog'liq ekanligini ko'ramiz.

6. Faoliyatga doir korreksiya tamoyili -psixokorreksion yondashuvda shaxsning psixik rivojlanishidagi muammolarni faoliyat jarayonida bartaraf etish zarurligini ifodalaydi. Bu tamoyilning asosiy g'oyasi shundan iboratki, inson psixikasining shakllanishi va rivojlanishi bevosita faoliyat bilan bog'liq bo'ladi. Faoliyatga doir korreksiya tamoyili quyidagi g'oyalarga asoslanadi. Psixik rivojlanish faoliyatda ro'y beradi va insonning aqliy, emotsiyal va ijtimoiy rivojlanishi uning qanday faoliyat bilan shug'ullanishiga bog'liqdir. Masalan, bola o'yin orqali, o'quvchi o'qish orqali, katta yoshdagi inson mehna t yoki ijtimoiy faoliyat orqali rivojlanadi

12.2. Psixokorreksion jarayon qoidalari

Amaliy psixolog – bu nafaqat o'z kasbini puxta bilgan mutaxassis, balki inson qalbini his eta oladigan, har bir shaxsning ichki dunyosiga hurmat bilan qaraydigan nozik tuyg'uli shaxsdir. Bugungi kunda ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan amaliy psixologlar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Kelajakda ularning roli yanada oshishi tabiiy, chunki zamonaviy jamiyat shaxsga qaratilgan yondashuvga tobora ko'proq e'tibor bermoqda. Ular o'z faoliyatlarini ta'lim tizimining barcha muassasalarida: bolalar uylarida va bolalar bog'chasida, umumta'lim maktab va intematlarda, litseylar va maxsus makkablardarda, gimnaziyalar va kollejlarda va xususiy maktablarda, reabilitatsiya, korreksiya rivojlanish, tibbiy psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish markazlarida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Amaliy psixolog qayerda ishlamasin doim ta'kidlab kelganimizdek, jamiyatda turli haqhuquqli, turli yoshdagi, har biri alohida individual, noyob shaxs xususiyatlariga ega va o'ziga xos fe'l-atvorli insonlar bilan ish olib boradilar.

Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar – bu amaliy psixologning asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri bo'lib, ular turli shakl, holat va vaziyatlarda tashkil etiladi. Ushbu ishlar o'z mazmuni va maqsadiga ko'ra bir nechta ko'rinishda amalgalashiriladi:

A) Individual rivojlantiruvchi va korreksion ishlar-bu shakl psixologning alohida bolalar, o'quvchilar yoki talabalar bilan olib boradigan shaxsiy ishlarini nazarda tutadi. Quyidagicha tavsiflanadi:

- ✓ shaxsiy muammolarni bartaraf etish,
- ✓ psixik rivojlanishdagi orqaga qolishni tuzatish,

- ✓ xulq-atvor buzilishlari yoki ijtimoiy moslashuvda qiynalayotgan bolalar bilan ishlash.

B) Guruh bilan amalga oshiriladigan rivojlantiruvchi va tarbiyaviy ishlari-bu shaklda psixolog kichik yoki katta guruh bolalar, o'quvchilar yoki talabalar bilan mashg'ulotlar o'tkazadi. Maqsad – guruhdagi ishtirokchilarning:

- ✓ ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish,
- ✓ bir-biriga bo'lgan munosabatlarini yaxshilash,
- ✓ kommunikativ va emotsiyal intellektini oshirish,
- ✓ ijobiy muhit yaratish va stressga bardoshlilikni kuchaytirishdir.

V) Ota-onalar va pedagogik jamoa ishtirokidagi tadbirlar -bu ko'rinishdagi ishlar kengaytirilgan auditoriyada o'tkaziladi.

- ✓ ota-onalar,
- ✓ sinf rahbarlari
- ✓ o'qituvchilar va boshqa pedagogik xodimlar ishtirok etad

Korreksion ishning texnikasi vausullarining tanlanishi uning maqsadlari bilan belgilanadi. Maqsadlarni konkretlashtirishda quyidagi qoidalarni hisobga olish lozim:

1. Korreksiya maqsadlari negativ emas, pozitiv shaklda tuzilishi kerak. Maqsadlar inkor so'zları bilan tuzilmasligi shart, ularning ta'qiqlovchi harakterga ega bo'lishi mijozning rivojlanish imkoniyatlarini, tashabbuslarini chegaralab qo'yishi mumkin. Korreksiya maqsadlarini aniqlashning negativ shakli bartaraf etilishi lozim bo'lgan xulq-atvor xususiyatlar tavsifidan iborat. Korreksion muddaolarning pozitiv shakli mijozda shakllanishi kerak bo'lgan xususiyatlarni o'z ichiga oladi.
2. Korreksiya maqsadlari real tuzilishi kerak. Agar maqsadlar real holatdan uzoq bo'lsa, unda psixokorreksion dastur foydadan ko'ra ko'proq zarar keltirishi mumkin.
3. Umumiy maqsadlar qo'yilganda, shaxs taraqqiyotining yaqin va olis istiqbolini hisobga olinishi kerak. Shaxsning, nafaqat korreksiya tugagan vaqtidagi ko'rsatkichlarini, balki keyinroq ro'y beradigan rivojlanish bosqichlaridagi o'zgarishlarni ham kamrab olishi kerak.
4. Korreksion ishning samarasi ancha uzoq vaqt davomida namoyon bo'lishini yodda tutish lozim. Korreksion ish jarayonida tahminan yarim yil o'tgandan keyin, korreksion ishning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizligi haqida gapirish mumkin.

12.3.Psixoterapiya va undagi asosiy yo'nalishlar

Psixoterapiya (psyche - ruh, therapia- davolash, himoya) – psixologik vositalar yordamida maqsadli organizmni buzulishlarini to'g'rilash. **Psixoterapiya** – personallashgan texnika, idrok jarayonlari bilan bog'langan xolda insonlarning insonlar bilan yuzaga keladigan ichki kelishmovchiliklarni bartaraf qilish va uni shu kabi vaziyatlarga munosabatini to'grilash hisoblanadi.

“Psixoterapiya” terminini XIX asr oxirida ingliz vrachi Deniel Kak Tyuk “Ongning tanaga ta’siri ko‘rinishi” kitobida qo’llagan, kitobning bir bobi “Psixoterapiya” deb nomlangan edi. Psixoterapiya usuli Evropada ilk bora venalik shifokor va olim Mesmer tomonidan keng qo’llanib boshlangan. Tibbiyotda bemorlarni davolashda gipnoz usuli J.Sharko, J.Bred, Z.Freyd, V.M.Bexterevlar tomonidan keng qo’llanilgan. Psixoterpiyaning turli modelini farqlsh mumkin. Jumladan:

Psixologik model - psixoterapiya turi shaxs buzilishlarida qo’llanadi. Tarbiyaviy ahamiyatga ega shaxs maqsadlariga qaratilgan. Asosan psixolog va shifokor olib boradi.

Pedagogik model – psixoterapiya turi pedagog va psixologlar tomonidan olib boriladi va o‘quvchilarga tarbiya, qayta tarbiya, o‘quv jarayonini kuchaytirish maqsadida qo’llanadi.

Falsafiy model- psixoterapiya dunyoqarashni shakllantirish, hayot mazmuni, o‘z shaxsni anglashni, hayotda o‘z o‘rnini topishga qaratilgan. Psixoanalitik yo‘nalish va ekzistensial-gumanistik yo‘nalishlar qo’llaniladi. Psixolog va faylasuflar qatnashadi.

Nodifferensialashgan (eklektik) model- turli modellarning elementlari mavjud bo‘lib, keng qamrovli amaliyotlarda qo’llaniladi. Psixoterapevtlar va psixolog, sotsiologlar qatnashadilar.

Hozirgi vaqtida psixoterapiyada psixologiyaning asosiy yo‘nalishlari talablariga asoslangan bir qator yo‘nalishlar mavjud:

- ◆ Psixologiyada kognitiv yondashuvga asoslangan - kognitiv psixoterapiya;
- ◆ Bixevoirizm psixologiyasiga asoslangan - xulq-atvor psixoterapiyasi;
- ◆ Kognitiv psixoterapiyaga yaqin, shuningdek, xulq-atvor jihatlaridan foydalangan holda, A.Ellisning ratsional-emotiv terapiyasi;
- ◆ Psixoanalizga asoslangan - dinamik;
- ◆ Gumanistik psixologiya bilan bog’liq gumanistik (mijozga yo’naltirilgan psixoterapiya - K. Rojers, suhbat psixoterapiyasi, somatik yondashuv, ma’naviy yondashuv);
- ◆ Ekzistensial terapiya - ekzistensial falsafa g’oyalarini psixologiya va psixoterapiyaga tatbiq etish, bemorni o‘z hayotini tushunishga, uning hayotiy qadriyatlarini anglashga va ular asosida hayot yo‘lini o‘zgartirishga, o‘z tanloviuchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga olishga qaratilgan holda shakllangan

Psixoterapiya — bu inson ruhiy holatining sog‘lom bo‘lishiga xizmat qiluvchi chuqrur, individual va nazariy asosli faoliyat turi. Har bir yo‘nalish mijozning muammosi va ehtiyojiga qarab tanlanadi.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Psixokorreksiya tushunchasini izohlang. Uning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Psixokorreksiya fani nimani o‘rganadi va qanday muammolarni hal etishga qaratilgan?

3. Psixokorreksion faoliyatning asosiy tamoyillarini sanab bering.
4. “Korreksiya va psixodiagnostika birligi” tamoyilini izohlab bering.
5. “Rivojlanish normativligi” tamoyili nimani anglatadi?
6. “Yuqoridan quyiga” va “quyidan yuqoriga” tamoyillari o‘rtasidagi farq nimada?
7. Faoliyatga doir korreksiya tamoyilining mazmunini tushuntiring.
8. Psixokorreksion jarayonda amal qilinadigan asosiy qoidalarni sanab bering.
9. Rivojlantiruvchi va korreksion ishlarning qanday shakllari mavjud?
10. Psixoterapiya va psixokorreksiya o‘rtasidagi farq nimada?
11. Psixoterapiyaning asosiy yo‘nalishlarini sanab bering

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Psixokorreksiya nima?

Shaxsga kasallik tashxisini qo‘yish jarayoni

Shaxs xatti-harakatlarini jismoniy kuch bilan o‘zgartirish

Psixik rivojlanishdagi kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan faoliyat

Muammoli vaziyatlardan qochish yo‘li

2. Psixokorreksiya va psixoterapiya o‘rtasidagi asosiy farq nimada?

Psixoterapiya faqat bolalar uchun

Psixokorreksiya psixologlar, psixoterapiya esa shifokorlar tomonidan amalga oshiriladi

Psixokorreksiya dori vositalarini talab qiladi

Farq yo‘q

3. Faoliyatga doir korreksiya qanday asosga ega?

Faoliyatdan chetlashtirishga asoslanadi

Shaxs faoliyatini o‘zgartirish orqali psixik rivojlanishga ta’sir qiladi

Muammolarni inkor etishga asoslanadi

Testlar o‘tkazishga asoslanadi

4. Psixoterapiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu:

Farmakoterapiya

Diagnostika

Psixoanaliz

Test sinovi

13-MAVZU. PSIXOLOGIK YORDAMNI TASHKIL ETISHNING GURUHIY VA INDIVIDUAL SHAKLLARI.

REJA

- 13.1.Guruhiy va individual psixologik ish olib borishning qiyosiy tahlili.
- 13.2. Guruhiy ishslashning afzalliliklari va kamchiliklari.
- 13.3. Mijoz bilan individual ishslash

Tayanch so'z va iboralar: amaliy psixolog, psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixokorreksiya, guruhiy korreksiya, individual korreksiya, trening, sotsial psixologik trening

13.1. Guruhiy va individual psixologik ish olib borishning qiyosiy tahlili.

Har bir psixolog ertami-kechmi psixologik insonga yordamni qanday samaraliroq tashkil etish kerak degan savolga duch keladi, u bilan individual isholib borish kerakmi yoki uni o'quv guruhiga qo'shish zarurmi? Albatta, professional tajribalar ham tanlovga ta'sir qiladi. Biroq, ushbu muammoni hal qilish uchun psixologik yordamning guruhiy va individual shakllariga ega bo'lgan afzalliliklari va kamchiliklarini aniqlab olishga harakat qilaylik. Guruhiy terapiya bиринчи bo'lib 18-asrda Fransiyada va Venada psixiatriya zamirida rivojlanadi. Parijda F.Pinel ruhiy kasalxonadagi bemorlarni og'ir sharoitlardan kelib chiqqan holda, ruhiy kasallarni qiyinchiliklardan xalos qilishmaqsadida bir qancha bemorlarni o'z qaramog'iga oladi va ular bilan birgalikdapsixologik terapiya muolajalarini o'tkazadi

1883 yilda E.Krepelin tomonidan to'laqonli sistematik kurs joriy etiladi. Bu kurs psixik buzilishlar va nevrozlarni davolashda gipnoz o'tkazish lozimligini ta'kidlaydi. Aynan gipnoz guruh ichida o'tkazilishi natijasida ko'pgina psixik buzilishlarning davolanishi mumkinligi ta'kidlab o'tiladi

Shuningdek, bu borada J.Eskirol, amerikalik psixofiziolog R.D.Djeykobson ishlari ham e'tiborga molik. Guruhlarda trening o'tkazishga bag'ishlangan ishlar tarixi shuni ko'rsatadiki, bu boradagi ishlar dastlab aynan psixologik ma'no-mazmun kasb etmagan. Bu soha asosan psixosomatik kasalliklar bilan kasallangan bemorlar guruhini bir joyda davolashga harakatdan boshlangan.

Bunda dastlabki tadqiqotlardan biri sifatida avstriyalik psixiatr F.A.Mesmerning (1734-1815y.y) va amerikalik shifokor Djozef Prattning (1930y) olib borgan ishlarini keltirish mumkin. Ular har ikkalasiham guruhiy terapiya usulini qo'llagan holda o'z kasallarini davolashga harakat qilganlar. D.Pratt dastlab o'z bemorlarini guruhiy davolashning faqat iqtisodiy jihatdan foydaliligini anglagan xolos, u guruhda ish olib borishning psixologik jihatlariga e'tibor ham bermagan. Lekin asta-sekin u shu narsaga amin

bo‘lganki, psixoterapiyada asosiy holat – guruhiy o‘zaro ta’sirdir. Ya’ni, Pratt guruhdagi kishilarning bir-biriga ijobiy ta’siri ularning kasallikdan sog‘ayishlariga ham katta ta’sir ko‘rsatayotganligini kuzatgan. 1930 yilda u shunga ishonch hosil qildiki, psixoterapiyada asosiy rol jamoaga tegishli va unda insonlarning bir – biriga ta’siri kuchli bo‘ladi. Pratt insonlar uchun guruhiy davolash metodikasini ishlab chiqdi. D.Prattning tadqiqoti guruhiy terapiyada dastlabki qadam bo‘lgan bo‘lsa, bu sohada ikkinchi qadam sifatida Freydning psixoanaliz nazariyasini davom ettiruvchilaran biri bo‘lgan – Trigant Barrouning ishlarini tahlil qilish mumkin. T.Barrou 1925 yoldayoq guruhiy tahlil atamasini kiritgan, bunda u kishilarni tushunish uchun ular bilan birga bo‘lgan ijtimoiy guruhlarni o‘rganish lozimligini qayd etgan. Guruhiy terapiya haqida gap ketganda Y.Morenoning ishlarini ham gapiribo‘tish lozimki, o‘z vaqtida u ham bu sohada ahamiyati ishlarni amalga oshirgan. U guruhiy terapiyada asosiy bo‘lgan psixodrammaning asoschisi hisoblanadi.

Y.Moreno 1932 yilda guruhiy psixoterapiya atamasini fanga kiritdi. Guruh bu ijtimoiy yaxlitlikdan ma’lum belgilariga ko‘ra (faoliyat xarakteri, ijtimoiy mavqeい, rivojlanish darajasi va b.q.) ajratib olingan, chegaralangan hajmga ega kishilar jamoasidir.

- Guruhalr ko‘pincha quyidagicha klassifikatsiyalanadi:
- Hajmiga ko‘ra: katta, kichik, mikroguruhalr;
- Ijtimoiy mavqeiga ko‘ra: rasmiy - norasmiy;
- O‘zaro bog‘liqlik hususiyatlariga ko‘ra: real, kontaktli shartli
- Rivojlanish darajasiga ko‘ra: past daraja, assotsiasiylar, korporatsiyalar, diffuz va yuqori darajali: jamoalar;
- Ahamiyatligiga ko‘ra (referent, azolik guruhlar);

Ajratilgan belgilarni har bir konkret guruhni faoliyatdagi maqsad va vazifalarini o‘ziga xosligini belgilab beradi.

13.2. Guruhiy ishlashning afzalliklari va kamchiliklari.

Guruhiy va Individual psixologik ish olib borishning qiyosiy tahlili

Tahlil mezonи	Individual ish	Guruhiy ish
Yondashuv turi	Shaxsga yo‘naltirilgan, chuqur yondashuv	O‘zaro ta’sir va ijtimoiy o‘rganish asosida
Maqsadga yo‘naltirilganlik	Mijozning individual muammolarini hal qilishga qaratilgan	Umumiy muammolar yoki mavzular asosida guruh a’zolarining rivojlanishiga yo‘naltirilgan
Ish vaqtি	Psixolog va mijoz o‘rtasidagi individual jadvalga mos	Beglilanlangan guruh jadvaliga bog‘liq

Samaradorlik	Shaxsiy muammo va hissiyotlarga chuqur ishlov berish imkoniyati	Tajriba almashish, o‘zaro fikr va hissiy qo‘llab-quvvatlash orqali ta’sir
Xavfsizlik va maxfiylik	Yuqori darajada ta’milnadi	Nisbatan past, ishtirokchilarning sir saqlashga rioya qilmasligi ehtimoli bor
Moslashuvchanlik	Mijoz holatiga ko‘ra moslashtiriladi	Har doim barcha ishtirokchilarning ehtiyojlariga moslashish qiyin
Qamrab olish	Bitta mijoz bilan ishlanadi	Bir nechta ishtirokchini qamrab oladi (ko‘p sonli ta’sir imkoniyati)
Muloqot ko‘nikmalari	Mijozning individual muloqotini rivojlantiradi	Guruhan bilan muloqotda bo‘lish, empatiya, tinglash va ijtimoiy ko‘nikmalarni kuchaytiradi
Narxi va resurslar	Ko‘proq vaqt va individual resurslarni talab qiladi	Resurs tejamkor, ko‘proq inson bilan bir vaqtning o‘zida ishslash imkoniyati mavjud
Tashkiliy murakkablik	Oddiy – faqat bitta mijozni qamrab oladi	Murakkab – guruhan tarkibini shakllantirish, dinamikani boshqarish zarur

Psixokorreksion guruh - o‘z-o‘zini tahlil qilish, shaxsiy ko‘nikmalarni hosil qilish, shaxslararo munosabatlarni tahlil qilish maqsadida sun’iy birlashgan kichik guruhlarga aytildi. Bu o‘zaro ta’sir shu yerda va hozir tamoyili asosida guruhan azolari o‘zlari bilan yuz berayotgan jarayonlarni o‘rganadilar.

Psixokorreksion guruh faoliyatining asosiy tamoyillari:

1. Mas’uliyatlilik tamoyili (o‘zi uchun va boshqalar uchun);
2. Yaqinlik (to‘la ochiqlikni talab qilmasada, samimiylilik, empatiya va sirni saqlashga asoslanadi);
3. Qullab quvvatlash tamoyili (psixolog xamda gurux a’zolarini bir birini qullab quvvatlashi);
4. Kongruentlik tamoyili (“shu yerda va hozir” vaziyatida har bir guruhan a’zosi o‘z-o‘zi va boshqalar bilan yakdilligi

Guruhiy psixokorreksiya ochiq va yopiq guruhlarda o‘tkaziladi. Katta guruhlar - 25-30 kishi va kichik guruhlar – 5- 8-12 kishidan iborat bo‘ladi. Yopiq guruhlarda

guruh a'zolari soni doimiy bo'lsa, ochiq guruhlarda o'zgarib turishi mumkin. Guruhga og'ir jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan, ruhiy sog'lig'i buzilgan, guruhda ishslashni istamagan, yaqin qarindoshlarni, xizmat doirasida bir-biriga tobe bo'lganlarni, bir-biriga o'ta adovatlikishilarni qabul qilish mumkin emas

13.3.Mijoz bilan individual ishslash

Individual ishslash – bu amaliy psixologik faoliyatning asosiy shakllaridan biri bo'lib, alohida bir shaxs bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot orqali uning psixologik holatini tahlil qilish, muammolarini aniqlash va yordam berishga qaratilgan jarayondir.

Individual psixokorreksiyani o'tkazish shartlari:

- 1) mijozning psixologik yordam olish uchun ixtiyoriy roziligi;
- 2) mijozni mutaxassisga ishonchi;
- 3) mijozni tadqiq qilish jarayonida, korreksion dasturni shakllantirish va uni amalga oshirilishida mijoz faolligi

Individual psixokorreksiyaning samaradorligi quyidagilar bilan aniqlanadi:

- 1) psixologning shaxs sifatidagi xususiyatlari (ijtimoiy kelib chiqishi, jozibadorligi, intellektual rivojlanishi, iroda, xarakter xususiyatlari);
- 2) mijoz va psixolog o'rtasida shakllangan munosabat (ishonch, mutaxassisning obro' qozongani, mijozni mutaxassisga tobeligi);
- 3) mijozga nisbatan psixolog tanlagan vaziyatning mosligi (psixologning tutgan yo'li, psixologni mijozga bo'lgan munosabatida qabul qilgan boshqarish strategiyasi);
- 4) mutaxasis tomonidan malumotlarni shakllantirish, usullari (isbotlash darajasi, mantiq, xis tuygularga qayta yondashuv)

Individual psixokorreksiyaga ko'rsatma:

- 1) mijozning xohishi;
- 2) mijozning muammoli xarakteri (shaxsiy muammosi)
- 3) mijozni guruhda ishslashdan bosh tortishi yoki ba'zi sabablarga ko'ra guruhda qatnasha olmasligi (jismoniy holati, kasallik);
- 4) mijoz xavotirining yuqori darajasi;
- 5) keskin qayg'uli holat

Individual psixokorreksiyaga qarshi ko'rsatma:

- 1) yaqqol ifodalangan qo'zgaluvchanlik;
- 2) ongingin pastligi;
- 3) axloq – odob meyorlarining pastligi.

O'zini-o'zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Psixologik yordamning asosiy shakllari nimalardan iborat?
2. Individual psixologik yordam nima va uning asosiy maqsadi nima?
3. Guruhiy psixologik ishslash qanday holatlarda qo'llaniladi?
4. Guruhiy va individual psixologik ishslash o'rtasidagi farqlarni sanab bering.
5. Individual ishslashda psixologning asosiy roli nimadan iborat?

6. Guruhiy ishlashda liderlik va rollar qanday aniqlanadi?
7. Guruh a'zolari o'rtasida ijtimoiy-psixologik muhit qanday ta'sir ko'rsatadi?
8. Individual ishlashda ishonchli aloqa qanday shakllantiriladi?
9. Guruhiy terapiya qanday vaziyatlarda eng samarali hisoblanadi?
10. Individual ishlashda foydalilanligi psixodiagnostik metodlar haqida gapirib bering.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1.Individual psixologik yordamning asosiy maqsadi nima?

Guruhn ni boshqarish

Muammolarni umumlashtirish

Mijozga shaxsiy yondashuv orqali yordam ko'rsatish

Guruh muhitini tahlil qilish

2.Guruhiy psixologik ishslash qaysi holatlarda afzallik beradi?

Ichki inqirozlarni chuqur hal qilishda

O'xshash muammolarga ega shaxslar bilan ishlashda

Diagnostika uchun

Shaxsiy maslahatlarda

3.Psixolog mijoz bilan individual ishlaganda nimalarga alohida e'tibor qaratadi?

Jamoaviy faoliyatga

Shaxsiy xususiyatlar va muammoning individual sababi

Guruhdagi roli

Boshqaruv qobiliyatiga

4.Guruhiy psixoterapiya jarayonida qatnashchilarning bir-biriga bo'lgan ta'siri qanday nomlanadi?

Individual maslahat

O'zaro aloqadorlik effekti

Interventsiya

Guruh dinamikasi

5.Individual psixologik yordamning afzalligi nimada?

Vaqt tejashda

Maxfiylik va chuqur yondashuvda

Ko'p kishiga xizmat ko'rsatishda

Tez natijaga erishishda

14-MAVZU. PROFESSIONAL PSIXOLOG RIVOJLANISHI MASALALARI

REJA

- 14.1. . Professional psixolog faoliyatining o‘ziga xos jihatlari
- 14.2. Kasbda shaxs rivojlanishi haqida umumiy tushuncha
- 14.3. Professional va havaskor psixolog o‘rtasidagi prinsipial farqlar

Tayanch so’z va iboralar: aholiga psixologik xizmat, psixologik ta’lim, psixologik tadqiqot, psixologik bilimga bo‘lgan ehtiyoj, psixologik profilaktika, psixologik maslahat, psixologik tashxis, psixologik muammo, psixologik tahlil

14.1. Professional psixolog faoliyatining o‘ziga xos jihatlari

XXI asrga kelib psixologlar faoliyati asta-sekin ijtimoiy tan olindi va natijada normativ-huquqiy asosga ega bo‘ldi. Professional psixologning faoliyati, mazmuni va faoliyat shakllarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar paydo bo‘ldi. Asta-sekin psixologlarning kasbiy tayyorgarligi tizimi shakllandi, psixologlarning professional jamiyatlari yaratildi, psixologlarning kasbiy malakasi va tajribasiga qo‘yiladigan talablar shakllantirildi. Zamonaviy psixologiya fanlarning butun tizimi va amaliy psixologik faoliyat sohalarini ikkita asosiy yo‘nalishga bo‘lish mumkin: ilmiy va amaliy psixologiya. Ular professional faoliyatning asosiy maqsadlarida sezilarli darajada farqlanadi. Psixologlar faoliyati ijtimoiy tan olindi – jamiyat psixologlarning yordamiga ehtiyoj sezdi. Normativ-huquqiy asosga ega bo‘ldi – faoliyat qonunlar asosida rasmiylashdi. Faoliyat shakllari tartibga solindi – qanday yo‘nalishlarda ishlashi aniqlashtirildi. Kasbiy tayyorgarlik tizimi shakllandi – malaka olish uchun ta’lim tizimi yaratildi. Professional jamiyatlar yaratildi – psixologlar birlashmalari tashkil topdi. Kasbiy talablar belgilandi – bilim, ko‘nikma va tajribaga doir mezonlar mavjud.

Ilmiy psixologiyaning asosiy maqsadi inson psixologiyasini ilmiy usullar bilan anglashdir. Olimlar yangi ilmiy dalillarni olishga, umumiy psixologik qonuniyatlarni izlashga intilishadi. Fundamental ilmiy psixologiya sohasida psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlari va mexanizmlari o‘rganiladi psixikaning kasbiy faoliyat va inson hayotining ayrim sohalarida ishlashiga oidamaliy tadqiqotlar olib boriladi. Amaliy psixologiyaning asosiy maqsadi - aniq insonga yoki guruhgaga psixologik yordam ko‘rsatish. Amaliy psixologlar umumiy psixologik qonuniyatlar asosida ma’lum bir shaxs yoki guruh o‘ziga xosligini tushunishga intilishadi. Ushbu tushuncha psixologik yordam ko‘rsatishning kaliti hisoblanadi. Amaliy va tadbiqiy psixologiya tushunchalari ba’zida sinonim sifatida qaraladi, garchi mohiyati jihatidan bunday bo‘lmasa. Tadbiqiy psixologiya - bu ma’lum bir sharoitlarda odamlar psixikasining tipik chizgilarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy psixologiyaning bir bo‘lagi. Ushbu tadqiqotlar darhol amaliy

amaliyotga joriy etiladi. Ularning maqsadi aqliy faoliyatni o‘rganish va amaliy tavsiyalarni shakllantirishdir. Amaliy psixologiyaning maqsadi ilmiy izlanish emas, balki bevosita psixologik yordamdir.

Amaliy psixolog faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- Psixologik targ’ibot va tashviqot
- Psixoprofilaktika
- Psixodiagnostika
- Psixologik maslahat
- Psixokorreksiya va rivojlantirish ishlari.

Har bir psixolog ertami-kechmi psixologik insonga yordamni qanday samaraliroq tashkil etish kerak degan savolga duch keladi, u bilan individual isholib borish kerakmi yoki uni o‘quv guruhiga qo’shish zarurmi? Albatta, professional tajribalar ham tanlovga ta’sir qiladi. Biroq, ushbu muammoni hal qilish uchun psixologik yordamning guruhiy va individual shakllariga ega bo’lgan afzalliklari va kamchiliklarini aniqlab olishga harakat qilaylik

14.2. Kasbda shaxs rivojlanishi haqida umumiyl tushuncha

Avvalo “kasb” o’zi nima ekanligini bilib olish lozim. E.A.Klimov “kasb” ning turli jihatlarini ko’rib chiqadi.

1.Kasb insonlarni birlashtiruvchi omildir, ya`ni bir xil muammo va bir xil hayot tarzini olib boruvchi shaxslar. Albatta mutaxassislarning turmush darjasи turlicha bo’lishi mumkin, lekin psixolog kasbi vakillarining bazaviy qadriyatlar tizimi dearli bir xil.

2.Kasb psixologning kasb faoliyatida ob`ekt va predmetni ajratib olish bilan bog`liq kuch sohasidir. Bu erda aynan psixolog o’zini qaysi faoliyat sohasida o’zini to’la namoyon qila olishi xususida gap ketmoqda. Aytish joizki psixologiya tarixi aynan ruh nima ekanligini o‘rganish, uni qaysi metodlar orqali o‘rganish va rivojlantirish mumkin ekani haqidagi fandir.

3.Kasb shaxsning o’zligini namoyon qiluvchi sohasidir. Ko’pincha kasbiy faoliyat faqatgina tovar ishlab chiqaruvchi soha emas, balki shaxsning o’z ijodiy imkoniyatlarini namoyon etuvchi soha ekanini esimizdan chiqarib qo’llaymiz.

4.Kasb tarixiy rivojlanuvchi tizim. Eng qizig`i kasb so’zi lotincha ommaviy so’zlashuv so’zidan olingan. E.A.Klimovning fikricha, “demak, kasb fenomenini negizida umumiyl va ijtimoiy psixologiyaning predmeti yashiringan”. Tabiiyki, kasb madaniy-tarixiy rivojlanish negizida o’zgarib boradi.

5. Kasb reallik sifatida sub`ekt mehnatida ijodiy shakllanadi. Bu shuni anglatadiki, madaniy tarixiy shart-sharoit mutlaq dominant emas, ko’p narsa muayyan shaxsga bog`liq. Aynan shu toifadagi shaxslar o’zlarini jamiyatdagi o’rnini o’zlari topishlari darkor. Aynan shunday psixolog borligi uchun psixologiya fani va amaliyotda rivojlanmoqda. Psixologning fandagi o’rni aynan uning fan taraqqiyotiga qo’shgan hissasi bilan belgilanadi. Psixologning o’z imkoniyatlarini amalga tatbiq etishni eng ideal varianti bu o’zi murakkab vaziyatda bo’lsa ham o’zgalar manfaati uchun xizmat qilishdadir.

“Kasb” tushunchasini boshqa tomonlarini ham ko’rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Mutaxassislik tushunchasi esa-bir muncha aniqroq sohadir. Masalan, psixolog kasbining quyidagi mutaxassisliklari bo’ladi: ijtimoiy psixolog, klinik psixolog va boshqalar. “Lavozim” yoki “mehnat joyi” yanada aniqroq tushuncha bo’lib, shaxsning muayyan muassasada aniq vazifalarni bajarish bilan belgilanadi. “Mashg`ulot” tushunchasi esa yanada kengroq bo’lib, u kasb mutaxassislik, lavozim tushunchalarini o’ziga qamrab oladi. Misol uchun yuqorida keltirilgan mutaxassislar o’smirlarning yosh psixolog taraqqiyoti muammozi hamda ota-onada munosabatlari va shaxs ijtimoiylashuvi muammolari bilan ishlovchi maktab proforentatori, qolaversa, jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy hayotida faol ishtirok etish va rivojlanishida orqada qolish bilan bog`liq muammolar bilan mashg`ul bo’ladi.

Umuman olganda kasb tushunchasi quyidagilar bilan tavsifanadi:

Bu mehnatning alohida turi bo’lib, psixologdan qator mutaxassislar bilan hamkorlik qilishini talab etadi.

Bu doimiy tayyorgarlikni talab etuvchi mehnat.

Bu bajarilgan ishga rag`bat talab etuvchi mehnat

Bu ijtimoiy foydali mehnat

Bu shaxsga jamiyatda muayyan mavqe beruvchi mehnat

“Kasb” tushunchasining mohiyatini chuqurroq anglash uchun mashhur psixolog S.M.Bogoslovskiyning fikrini keltirish joiz. Kasb –bu shunday faoliyatki, shaxs u orqali jamiyat hayotida faol ishtirok etadi va uning uchun moddiy manba vazifasini bajaradi va kasb orqali shaxs o’zini o’zi namoyon etadi. E.A.Klimovning fikriga diqqat qilamiz: kasbga borilga ushbu ta`rifda mavjud ta`riflarga qo’shimcha qinlinmagan aksincha, nimanidir tushirib qoldirilgan.

14.3. Professional va havaskor psixolog o’rtasidagi prinsipial farqlar

Bu erda gap psixologiyani ilmiy tanlash emas, balki aynan psixolog kasbini tanlash haqida ketayotgan ekan quyidagi savol o’rinlidir: “professional psixologiya”, “qiziquvchanlik psixologiyasi” dan nimasi bilan farqlanadi? Muammo shundaki “shunchaki qiziquvchi” psixologlar ham ayrim hayotiy muammolarni muvofaqiyatli hal etadilar. Ana endi savol tug`ilishi tabiiy. Masalan har bir talaba turli bosqichda o’ziga savol berishi mumkin. “Men o’zimni psixolog deb hisoblashim mumkinmi yoki yo’qmi?”. Eng qizig`i ushbu savol muayyan bir malakaga ega bo’lgan faoliyat bilan shug`ullanuvchi psixologlarga berilganda ham sanoqli shaxslargina qo’l ko’targanlar. Bu shunchaki oddiy hol emas.

Mutaxassis psixolog va shunchaki qiziquvchi psixologlarni bir-biridan farqlovchi quyidagi tamoyillarni ajratish mumkin:

1)Mutaxassisning nazariy bilimlari tizimlashtirilgan, umumlashtirilganligi qiziquvchi psixologlarda esa faqatgina umumiyl tushuncha bo’ladi. Masalan, u ko’pgina psixologiya kitoblarni o’qisa ham ko’pincha umumiyl tushuncha bilan cheklanadi. Afsuski haddan tashqari ko’p bilimlar agar tizimlashtirilmasa ushbu bilimlarning hayotiy muammolarni hal qilishda unchalik ahamiyat yo’q bo’ladi.

Hattoki, agar alohida bir muammo yuzasidan turli echimini taklif etish uchun qator bilim sohalarda ma`lumotlarga ega bo'lishni talab etadi.

2) Mutaxassis ilmiy bilim metodlaridan o'z yo'nalishida psixologgi k muammolarni hal etishda samarali foydalana oladi. Turli metodlar bilan qurollanmagan psixolog keng tizimlashtirilgan bilimlarga ega bo'lsa, ham hayotiy muammolarni hal etishda ojizdir. Bunda "muammo" mavjud lekin uni echish yo'llari yo'q vaziyat yuzaga keladi.

Soddaroq tushuntirsak, bu xuddi o'spirin yigitning o'zini kuchli ko'rsatish uchun muskullarini mashq qildiradi. Keyinchalik hayotiy tajriba shuni ko'rsatadiki, "aqlsiz kuch" faqatgina "tan soqchilar" yoxud "ikki ko'lamchilar" uchun ekanligini tushunib etadi.

Bu vaziyatni mavzu bilan bog`lasak agar psixolog "chuqur bilimlarga ega" bo'lsa-yu, uni qo'llashning ilmiy metodlarini bilmasa xuddi o'spirin yigitdek muammoni echishda bir yoqlamalik qilmoqchi bo'ladi. Mashhur pedagog S.I.Gessenning fikricha, oliy ta`limning vazifasi "shaxsni aqli qilish emas, balki uning aqlini madaniyoq, ilmiyoq, ommaviyoq bo'lishi va hayotiy muammolarni hal qilishning samarali hal etishning ilmiy metod, usullari bilan qurollantirilishi darkor".

3) Mutaxassis tomonidan ilmiy asoslangan metodika-vositalar bevosita psixodiagnostik faoliyatni olib borish uchun qo'yadi. Bu metoditkalar ilmiy, diagnostik, shakllantiruvchi maqsadlarga asoslangan bo'ladi. Metodikalar tadqiqotning amaliy ahamiyatini oshiradi. Qiziquvchi psixologlar o'ziga berilgan talantdan foydalansa mutaxassis o'z xatti-harakatini rejali, metodik asosda tashkil qiladi. Masalan tabiatan eng zerikarli qiziqarsiz psixologlar ham hattoki muayyan bir auditoriyada emotsiional-ishonchli muhit shakllantiradi yoki auditoriyada shunchaki ijobiy taassurot qoldiradi. Muayyan bir talant va qobiliyatga ega bo'limgan shaxs qandaydir qiziqarli o'yin, mashqlar orqali auditoriyani o'ziga qarata oladi. Natijada auditoriya bunday psixolog haqida: "qiziqarli shaxs" degan taassurot uyg'otadi. Albatta, "qiziquvchi psixologlar" ham turli manbalardan olingan metodikalarni o'z amaliyotida qo'llashi mumkin, biroq bu ko'pincha anglanmagan xarakterga ega bo'ladi. Mutaxassis esa har bir metodikani tanlashga ongli, ilmiy yondashadi.

4) Mutaxassis psixologning mas`uliyati katta. Agar qiziquvchi psixologlar o'z yaqinlariga yordam berishda mas`uliyatni o'z zimmasiga olsa, mutaxassis esa sekin asta mijozda mas`uliyat hissini shakllantirib boradi.

5) Psixolog-mutaxassis qator mutaxassislar bilan hamkorlik qiladi. Bu esa eng avvalo muammoga turli nuqtai nazardan yondashishi va vaziyatni boshqarishi imkonini beradi. Qiziquvchi psixologda esa bu imkoniyat mavjeud emas.

6) Psixolog-mutaxassis psixologik bilimlar bo'yicha hujjatga ega. Vaholanki, bu rasmiyatçilik unchalik muhim bo'lmasa ham ayrim mijozlar uchun ularga haqiqiy psixolog xizmat qilinyaptimi yoki yo'qmi ularning ahamiyati mavjud. Qolaversa, ko'pchilik talabalarning malakasi xususidagi diplomli mutaxassis uchun xizmat qiladi.

7) Haqiqiy mutaxassis kasbiy nazokat, axloq tamoyillariga amal qiladi.

“Qiziquvchi psixolog” larning aksariyati axloqiy nomalarga rioya etmaydi. Hattoki, mijozni muammoni o’z mustaqil al qilish huquqidan mahrum etadi. Etuk psixologning asosiy vazifasi mijozga o’z muammolarini mustaqil hal qilish ko’nikmasini shakllantirishdan iborat. Aynan mana shu jihat mijozga nisbatan hurmat ifodasidir. Antik davrda shunday fikr, naql bo’lgan: “Och bolani shunchaki to’ydirish emas, balki uning o’ziga baliq (ozuqa ma`nosida) tutishni o’rgatish lozim”.

8) Psixolog-mutaxassislarda o’z ustida ishlash, kasbiy o’sishi, intilishi, qobiliyati bo’ladi. Albatta qiziquvchi psixologlar ham turli funeda mental manbalarni mutoalaa qilish orqali o’z ustida tinimsiz ishlashi mumkin. Mutaxassis-psixolog faqatgina o’z ustida ishlashi uchun kitob mutoala qilib, turli metodikalarni ishlab chiqmay ularning tub mohiyatini tushunib etadi. Talabalarning ta`kidlashicha, muayyan bir g`oya kasbiy shakllanishga o’z ta`sirini ko’rsatadi.

9) Mutaxassis-psixologning o’z mehnat faoliyatida kasbiy psixolog ishini shakllanganlik “qiziquvchi psixolog” da esa mehnat psixogigienasi shakllanmagan bo’ladi., ya`ni haqiqiy mutaxassis, o’zining samarali mehnat faoliyatini tashkil etishi uchun joyning psixogigienasiga amal qiladi. Bu orqali u o’zining salomatligi haqida qayg`uradi. Qolaversa, ish joyining qulay, psixogigienasi faoliyat samarasini oshiradi.

10) Mutaxassis-psixolog mavjud metodika va g`oyalarga ehtiyyotkorona tanqidiy yondashadi va bazaviy tizimlashtirilgan bilimlarga asoslanadi. Bu erda gap astrologiya, xiromantiya, diyanetika haqida ketmoqda. Psixolog ushbu soha bo’yicha bilimlarga ega bo’lsa, bu uning yutug`i, ya`ni mizoj muammosini hal etishda ulardagи usullardan foydalanishni o’rgatadi

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Psixologiyaning rivojlanishiga qanday omillar ta’sir qiladi?
2. Professional psixolog sifatida faoliyat yuritishda qanday etika qoidalariga rioya qilish zarur?
3. Psixologik yordam ko’rsatish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar nimalardan iborat?
4. Psixologning professional rivojlanishida ilmiy tadqiqotlarning o’rni qanday?
5. Psixologik terapiya va konsultatsiya usullarining o’zgarishi qanday rivojlanishlarni keltirib chiqaradi?
6. Psixologik yordam ko’rsatishda muvozanatni saqlashning ahamiyati haqida nima deyish mumkin?
7. Psixolog sifatida o’zining kasbiy qobiliyatlarini qanday baholash va rivojlantirish mumkin?
8. Professional psixolog sifatida ishlashda o’zgaruvchan jamiyat talablari va muammolariga qanday javob berish kerak?
9. Psixologik yordamning samaradorligini qanday o’lchash mumkin?
10. Kasbiy rivojlanishning pishib borishi va yangilanishiga qanday yondashish zarur?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Professional psixolog sifatida qaysi kasbiy kompetensiya asosiy hisoblanadi?

Matematika bilimlari

Psixoterapiya usullari haqida bilim

Boshqa mutaxassislar bilan ishlash

Kompyuter texnologiyalari

2. Psixolog sifatida kasbiy rivojlanish uchun eng muhim qadamlardan biri qaysi?

Mijozlarga barcha yordamni to'liq ko'rsatish

Doimiy ravishda o'z-o'zini tahlil qilish va rivojlantirish

Faqatgina o'z yo'nalishida bilim olish

O'zingizni boshqarish uchun texnikalar o'rganish

3. Psixologning professional rivojlanishidagi ilmiy tadqiqotlar rolini qanday baholaysiz?

Ilmiy tadqiqotlar psixologning faqat akademik faoliyatini tashkil etadi

Ilmiy tadqiqotlar faqat nazariy bilimlarni o'rgatadi

Ilmiy tadqiqotlar psixologning kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi

Ilmiy tadqiqotlar psixologlarga yangi biznes imkoniyatlari yaratadi

4. Psixolog sifatida faoliyat yuritishda etika qoidalari nimani anglatadi?

Kasbiy malakani oshirish

Mijozning maxfiyligini saqlash

Faqat ilmiy ishlar bilan shug'ullanish

Faoliyatni faqat xususiy sektor bilan bog'lash

5. Psixologning professional rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar qaysilar?

Yangi ilmiy kashfiyotlar

Ijtimoiy ehtiyojlar

Faqatgina kasbiy bilimlar

Jismoniy mashqlar

15-MAVZU. PSIXOLOG FAOLIYATIDA PROFESSIONAL DESTRUKSİYALAR MUAMMOSI

REJA

- 15.1. Professional destruksiya tushunchasi. Professional destruksiya ko‘rinishlari
- 15.2. Psixolog kasbiy faoliyatida proffessional stagnatsiya
- 15.3. Psixologni maqsadga yo‘nalgan ta’lim va tarbiyasi masalasi

Tayanch so‘z va iboralar: aholiga psixologik xizmat, destruksiya, psixologik ta’lim, proffessional stagnatsiya, psixologik bilimga bo‘lgan ehtiyoj, psixologik profilaktika, psixologik maslahat, psixologik tashxis, psixologik muammo, psixologik tahlil

15.1. Professional destruksiya tushunchasi. Professional destruksiya ko‘rinishlari

“Professional destruksiya” tushunchasi, ayniqsa ijtimoiy psixologiya va tashkilotlar psixologiyasi sohalarida qo‘llanadigan nisbatan zamonaviy atamalardan biridir. Bu tushuncha ikki so‘zdan tashkil topgan: Professional – bu kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan. Destruksiya – bu buzilish, yemirilish, yo‘qotish degan ma’nioni bildiradi. Demak, professional destruksiya deganda, shaxsnинг o‘z kasbiy faoliyati jarayonida ruhiy, hissiy yoki ijtimoiy jihatdan yemirilishi, ya’ni kasbiy buzilish, charchash yoki tanazzulga yuz tutishi tushuniladi. Professional destruksiya sabab bo‘ladigan omillar:

- ✓ Uzoq muddatli stress (masalan, doimiy ish bosimi yoki murakkab muomala talab qilinadigan kasblar: shifokorlar, o‘qituvchilar, psixologlar va boshqalar).
- ✓ Motivatsiyaning pasayishi (inson o‘z ishining ma’nosini yo‘qota boshlaydi).
- ✓ Tashkiliy qo‘llab-quvvatlovning yetishmasligi.
- ✓ Kasbiy ijobiy fikrlarning yo‘qolishi (masalan, ishdagi muvaffaqiyatsizliklar).
- ✓ Monotonlik va takroriy vazifalar.

Professional destruksiyaning belgilariga quyidagilar kiradi:

- ✓ Ishga bo‘lgan qiziqishning yo‘qolishi.
- ✓ Doimiy charchoq va hissiy zo‘riqish.
- ✓ Kasbiy o‘z-o‘zini past baholash.
- ✓ Notinchlik (sarkazm, befarqlik, negativlik).
- ✓ Jismoniy sog‘liq muammolari (uyqusizlik, bosh og‘rig‘i, asabiylilik).

Oldini olish uchun usullari quyidagicha:

- ✓ Ish va dam olish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash.
- ✓ Emotsional salomatlikka e’tibor qaratish.

- ✓ Muloqot va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.
- ✓ Mutaxassislar bilan maslahat (psixolog, kouç va h.k.).
- ✓ Kasbiy rivojlanish, yangi maqsadlar qo'yish.

Professional destruksiya ko'rinishlari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Hissiy (emotsional) charchash-bu eng keng tarqalgan ko'rinish bo'lib, psixolog yoki boshqa kasb egasi hissiy jihatdan "hajmi to'lgan" holatga keladi. Umumiy belgilarini taxlil qilsak kuchsizlanish, asabiylik, empatiya yo'qolishi, beg'amlik nomoyon bo'ladi.

M: Maktab psixologi Zulfiya opa har kuni o'nlab o'quvchilarning muammolarini eshitadi: oilaviy zo'ravonlik, ota-onaning befarqligi, o'zini o'ldirish fikri bilan kelgan bolalar... Bir necha oy o'tgach, u o'zini doim charchagan, asabiy va bezovta his qila boshlaydi. Hatto oddiy suhbatlar ham unga yuk bo'lib tuyuladi.

2. Depersonalizatsiya (insonni shaxs sifatida qabul qilmaslik)- mutaxassis mijoz yoki hamkasbini shunchaki "ish ob'ekti" sifatida ko'ra boshlaydi. Belgilarini taxlil qilsak sovuqqonlik, rasmiy muomala, insoniylikdan yiroq yondashuvlar paydo bo'la boshlaydi.

M: Klinik psixolog Baxtiyor har kuni depressiyaga tushgan bemorlar bilan ishlaydi. Vaqt o'tib, u bemorlarning shaxsiy dardlarini jiddiy qabul qilmay, faqat standart maslahatlar beradi. Ichida esa: "Hammaga bir xil gaplar, yana bir 'tipik' holat", — deb o'laydi.

3. Kasbiy motivatsiyaning yo'qolishi - ishga bo'lgan qiziqish kamayadi, maqsadlar aniq emas, kasb ma'nosini yo'qotadi. Doim o'z-o'ziga "Men bu ishni nega qilayapman?" degan savollari ko'payadi.

M: Yosh psixolog Nodira universitetni yangi tugatib, ishga katta orzular bilan kirgan edi. Ammo amalda hujjat to'ldirish, rahbarlarning bosimi, tashkiliy muammolar va samarasizlik unga ta'sir qila boshladi. U endi ishga borishni istamaydi va: "Men bu ishda nima qilayapman o'zi?" — deb o'ziga savollar bera boshlaydi.

4. O'z-o'zini past baholash- kasbiy kompetensiyalariga nisbatan shubha tug'iladi. Shaxslarda quyidagicha belgilar xosil bo'la boshlaydi o'zini foydasiz his qilish, o'zining kasbga loyiq emasligiga ishonch hosil qilish

M: Psixolog sifatida 5 yildan beri ishlayotgan Jamshid mijozlar bilan ishlashda natija bo'lмаганини ko'rib, o'zini "yaroqsiz", "foydasiz" deb hisoblaydi. "Boshqalar bunday muammoni hal qilar edi, men esa hech kimga foyda tegizmayapman," — deydi u

5. Ijtimoiy chekinish- Mutaxassis odamlardan, jamoaviy faoliyatdan, hatto yaqinlaridan uzoqlasha boshlaydi. Ijtimoiy izolyatsiya professional destruksiyaning jiddiy belgisi hisoblanadi.

M: Dildora psixolog sifatida boshqalar bilan muloqotda bo'lishni yoqimli deb bilgan edi. Lekin hozir u ishda ham, uyda ham hech kim bilan gaplashishni

xohlamaydi. U do'stlari bilan uchrashuvlarni rad qiladi, hatto telefon qo'ng'iroqlariga ham javob bermay qo'ygan

6.Psixosomatik muammolar-Uzoq davom etgan stress va destruksiya jismoniy kasalliklarga olib kelishi mumkin.Misollar: bosh og'rig'i, uyqusizlik, yurak urishi, ovqat hazm qilishdagi muammolar.

M: Farida doimiy stress sababli uyqusizlik, yurak urishi, orqa og'rig'i va migren bilan qiynalmoqda. Tibbiy tekshiruvlar hech qanday organik sabab topmaydi. Shifokor unga: "Sizda ehtimol, psixologik zamin bor," — deydi.

7.Ish unumdorligining pasayishi - diqqatni jamlay olmaslik, xatoliklar sonining ortishi, samaradorlikning pasayishi yuz bera boshlaydi.

M: Isroil har doim mijozlar bilan aniqlik va to'liq konspektlar yuritib ishlagan psixolog edi. Lekin oxirgi paytda u mijozlar bilan bo'lgan seanslarda diqqatini jamlay olmaydi, eslatmalarni unutadi, va ish haqiqligida samarasiz bo'lib qoladi

8.Agressivlik yoki befarqlik-ba'zida destruksiya passiv emas, balki faol ko'rinishda – ya'ni tajovuzkorlik, tez asabiylashish, tez javoblar orqali namoyon bo'ladi. Yoki, mutlaqo befarqlik holatida – "baribir" munosabati orqali ifodalanadi

M: Psixolog Xilola bir mijozining shikoyatidan so'ng, asabiy ohangda: "Siz har safar bir xil gapni takrorlaysiz. Hech narsa o'zgarmayapti-ku!" — deb yuboradi. Bu—destruksiyaning aggressiv ko'rinishi. Yoki: mijoz bir muammoni aytadi, u esa beparvolik bilan: "Yaxshi, vaqt tugadi," — deb javob beradi. Bu — befarqlik orqali namoyon bo'lgan destruksiya.

15.2.Psixolog kasbiy faoliyatida proffessional stagnatsiya

Psixologiyada "shaxsiy stagnatsiya" tushunchasi qo'llaniladi, bu hayotda paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni yengib o'tolmaydigan, hayotga munosabatini o'zgartira olmaydigan va yangi maqsadlar qo'yadigan odamning shaxsiy o'sishidagi turg'unlik, qotib qolganlikni anglatadi. Kasbiy faoliyat ko'rsatkichlari darajasi jihatidan ancha farq qilishi mumkin va hattoki uning yuqori darajasi ham bo'lishi mumkin, ammo bir yo'l bilan amalga oshiriladi, stereotipik va bir xil ravishda kasbiy stagnatsiyani namoyon bo'lishiga olib keladi. Shaxsning kasbiy rivojlanishidagi inqirozlar kasbiy deformatsiyalar shakllanishiga olib keladi. Agar ushbu inqirozdan chiqish yo'li samarali bo'lmasa, unda kasbiy yo'nalish buziladi va kasbiy faoliyat kamayadi. Shunday qilib, ushbu o'zgarishlar kasbiy deformatsiyalarini shakllantirish jarayonini kuchaytiradi

Hozirgi kunda shaxsga sub'ektiv munosabat muammosini ijtimoiy jihatdan turmushda qaror toptirish uchun:

- odam- inson- shaxs-individuallik- sub'ektkomillik ierarxiyasiga rioya qilish; -shaxsga sub'ektiv munosabat, yani unda robotsifatida barcha xususiyatlarini bir tekis shakllantirish mumkin, degan xato nazariyadan voz kechish, "sub'ekt-sub'ekt" aloqasini vujudga keltirish;

- har qanday sub'ekt-shaxs, lekin har qaysi shaxs sub'ekt emasligimuammosini yechish;
- -shaxs sub'ekt bo'lishi uchun mustaqillik, shaxsiy pozisiya, dunyoqarash vaularni hayotga tatbiq qilish imkoniyati mavjudligini tan olish" kabi muammolarning bartaraf etilishi shaxsning ijtimoiy munosabatlari majmuasini kamol toptirishga xizmat qilishi tayin. Zero, inson munosabatlari uning xulq -atvorida ichki dunyosining shakllanishida, barcha psixologik jarayonlarida muhimboshqaruvchilik rolini o'ynaydi. (V.N. Myasishev-1957).

Bunday boshqaruvchilikning yuksak ijtimoiy saviyada tarkib toptirilishi esa insonning hayotdagi ayrim muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan psixologik himoyalanish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Demak, munosabat psixologiyasi bo'yichaqayd etilgan yuqoridagi mulohazalarning o'ziga xos metodologik asoslari (tadqiqotlar)."Munosabatlар tizimini" psixologik xizmat jarayonida jiddiyo'rghanish va uni har bir shaxsda takomillashtirish lozim bo'lган ijtimoiy psixologik muxofaza omili (ko'rsatkichlari) sifatida amaliy jihatdan tadqiq qilishgada'vat etadi. Psixologik xizmat jarayoni bilan bog'liq shaxs muvaffaqiyatli faoliyatining 2-yo'nalishiga individual-tipologik xususiyatlarga asoslangan harakatlarning namoyon bo'lishi kiradi. Chunki, har bir inson u yoki bu ijtimoiytopshiriqni bajarar ekan, avvalo ushbu topshiriqni qanchalik tez, oson va sifatliqilib bajarish imkoniyatiga ega bo'lsagina mazkur topshiriq shaxs kamolotiga xizmat qila olishi mumkin. Mazkur yo'nalishdagi psixologik muhofazaningmohiyati shundaki, har bir shaxsning faoliyatga nisbatan keragidan bir nechabarobar ortiq kuch sarflashga va osongina turli muvaffaqiyatsizliklarga uchramaslikka qarshi o'laroq shaxs istiqbolini ko'zlashga qaratilgan tadqiqotlar va tadbirlar ko'لامи oldindan belgilanadi. amaliy jarayon bilan bog'liq shaxs muvaffaqiyatli faoliyatining uchinchi yo'nalishi esa faoliyatga nisbatan faol ijobiy munosabatning tarkib topishi va namoyon bo'lishidir. Bunda shaxsning faoliyatdan qoniqishi, xulq-atvoridagi motivatsion tizimning ijtimoiy qimmatga ega bo'lganboshqaruvchilikka taalluqli sifatlarini yaqqol namoyon bo'lishi kuzatiladi. Zero, har jihatdan ijtimoiy faollikkha xizmat qiluvchi sifatlar namoyon etilmagan joyda shaxs va jamiyat uyg'unligining ta'minlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchibarcha imkoniyatlar qo'ldan boy beriladi. Vaholangki, bunday "imkoniyatlar"nihamisha "muhofaza" qilish nafaqat ijtimoiy tashkilotlarning, balki har birfuqaroning muqaddas burchidir.

15.3 Psixologni maqsadga yo'nalan ta'lim va tarbiyasi masalasi

Psixolog – murakkab kasbiy faoliyat sohasida ish olib boruvchi aqlli, hayrihoh, o`ziga maftun etuvchi inson.

Psixologik xizmatni amaliyotchi psixologlar olib boradilar. Ular o`z faoliyatlarini turli muassasalarda amalga oshiradilar. Psixolog qaerda ishlamasin, u turli yoshdagi, turli ijtimoiy mavqega ega, lekin shu bilan bir vaqtida o`z

individualliga ega bo`lgan qaytarilmas xususiyat va shaxs sifatlariga ega insonlar bilan ishlaydi².

Biroq psixolog ham inson. Uning individualligi qanchalik yorqin namoyon bo`lsa, uning kasbiy mahorati ham shunchalik yuqori.

Amaliy psixolog faoliyatini tushunish va baholash ham murakkab. Psixologiyadan uzoq bo`lgan odam psixolog faoliyatini tashqi hamda muhim bo`limgan ko`rsatkichlar:

- Tadqiq qilingan mijozlar miqdori;
- Berilgan tavsiyalar;
- O`tkazilgan konsultatsiyalar;

Turli xil tadbirlar va ulardagи chiqishlarga qarab baholydilar Bularning barchasi juda muhim va zarur. Biroq bunda eng muhim jihat – psixolog faoliyati muloqoti natijasida mijozda yuzaga keladigan o`zgarishlar va ular qanday yuzaga kelishi masalasi diqqat markazidan chetda qoladi, deb ta`kidlaydi (I.V.Dubrovina)

Psixologlar kasbiy faoliyati mazmuni, uning shakl va amalga oshirish metodlari masalasini tushunishga turli qarashlar kuzatiladi. Bu nima bilan bog`liq?

Birinchidan, bu psixologlarni kasbiy tayyorlash bilan bog`liq. Hozirgi kunda I.V.Dubrovina fikriga ko`ra, psixologlarni psixologik tayyorlash tartibga solinmagan, uning vazmuni va darajasi ta`lim qaerda olib borilishi va ularni kimlar o`qitishiga qarab farqlanadi. Kabiylaytayyorgarlikning mohiyati va murakkabligi shundaki, mutaxassis sifatida psixolog chuqur bilimlarga ega bo`libgina qolmay, insonning real hayotiga ham bilimdonlik bilan mo`ljal ola bilishi ham kerak.

Ikkinchidan, bu – psixolog umumiy taraqqiyotining darajasi va yo`nalganligi, uning shaxsi xususiyatlari, ijtimoiy hayotga qanchalik qo`shilganligi, turli madaniyat xususiyatlarini hisobga olish qobiliyatlariga bog`liq.

Uchinchidan, bu – psixolog faoliyat yuritadigan muassasalarning o`ziga xosligi bilan bog`liq bo`lib, ularning har biri psixolog faoliyatiga turlicha talablar qo`yadi To`rtinchidan, bu – psixolog shaxsiy hayotining xususiyatlari: shaxsiy hayotining farovonligi; yaqinlari bilan o`zaro munosabatlari, moddiy ta`minlanganligi va zarur turmush sharoitlarining mavjudligiga bog`liq. Uning ma`suliysi juda yuqori, lekin doim ham himoyalangan emas.

Shunga qaramay, yani ish va hayot sharoitlarining turlicha bo`lishi; mutaxassislarning individual shaxs xususiyatlariga qaramay, psixologlik kasbi muhim kasbiy va ahloqiy jihatdan qadrlanadigan kasb hisoblanadi³.

O`zining faoliyatiga ko`ra psixolog boshqalar o`rtasidagi nizolarni hal qilishda arbitr va ular yo`l qoygan xatolarni

korrektsiya qiluvchi rolini bajaradi. Bu esa psixologning shaxsiy sifatlariga hamda o`z kasbiy faoliyatining ahloqiy mazmunini tushunishga yuqori talablar qo`yadi.

² И.В.Дубровина Практическая психология образования.Санкт-Петербург,2004,93-бет.

³ И.В.Дубровина Практическая психология образования.Санкт-Петербург,2004,167-бет.

Psixologik xizmat har bir insonning psixik va ma`naviy rivojlanish huquqini ta`minlash hamda himoya qilishga qaratiladi. Bunda e`tabor insonni kimdandir himoya qilishga emas, balki normal taraqqiyot va farovon hayotni ta`minlashining buzilishiga qaratiladi. I.V.Dubrovinanaing yozishicha, aybdorni qidirish – psixologik jihatdan oqlanmaydi va ahloqsizlik hisoblanadi⁴.

Mijoz va psixologning o`zaro munosabatining muvaffaqiyati ko`p jihatdan psixologning pozitsiyasiga – muloqot jarayonida o`rgatuvchilik, pand-nasihatchilik toniga yo`l qo`ymasligiga bog`liq bo`ladi. Masalan, bolada yuzaga kelgan muammo pedagog yoki ota-onani ayplash uchun sabab bo`lmay, birgalikda ishslash uchun signal bo`lib xizmat qilishi kerak.

Pedagog yoki tarbiyachining har qanday muvaffaqiyati uni qo`llab-quvvatlash, maqtash bolaning murakkab muammosini hal qilishga bo`lgan qobiliyatiga ishonchni mustahkamlash uchun asos bo`lishi kerak.

Mutaxassis sifatida amaliy psixolog bir qator shaxs xususiyatlariga ega bo`lish zarur (**I.V.Dubrovina bo`yicha**). Bular:

- ❖ Qiziqishlarining kengligi hamda qarashlarining mustaqilligi.
- ❖ Aloqa o`rnatishga tayyorlik va muloqot o`rnatish malakasi.
- ❖ Boshqalarni emotsiyonal jihatdan o`ziga jalb qila olish.
- ❖ O`zini va boshqalarni bilishga intilish. Djoun Eriksonning fikriga ko`ra, inson o`zini qanchalik yaxshi bilgan sari, boshqalarga nisbatan sabr-toqatlari munosabatda bo`la oladi. Muloqot jarayonida emotsiyonal jihatdan o`zini tuta bilish qobiliyati.
- ❖ O`z kasbiy kompetentsiyasi chegaralarini anglash
- ❖ O`z harakati va so`zlariga yuksak javobgarlik hissi.
- ❖ Muayyan hatti-harakat yoki xulq-atvor qanday oqibatlarga olib kelishini oldindan ko`ra olish⁵.

Kasbning ahloqiy mohiyati juda oddiy – muammoni mijoz o`rniga o`zi hal etish emas, balki u bilan birgalikda, mijozning o`z kuchi, imkoniyati, o`ziga ishonchni mustahkamlash orqali hal qilishdir

O`zini-o`zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Psixologik faoliyatda professional destruksiya nima degani?
2. Professional destruksiyaning asosiy sabablari nimalardan iborat?
3. Professional destruksiya psixologning kasbiy sifatlariga qanday ta`sir ko`rsatadi?
4. Destruksiyaga uchragan psixolog xatti-harakatida qanday o`zgarishlar kuzatiladi?
5. Psixologning shaxsiy sifatlari professional charchoqqa qanday ta`sir qiladi?
6. Hissiy charchash va depersonalizatsiya o`rtasidagi farqlarni izohlang.
7. Professional destruksiyaning ijtimoiy va psixologik oqibatlarini muhokama qiling.

⁴ И.В.Дубровина Практическая психология образования.Санкт-Петербург,2004,94-бет.

⁵ И.В.Дубровина Практическая психология образования.Санкт-Петербург,2004,172-бет.

8. Psixologik xizmat ko‘rsatishda destruksiyaga tushmaslik uchun qanday profilaktika choralarini taklif qilasiz?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Professional destruksiya nima?

Kasbiy rivojlanish bosqichi

Ishdag'i yuqori muvaffaqiyat

Kasbiy faoliyatda ruhiy va hissiy buzilishlar

Ijtimoiy moslashuvning kuchayishi

2. Quyidagilardan qaysi biri professional destruksiyaning belgisi hisoblanadi?

Doimiy o‘zini o‘stirish

Ishdan qoniqish

Hissiy befarqlik

Yangi yondashuvlar yaratish

3. Professional destruksiyaning oldini olishda quyidagilardan qaysi biri muhim emas?

Superviziya

Haddan tashqari yuklama

Dam olish va refleksiya

Psixogigiyena

4. Depersonalizatsiya deganda nimani tushunasiz?

O‘z shaxsini to‘liq anglash

Mijozni inson sifatida qabul qilmaslik

O‘z-o‘zini qadrlash darajasining oshishi

Ijtimoiy faollikning kuchayi

16-MAVZU. PSIXOLOG FAOLIYATINI NAZORAT QILUVCHI ETIK TAMOYILLAR.

Reja;

16.1. Psixolog huquq va majburiyatlar

16.2. Psixolog faoliyatini etik muammosi, kasbiy meyorlarning o‘ziga xosligi, Psixolog kasbiy etikasining muhim tamoyillari

Tayanch so’z va iboralar: psixolog, etika, xuquq va majburiyatlar, psixologiya tarmoqlari, psixologik xizmat, psixolog faoliyati, amaliy psixolog, psixolog shaxsi, kasbiy sifatlar, psixolog majburiyatlar

16.1. Psixolog huquq va majburiyatları

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, ishlab chiqarish hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida inson omilidan to‘laqonli foydalanish, har bir shaxsning individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish masalasi psixologiya faniga va amaliy psixologlarga katta mas’uliyat yuklamoqda. O‘zbekiston psixologlari oldiga quyidagi amaliy psixologiyaga oid dolzarb **vazifalar** qo‘yilgan:

❖ **Aholi o‘rtasida psixologik savodxonlikni oshirish**

Jamiyat a’zolari, ayniqsa yoshlar, ota-onalar, ta’lim muassasasi vakillari va rahbar xodimlar o‘rtasida psixologik bilimlarni keng targ‘ib qilish, bu borada tizimli tadbirlar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish psixologlar oldidagi muhim vazifalardan biridir.

❖ **Shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash va ijtimoiy-psixologik iqlimni baholash**

Jamoadagi psixologik muhitni, ijtimoiy-psixologik iqlimni O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar hamda **etnopsixologik xususiyatlarga** mos holda chuqur tahlil qilish zarur. Bu borada ilg‘or psixodiagnostik testlar va metodikalardan foydalanish, shaxsning individual imkoniyatlarini baholash va tegishli xulosalar chiqarish muhim ahamiyatga ega.

❖ **Kadrlar tanlovi va rahbarlar psixologik tayyorgarligi**

Turli sohalarga xodimlar tanlashda ularning psixologik salohiyatini hisobga olish, ijtimoiy-psixologik tavsiyalar asosida ularni yo‘naltirishda ma’muriy organlar va tashkilotlarga amaliy ko‘mak berish kerak. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor rahbar xodimlari uchun qisqa muddatli “**ijtimoiy psixologiya**” kurslarini tashkil etish orqali ularning psixologik savodxonligini oshirish dolzarb masaladir.

❖ **Kasbiy yo‘nalish va mehnat bozoridagi psixologik yordam**

Fuqarolarning shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlariga mos kasblarni tanlashda ularni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, kasbiy yo‘naltirish ishlarini tizimli olib borish, mehnat bozorida samarali kadrlar siyosatini yuritishda psixologlar faol

ishtirok etishlari zarur. Bu orqali mehnat birjalari faoliyatining samaradorligi oshadi va ishsizlik darajasi kamayadi.

Psixologning huquqlari:

- Konkret sharoitlarni inobatga olgan holda faoliyatning boshqayo‘nalishlarini, ish metod va shakllarini mustaqil tarzda belgilash;
- Yuqori tashkilotlardan kasbiy majburiyatlarini bajarish uchun shartsharoitlar yaratishni talab qilish;
- Rahbariyatning kasbiy-axloqiy tamoillarga zid keluvchi korsatmalarini rad etish;
- Zarur hujjatlar bilan tanishish;
- Tibbiyot, huquq-tartibot va boshqa tashkilotlarga talab bilan murojaat qilish;
- Yangi metodikalar yaratish va ular samaradorligini baholashda ishtirok etish;
- Tadqiqotchilik maqsadlarida guruhiy hamda individual psixologik tekshiruv va eksperimentlar o‘tkazish.

Demak, psixolog hal qiladigan masalalar turli-tuman va ko‘p qirrali bo‘lib, bu psixologdan kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni talab qiladi. Psixolog ish faoliyati davomida muassasada, mehnat jamoasida ayrimholatlarda kishilarda uchraydigan kasbiy deformatsiyalar bilan ham ishlaydi vao‘z ish faoliyatini ham kuzatib boradi

Psixologning majburiyatları• O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi keltirilgan meyoriy-huquqiy talablarga rioya etish, “Ta`lim to‘g`risida”gi qonun, tegishli Vazirlik meyoriy hujjatlari, psixologik xizmat haqidagi nizomga amal qilish;

- Kasbiy kompetenstsiyasi doirasidan chiqmagan holda masalalarni ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish;
- Psixologiya fanininig eng so‘nggi yutuqlarini bilish, diagnostik, rivojlantiruvchi, psixokorreksion, psixoprofilaktik ishlarning zamonaviy ilmiy metodlarini qo‘llash;
- Kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lmagan nomutaxassislar tomonidan psixoprofilaktik, psixokorreksion ishlar olib borilishiga to‘sinqlik qilish;
- Barcha masalalarni hal etishda mijoz qiziqishlaridan kelib chiqish;
- “Ziyon yetkazmaslik” tamoyiliga amal qilish, ya`ni mijoz sog`ligi, nomusi, qadr-qimmatiga zarar keltirmaslik;
- Kasbiy sirni saqlay bilish, diagnostik, maslahat ishlari natijasida olingan ma’lumotlarni oshkor qilmaslik;
- Zarur hollarda mutaxassislarga diagnostik ma`lumotlar haqida axborot berish;
- Qabul qilingan shaklda barcha bajarilgan ishlarni qayd etib borish. Shuningdek, psixolog:
- Psixologik diagnozning to‘g`riliqiga, qo‘llanilgan diagnostik, rivojlantiruvchi, korreksion, psixoprofilaktik metodlarning adekvatligiga, tavsiyalarning

asosliligiga kasbiy jihatdan javobgardir.

- Tekshiruv bayonnomalari, psixologik xizmat hujjatlarini saqlash va ularni belgilangan tartibda rasmiylashtirishga mas`uldir

16.2. Psixolog faoliyatini etik muammosi, kasbiy meyorlarning o‘ziga xosligi

Amaliy psixolog statusiga ega bo‘lishni istagan insonga bir qator talablar qo‘yiladi ularning birinchisi u oliv ma’lumotli psixolog bo‘lishi zarur. Bunday diplom oliv o‘quv yurtini bitirganda yoki ikkinchi mutaxassislik orqali olinadi. Bundan tashqari amaliy psixolog albatta psixoterapiya, psixokorreksiya, patopsixologiya, defektologiya, psixologik maslahat, tibbiyot, pedagogika, sotsiologiya, huquq fanlaridan habardor bo‘lishi talab qilinadi. U albatta bolalar bilan muloqot qila olishi talab qilinadi. amaliy psixolog albatta psixologik maslahat sirlaridan habardor bo‘lishi lozim.

Etika — bu xulq-atvor me’yorlari majmuasi bo‘lib, jamiyat yoki ma’lum ijtimoiy guruhlarning axloqiy tamoyillarini ifodalaydi. Har qanday kasbiy guruh faoliyatida ish yuritishning o‘ziga xos qoidalari ishlab chiqiladi. Ana shu qoidalalar yig‘indisi kasbiy etikani tashkil etadi. Masalan, tibbiyotda shifokorlik etikasini, ilm-fanda esa ilmiy etikani ko‘rsatish mumkin. Qadimgi yunon faylasufi va tabibi Gippokrat o‘z davridayoq shifokorlar uchun axloqiy qoidalarni belgilab bergen. Bugungi kunda bu qoidalalar “Gippokrat qasamyodi” nomi bilan mashhur bo‘lib, tibbiy etikaning asosini tashkil etadi.

Psixologning kasbiy faoliyati insonning ichki dunyosi va shaxsiyati bilan ishlashni o‘z ichiga oladi. Bu esa boshqa kasblarga nisbatan o‘ziga xos, chuqr mas’uliyat va etikaning alohida qonun-qoidalariга rioya qilishni talab etadi.

Psixolog kasbiy etikasining muhim tamoyillari:

1) **Kasbiy layyoqatlilik tamoyili.** Psixolog o‘z xaq huquqini va majburiyatini, imkoniyat va chegarasini bilish kerak. U o‘zining kasbiy imkoniyatini yaxshi bilishi va ish kasbiy tayyorgarligi chegarasida faoliyat olib borishi lozim. Rivojlantiruvchi, to‘g’irlovchi, konsultativ dastur qo‘llayotganda psixolog uning nazariy asoslarini bilishi va uni olib borishning texnologiyasini uqib olishi kerak. Professional va samarali psixologik yordam tashkil etish uchun psixologkasbdoshlari va yondosh mutaxassislik vakillari ya’ni psixiatrlar, vrach psixoterapevtlar, neyropsixologlar bilan aloqa o‘rnatishi kerak. Mijozga “Yo‘q men bu savollar bilan shug’ullanmayman, boshqa mutaxassisiga murojaat qiling” degan javobni nazokat bilan yetkaza olishi, uning layyoqatlilik ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi. Shaxsiy layyoqatlilik tamoyili psixologdan faqatgina biladigan, shu savolni yechish uchun amaliy ish metodlariga ega bo‘lgan holatdagina ishga kirishishi mumkinligini talab etadi. Psixologik masalalarni yechishda psixolog nazariy ko‘rsatmalar va amaliy tajribaga suyanishi kerak

2) **Insonga zarar yetkazmaslik tamoyili** Psixolog o‘z ish faoliyatini avvalo buyurtmachining foydasidan kelib chiqqan holda olib boradi. Lekin shu bilan birga

zarar yetkazmaslik tamoyiliga amal qiladi, u yoki bu darajada amaliy tajribalarga qo'shilgan mijozlar mas'uliyat sezishi kerak. Ko'pgina psixologik jarayonlar orqaga qaytmasligini nazarda tutish kerak. Gippokrat tomondan tuzilgan bu zarar yetkazimasliketikaviy qoida nafaqat shifokorlar, balki psixologlar uchun ham juda muhim. Psixologning olib borgan psixologik tekshiruv jarayonlari insonning sog'ligiga, jamiyatdagi o'rniga, qiziqishlariga zarar yetkazmasligi lozim. Bundan tashqari, psixologik tahlil javoblaridan xabari bor insonlar ham tekshiriluvchiga zarar yetkazmasliklarini ta'minlashi zarur. Buning uchun psixolog o'z xulosalarini shakllantirib, ularni saqlanishini tartibga soladi.

3) Obyektivlik tamoyili. Psixolog har qanday insonga nisbatan boshqacha qarashga yo'l qo'ya olmaydi. Har qanday sharoitda ham obyektiv bo'lishi, boshqalar fikri ta'sirigatushmasligi kerak. Tajriba olib borilayotgan insonning yuridik va jamoatdagi o'rni, boshqalarning unga nisbatan ijobiy yoki salbiy qarashlari psixolog fikriga a'sir etmasligi kerak. Ish davomida olingen javoblar har doim ilmiy asoslangan, tekshirilgan va har tomonlama o'ylab ko'rilegan bo'lishi lozim. Psixolog bilan mijozning yaqin shaxsiy aloqalar bo'lishi qoidalarga to'g'ri kelmaydi. Psixolog chetdan, hissiyotga berilmasdan mijozning muammolariga qarab, qaror qabul qiladi

4) Mijozni hurmat qilish prinsipi. Psixolog mijozni qarashlarini hurmat qilishi, u bilan aloqada samimiyl, haqqoniyl bo'lishi talab qilinadi. Psixolog bilan muloqot davomida mijoz unga nisbatan ishonch, moyillik va qoniqish hissini sezishi kerak.

Amaliy psixolog va mijoz o'rtasida tenglikka asoslangan muloqot o'rnatilsa, bu ish jarayoni optimal olib borilayotganidan darak beradi. Mijoz o'zini psixologning to'laqonli hamkoridek sezishi kerak. Amaliy psixolog mijozning harakatlariga nisbatan baholovchi gaplar aytishdan o'zini tiyishi va unga keraksiz maslahatlar berishdan o'zini qaytarishi kerak

Buyurtmachiga psixolog tarafdan beriladigan yordam maslahat ko'rinishida bo'lishi kerak, uning kasbiy ishbilarmonligiga hurmat bilan qarab, ehtiyojkorona fikr bildirishi kerak.

5). Kasbiy konfidensiallikka rioya qilish

Psixolog psixodiagnostik metodikalarni maxfiyligini saqlay bilishi lozim. Bu shuni bildiradiki, kasbiy metodikalar professional bo'lmagan insonlar qo'liga tushmasligi kerak.

Psixolog psixodiagnostik tekshiruv natijalarini maxfiyligini saqlab, javoblarni bexos yoki atayin tarqalib ketishini oldini olish uchun xizmat qiladi. Mijoz to'g'risidagi ma'lumotlar hech qanday holatda ochiq munozaraga qo'yilishi kerak emas. Respondent, mijoz o'zining psixologik ko'rinishini bilishga qiziqishi mumkin. Bunday holatda psixolog ma'lumotning ma'lum bir qismini ko'rsatishi mumkin. G.Lessining fikriga ko'ra, "Mijozga faqat haqiqatni va faqat haqiqatni aytish kerak, lekin hammasini emas

Jahon psixologiyasi tajribalari shuni ko'rsatadiki, psixodiagnostika va psixologik testlar bilan shug'ullanishda ma'lum standartlar va kodekslarga amal

qilinadi. Ushbu standart va kodekslarga ko‘ra, psixodiagnostik metodika natijalarini sharhlash uchun psixolog mas’uldir. Agar psixodiagnostik tekshiruv natijasida tekshirilgan shaxs biror ma’naviy yoki moddiy zarar ko‘rsa, psixolog javobgar hisoblanadi. Bundan ko‘rinadiki, psixolog- psixodiagnost o‘zining kasbiy huquqiga ega. Ular kasbiy-etikaviy tamoyillarni doimo yodda tutishi va ularga amal qilishi lozim. Biz taqdim etayotgan kasbiy-etikaviy tamoyillar faqat mutaxassis-psixologlar uchungina emas, balki ta’lim muassasasi rahbari, pedagoglar uchun ham mo‘ljallangan.

Kasbiy faoliyat jarayonida psixolog kasbiy etika tamoyillariga amal qilishdan foydalanuvchi bo‘lishi zarur. Psixolog bir qator muhim talablarga rioya etishi lozim.:

1. Psixolog differential psixometriya asoslarini, shuningdek, psixologik adabiyotlarni tahlil qilish metodlarini yaxshi bilishi va amaliyotda qo‘llay olishi lozim. U umumiylazariy-metodologik tamoyillarni chuqur anglab, ularni real psixologik vaziyatlarda samarali qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.
2. Psixolog axborot-ma’lumotlar banki hamda test vositalari bankini yaratishi va ularni tizimli ravishda yuritib borishi zarur. Bu esa psixologik tahlil, diagnostika va maslahat jarayonlarida samaradorlikni oshiradi.
3. Psixodiagnostik tekshiruvlar o‘tkazuvchi psixolog, test natijalari asosida qabul qilinadigan har qanday qaror uchun mas’ul hisoblanadi. U ishlatilgan metodikaning valildigi (ya’ni o‘lchashning to‘g‘riliqi) va tashxisning yetarli darajada ishonchli bo‘lishini ta’minlashi shart. Bu jarayonda psixolog har tomonlama aniqlik, obyektivlik va ilmiy asosga tayanuvchi yondashuvga amal qilishi zarur..
4. Psixolog psixodiagnostikaning kompleks metodikasini ishlab chiqishda diagnostikaning yuqori samaradorligini asos qilib olishi zarur. Shuningdek, u tegishli sohalarda qo‘llaniladigan usullarni takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishi kerak.
5. Diagnostik ish jarayonida psixolog psixodiagnostik metodikalarni standartlashtirish talablariga qat’iy rioya etishi, olingan ma’lumotlarni to‘g‘ri qayta ishlashi va ilmiy asoslangan tarzda talqin qilishi lozim.
6. Psixolog metodik vositalardan to‘g‘ri foydalanish, psixologik axborotlarning konfidentsialligini ta’minlash hamda kasbiy yo‘nalishdagi fanlarni o‘rganish va ishlab chiqish bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy ishlar (ayniqsa, yuqori kurslarda) o‘quvchilarining umumta’lim fanlari bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlaydi, to‘ldiradi va chuqurlashtiradi.

O‘zini-o‘zi nazorat va muhokama qilish uchun savollar:

1. Psixolog kasbida etik tamoyillar nima uchun zarur?
2. Psixologik maxfiylik tamoyili qanday holatlarda buzilishi mumkin?

3. Psixolog mijoz bilan muloqotda qaysi axloqiy me'yorlarga amal qilishi kerak?
4. "Zarar yetkazmaslik" tamoyilining amaliy ahamiyatini izohlang.
5. Psixolog va mijoz o'rtasidagi ishonch qanday shakllanadi?
6. Psixolog faoliyatida yuzaga keladigan axloqiy dilemma (ikki tomonlama murakkab holat) misolini keltiring va tahlil qiling.
7. Etik kodeksning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
8. Psixologik yordamda etik me'yorlarning buzilishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
9. Psixologik etikada "avtonomiya" tushunchasi nimani anglatadi va amaliyotda qanday qo'llaniladi?

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Quyidagilardan qaysi biri psixologik etik tamoyil hisoblanadi?

Shaxsiy manfaatdorlik

Maxfiylik

Boshqaruv

Sovg'a olish

2. Psixolog mijozga zarar yetkazmaslik tamoyiliga rioya qilish orqali nimani ta'minlaydi?

Ijtimoiy faoliyotni

Professional mukofotni

Mijoz salomatligi va xavfsizligini

Shaxsiy manfaatni

3. Psixologik etik kodeksning asosiy maqsadi nima?

Psixologlarga ko'proq mijoz jalg qilish

Kasbiy faoliyatni nazorat qilish va axloqiy mezonlarni belgilash

Reklama qilish huquqini berish

Mijozilardan to'lov undirish tartibini aniqlash

4. Etik tamoyillarga ko'ra psixologning asosiy vazifasi nima?

Faqat ilmiy izlanishlar olib borish

Mijozi tanqid qilish

Mijoza kasbiy, halol va odilona yordam ko'rsatish

Mijoz shaxsiy hayotini do'stlarga aytish

5. Psixolog kimning ruxsatisiz mijozga oid ma'lumotni tarqatishi mumkin?

Mijozi qarindoshi

Sud yoki qonuniy talab mavjud bo'lsa

Jurnalistlar

O'qituvchi

GLOSSARIY

Adaptatsiya - (*lot. «adapto» - moslanmoq*) – sezgi organlari, ya’ni a’zolari (analizatorlar)ning taassurot kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o‘zgarishidan iborat bo‘lgan holatdir. Adaptatsiya hodisasida sezgirlik ortishi yoki kamayishi mumkin.

Antipatsiya - (*lot. «anticipatio» - oldindan sezish, payqash, oldindan idrok qilish, hodisa mohiyatini ochishdagi topqirlilik*) inson tomonidan faoliyat maqsadini ro‘yogga chiqarish rejasini va modelini yaratishda ifodalananadi.

Appersepsiya – idrok jarayonini shaxsning oldingi bilimlari, shaxsiy va ijtimoiy tajribalari, qiziqishlari, motivatsiyasi, ehtiyojlari va odatlari, umuman, ruhiy hayotning barcha mazmuni bilan belgilanishidir.

Aralashtirib yuborish – shaxs xavotiriga sabab bo‘lgan ob’ektga nisbatan yuzaga keluvchi hisslarni boshqa ob’ektga yo‘naltirilishini ifodalovchi himoya mexanizmi.

Attraksiya - insonni (o‘zi bilan o‘zga o‘rtasidagi munosabatda namoyon bo‘ladigan) o‘ziga mahliyo qilish, qalbni «jiz» ettiradigan, ongsizlikka taalluqli insonni inson tomonidan idrok qilish hodisasi bo‘lib, bu hodisa bir qancha manbalar, qo‘zg‘atuvchilar, motivlar ta’sirida vujudga keladi.

Affekt - (*hissiy portlash, jazava*) kishini tez chulg‘ab oladigan va shiddat bilan o‘tib ketadigan holat bo‘lib, ular ongning anchagina darajada o‘zgarganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilgan-ligi, odamning o‘zini o‘zi idrok qila olmasligi, shuningdek uning butun hayoti va faoliyati o‘zgarib qolganligi bilan ajralib turadi.

Biogenetik konsepsiya - inson shaxsining taraqqiyotini biologik omil, ya’ni nasliy omil bilan belgilaydigan yo‘nalish.

Biografiya (tarjimai hol) metodi - yordamida inson hayoti, faoliyati, ijodiyoti to‘g‘risidagi og‘zaki va yozma ma’lumotlar o‘rganiladi. Bunda kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o‘zgalar ijodiga bergen baholari, tanbehlari, taqrizlari alohida o‘rin egallaydi.

Boshqaruv psixologiyasi – jamiyatda faoliyat ko‘rsatayotgan shaxslar, guruqlar va jamoalar o‘rtasidagi ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan nazorat, baholash, munosabat qonuniyatlarini, rahbar faoliyati va xarakteri, qobiliyati xususiyatlarini tadqiq qiladigan ijtimoiy psixologiyaning sohasi.

Gallyusinatsiya - yaqqol voqelikdagi idrok va hodisalarning tana analizatorlariga bevosita ta’sir etmasdan inson ongida turli obrazlar-ning (ovozlarning eshitilishi, sharpalarning sezilishi) xayolan, fikran paydo bo‘lishidan iborat idrokning psixopatologik (ruhiy xastalik) hodisasi.

Guruh – ma’lum ijtimoiy faoliyat maqsadlar asosida to‘plangan, muloqot ehtiyojlari qondiriladigan insonlar uyushmasi bo‘lib, bunda ikkita asosiy mezon mavjud, ya’ni biror faoliyatning bo‘lishi (muloqot, o‘yin, o‘qish, mehnat) hamda u yerda odamlarning o‘zaro muloqoti uchun imkoniyatning mavjudligi kuzatiladi.

Demokratik usul – bu usulda suhbatlar, munozaralar, mulohazalar o‘zaro tenglik, o‘zaro hurmat ruhiga bo‘ysundirilib, ta’sir o‘tkazish sohalari yashiringan holda bo‘ladi.

Depressiya – bu hozirgi kunga va kelajakka ishonchsizlik bilan qarash, doimo past kayfiyatda bo‘lish, horg‘inlik, hech narsa qilishga intilmaslik va fikrlashning sustlashuvidir. Depressiya (tushkunlik) - bu siqilish, ma’yuslik va g‘amginlik kayfiyatdir.

Determinizm prinsipi - (*lot. determinata-belgilayman degan ma’noni bildiradi*) tabiat va jamiyat hodisalari, xususan, psixik hodisalarning ob’ektiv sabablar bilan belgilanishi haqidagi ta’limotdir.

Diqqat - inson his-tuyg‘usini va ongini bir nuqtaga to‘plab, muayyan bir ob’ektga faol qaratilishiga aytildi.

Diqqatsizlik – diqqatni ob’ektga yo‘naltira olmaslik va to‘play olmaslik, atrofdagi kishilarga nisbatan e’tiborsizlik yoki iltifotsizlikdan iborat shaxsning salbiy xarakter xislatidir.

Differensial psixologiya – shaxslar o‘rtasidagi tafovut va farqlarni hamda guruh a’zolari orasidagi nomutanosibliklarning psixologik jihatlarini, ya’ni psixologik farqlarini o‘rganuvchi psixologiya sohasi.

Yosh psixologiyasi – shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatlarini inson tug‘ilishidan to umrining oxirigacha bo‘lgan davrini, ya’ni ontogenezni o‘rganadigan psixologiya sohasi.

Identifikatsiya - (aynan o‘xshatish) kishi hamkorlikda harakat qilish vaziyatida sherigi o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rib, uning ichki holati, niyatları, o‘y-fikrlari, xohish-istaklari haqida taxmin qilinadi, bunda ular anglanilgan yoki anglanilmagan bo‘lishi mumkin.

Idrok - sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo‘lib, barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar, xossalalar va inson ongingin yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko‘nikmalar bir davrning o‘zida namoyon bo‘ladi va bevosita aks ettirishda ishtirok etadi.

Ijtimoiylashuv – inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash, hayot – faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib, bunda har bir shaxsning jamiyatga qo‘shilishi, uning me’yorlari, talablari, kutishlari va ta’sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko‘rsatishi va kerak bo‘lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o‘z navbatida o‘zgalarga ta’sirini o‘tkaza olishdek murakkab jarayondir.

Izolyatsiya - uyat , aybdorlik, shodlik, qayg‘u bilan bog‘liq tasavvurlar bo‘lib, shaxs ular bilan bog‘liq affektlardan uzoqlashtiriladi (ajratiladi).

Illyuziya - hissiy a’zolamizga bevosita ta’sir etib turgan narsa va hodisalarni noto‘g‘ri (noadekvat), yanglish, xato idrok qilishdan iborat jarayonning noyob hodisasi.

Ingibisiya - shaxs faoliyati samaradorligiga o‘zgalarning borligi tufayli salbiy ta’sir ko‘rsatish, masalan, ma’nosiz so‘zlarni yodlashda, labirintli masalalarni yechishda, ko‘paytirish bilan bog‘liq, murakkab arifmetik misollarni bajarishda

boshqa odamlarning aralashuvi va ularning borligi faqat fikrlash jarayoniga tormozlovchi salbiy ta'sir ko'rsatishi tushuniladi.

Intellekt - (*lot. «intellectus» – tushunish, bilish, «intellectum» – aql*) aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib boriladi. Bu intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi.

Intellekt karta - (*ing. mind maps*) taniqli ingliz psixolog, xotira va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodikalar muallifi Toni Byuzen tomonidan ishlab chiqilgan.

Intellektualizatsiya – mavhum, intellektual terminlarni muhokama qilishdan o'zini uzoqlashtirish sifatida tazyiq soluvchi emotsional tang vaziyatdan chiqib ketish uchun o'ziga xos urinishdir.

Interioreseptiv sezgilar - ichki tana a'zolari holatlarini in'ikos etuvchi hamda uning reseptorlari ichki tana a'zolarida, to'qimalarida joylashgan bo'ladi.

Interiorizatsiya - tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o'tish ro'y berishidir.

Intravertlik - timsollarga, tasavvurlarga, o'tmish hamda keljak bilan uyg'unlashgan mulohazalarga taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Iroda – shaxsning oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishidir.

Irodaviy harakatlar - oldindan ko'zlangan maqsadga erishish uchun ongli ravishda amalga oshiriladigan va rejalshtirilgan harakatlardir.

Kayfiyat – ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiyy hissiy holatni ifoda etib, u aniq bir hissiyotga aloqador bo'lmaydi.

Kauzal atributsiya - kishining o'z xatti-harakatlari sabablarini, niyatlarini, o'y-fikrlarini, xulq-atvor motivlarini boshqa kishilarga to'nkash orqali tushuntirishidir.

Kognitiv dissonans - insonni yangi bilimlarni izlashga, muammolar yechimini topishga chorlovchi hayajonlanish, ajablanish, qiziqish, hayratlanish, lol qolish, shubhalanish kabi intellektual hisslarning paydo bo'lishi.

Konformizm — shaxsning guruh yoki ko'pchilikning ta'siriga berilishini tushuntiruvchi xodisadir.

Kuzatish metodi - tabiiy metodlar jumlasiga kirib, bunda tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq-atvorini bevosita tashqaridan turib kuzatish orqali ma'lumotlar to'plash usuli bo'lsa, o'z-o'zini kuzatish esa odam o'zida kechayotgan biror o'zgarish yoki hodisani o'zi o'rghanish maqsadida ma'lumotlar to'plashdir.

Qobiliyat - shaxs faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyat-larga aytildi.

Laboratoriya eksperimenti - tekshiruvchi kishi tekshiriladigan psixik hodisani qachon kerak bo'lsa, o'sha vaqtda ataylab vujudga keltirilib, tekshirilayotgan psixik hodisa tabiiy sharoitda birgalikda sodir bo'ladigan boshqa psixik hodisalar eksperiment mobaynida o'zgartirilishi, boshqa psixik hodisalar bilan muayyan bir tarzda bog'lanishi, kuchi, tezligi, hajmi va boshqa shu kabi jihatlari o'lchab ko'riliishi mumkin.

Layoqat - qobiliyatlar taraqqiy etishining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining, sezgi a'zolari va harakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlari.

Liberal usuli - bu usul muloqot jarayonida murosasiz, ko'ngilchan bo'lish, tashqi ko'rinishdan iliq psixologik iqlimni, guruhiy moslikni o'zida aks ettirgandek tuyulsada, har qanday vaziyatni til topib hal qilishga, prinsipiallikdan uzoqlashishga, subutsizlikka olib keladi.

Lider - guruhning shunday a'zosiki, u go'yoki barcha guruhiy jarayonlarning boshida turadi va o'z xulqi, qobiliyati bilan o'zgalarga ta'sir qila oladi.

Manipulyatsiya - muloqot jarayonidagi manipulyatsiyada suhbatdoshga ta'sir ko'rsatib, uning xohishiga qarshi ravishda o'z fikriga ko'ndiriladi. Bunda biryoqlama ustunlikka erishiladi.

Maxsus psixologiya – normal psixik rivojlanmagan tug'ma yoki keyinchalik orttirilgan nuqsonlar, defektlar ta'siri ostidagi insonlarning psixologiyasini tadqiq qilish sohasi.

Mehnat psixologiyasi – insonning mehnatga munosabati, mehnat faoliyatining qonuniyatlari va rivojlanishini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi.

Mehnat faoliyati - tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo'lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishdir.

Modellashtirish metodi - kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida olingan natijalar qoniqtirmagan vaziyatda qo'llaniladi. Bunda o'rganilayotgan hodisaning umumiyligi xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Muloqot - odamlar o'rtasida birgalikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir.

Muloqot faoliyati – shaxsning individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri bo'lib, u insondagi kuchli ehtiyojlardan biri – inson bo'lish, odamlarga o'xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashti-rishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Muloqotning interaktiv jihatি - munosabatga kirishuvchilarning nutq jarayonida axborotni faqat so'zlar bilan emas, balki *xatti-harakatlar* bilan ham almashinuv nazarda tutiladi.

Muloqotning kommunikativ jihatি - muloqotda hamkorlikdagi faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayriboshlashni o'z ichiga olib, ma'lumot almashinuv sifatida ta'riflandi.

Muloqotning perceptiv jihatni - munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlari tushuniladi.

Nutq – inson til yordami bilan boshqa odamlarga o’tmish, hozirgi zamon va kelajakka oid narsalar, voqelik yuzasidan axborot, xabar, ma’lumot berishi.

Ong va faoliyat birligi tamoyili - psixologiya fanida ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi voqelik emas, ular aynan bir-biriga o’xshash ham emas, biroq ular bir butunlikni tashkil etishi bilan izohlanadi.

Ongsizlik - shunday holatki, bunda odam ixtiyorsiz tarzda, o’zi bilmasdan yoki anglamasdan turli xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Bu xatti-harakatlar avtomatik tarzda kundalik hayotda, uyquda, ya’ni tush ko’rayotganda yoki gipnotik holatlarda kuzatilib turadi. Ongsizlik, tabiiyki, ongga bog’liq bo’lmagan holat.

Oreol effekti - shaxs muloqot jarayonida o’z ob’ektiga nisbatan ijobiy taassurotga ega bo’lsa, sub’ektga ma’lum bo’lmagan fazilatlarni ijobiy baholashga yoki aksincha, ob’ekt salbiy taassurot qoldirgan bo’lsa, sub’ektga ma’lum bo’lmagan xislatlarini salbiy baholashdir.

Parapsixologiya – hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqari-dagi, tushuntirish qiyin bo’lgan ekstrosensorika – o’ta sezuvchanlik, telepatiya – fikrni masofaga uzatish, kelajakka bashorat qilish va shu kabi psixik hodisalarni o’rganadi.

Parishonlik – diqqatni ma’lum bir ob’ektga qarata olmaslikdan iborat salbiy xususiyat.

Pedagogik psixologiya – tarbiya va ta’lim muammolarini hamda shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishi, bilish faoliyatining va shaxsda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o’rganadi.

Proaksiya - individ o’zining nojioz istaklari va qilmishlarini boshqa odamga tegishli deb hisoblaydigan xavfli himoya mexanizmi hisoblanadi.

Proprioreseptiv sezgilar - tana va gavdaning holati hamda harakatlari haqida ma’lumot (axborot, xabar) beruvchi, muskullarda, bog’lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan bo’ladi.

Psixogenetik yondashish - biogenetik, sosiogenetik omillarning qiymatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotini birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydi.

Psixika - yuksak darajada tashkil topgan materianing xususiyati va miyaning mahsuli bo’lib, u borliqni sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta’sir etishi asosida vujudga kelib, bilish jarayonlarida, shaxsning xususiyati va holatlarida, diqqati, his-tuyg’ulari, xarakter xislatlarida, qiziqishi hamda ehtiyojlarida o’z ifodasini topadi.

Psixika va onging faoliyatda rivojlanishi tamoyili - psixik taraqqiyot insonning mehnat faoliyatiga, ta’limga, o’yin va muloqot faoliyatiga bog’liq ekanligini aniqlashda foydalilanildi.

Psixologik himoya – sub’ektning mavjud ijobiy holatni saqlashga yunaltirilgan jarayon va mexanizmlar tizimidir.

Psixologiya - yunoncha psychelagos so’zi “jon”, “ruh” haqidagi fan, ta’limot degan ma’noni anglatadi.

Psixofiziologiya – odamlarning individual-psixologik va psixofiziologik farqlarini tadqiq qiluvchi, psixikaning genetikasini o‘rganuvchi psixologiya sohasi.

Rad etish – individning atrofdagilar tufayli unga tahdid solayotgan kechinmalardan, ularning mavjudligidan o‘zini chetga tortish yo‘li bilan himoyalanishida namoyon bo‘ladigan himoya mexanizmi.

Rasionalizatsiya - individga o‘z muvaffaqiyatsizliklarini haqiqatga yaqinroq oqlab izohlashga imkon beradigan himoya mexanizmi sanaladi.

Reaktiv qurilma (reaksiya shakllanishi) - himoya mexanizmi bir xil impuls va hissiyotlarni cheklash, ularga qarama qarshi impuls va hissiyotlarni kuchaytirish yuli bilan xavotirlanish darajasini pasaytirishga imkon beradi.

Reaktivlik - aynan bir xil kuch bilan ta’sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsiyal reaksiya qilishiga qarab munosabat bildiriladi va uning yorqin ro‘yobga chiqishi – emotsiyonallik, ta’sirchanlikda ifodalanadi.

Reaksiya tempi – turli xususiyatlari psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechish tezligiga, binobarin, harakat tezligiga, nutq sur’atiga, farosatlilikka, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqarishdir.

Regressiya – individning stressni bartaraf qilishga urinishda bir muncha soddaroq usullardan foydalanishi. Masalan, tang vaziyatlarda bolalikka qaytishi yoki o‘zini yosh boladek tutishidir.

Repressiya (siqib chiqarish) - noxush fikrlarni ong darajasiga yetib borishiga to‘sinqilik qiladigan himoya mexanizmi. Bunda ong uchun iztirobli bo‘lgan mazmun birmuncha yengilroq narsaga ko‘chadi.

Referent guruhi - shunday odamlar guruhi, ular har bir shaxs uchun ideal insonlar bo‘ladiki, shaxs ularning niyatları, qiziqishlari, harakat normalari, g‘oya va fikrlariga ergashishga tayyor bo‘ladi, harakatlaridan andoza oladi, ularga taqlid qiladi.

Refleksiya - kishining idrok etish sub’ekti sifatida o‘ziga nisbatan sheringining munosabatini anglab yetishidir.

Ruhlanish - muayyan maqsadga, faoliyatga katta kuch va istak bilan intilishdan iborat bo‘lgan holat.

Salomatlik psixologiyasi - psixogigiena va psixoprofilaktika, turmush darajasining infratuzilmasini oshirish masalalari bilan shug‘ullanadi.

Samotizatsiya – qiyin vaziyatdan chiqib ketish uchun o‘zini bemor sifatida ko‘rsatish, yoki sog‘ligi yomonligi bilan fiksatsiya qilish tushuniladi.

Sezgi - oddiy psixik bilish jarayoni bo‘lib, moddiy qo‘zg‘atuvchilarning muayyan reseptorlarga bevosita ta’sir etishi orqali real olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini va shuning bilan birga, inson organizmining (uning a’zolarining) ichki holatlari-ni alohida-alohida aks ettirishdan iborat bilishning dastlabki bosqichidir.

Senzitivlik - (*lot. «sensus» - sezish, his qilish*) – insonda bironta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo‘lgan o‘ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi jumladan, sezgilarning paydo bo‘lishi uchun qo‘zg‘ovching ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar

qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasining (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashishi tushuniladi.

Sensibilizatsiya - analizatorlarning o‘zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezgirlikning kuchayishi.

Sinesteziya - (*yunon. «sinesteziya» - birgalikda sezish*) qo‘zg‘atuvchi-ning birin-ketin analizatorga ta’siri bilan analizatorlarga xos sezgining paydo bo‘lishi.

Sotsiogenetik konsepsiya - shaxs taraqqiyotini uning atrofidagi ijtimoiy muhitga bog‘lab tushuntiradi. Bunga ko‘ra, «*odam ijtimoiy muhit nusxasidir*».

Sotsiometrik test - kichik guruh a’zolari o‘rtasidagi bevosita emotsiyal munosabatlarni o‘rganish va ularning darajasini o‘lchashda qo‘llanilib, unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan.

Stereotiplashtirish - kishilarga, ijtimoiy guruh a’zolariga nisbatan berilgan xislatlarni hozirgacha ma’lum bo‘lgan ijtimoiy qoliplarga mos tarzda ommaviy tarzda yoyish, tavsif berish va baholashdir.

Stress - (*inglizchada stress – tazyiq ko‘rsatish, zo‘riqish degan so‘zdan olingen*) psixologik ta’rifga ko‘ra, affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomliligiga ko‘ra kayfiyatlarga yaqin bo‘lgan his-tuyg‘ular boshdan kechirilishining alohida shakli ya’ni, hissiy zo‘riqishdir

Sublimatsiya - idning impulslari ijtimoiy ma’qul faollikka yo‘naltiriladigan o‘rin almashtirish shaklidir.

So‘rov metodi - psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma’lumotlar to‘plashning an‘anaviy usullaridan biri bo‘lib, unda sinaluvchi tekshiruvchining savollariga javob berishi kerak bo‘ladi.

Tabiiy eksperiment - kuzatish va laboratoriya eksperimenti metodi o‘rtasida turadi. Tabiiy eksperimentda tekshiruvchi kishining o‘zi tekshiriladigan kishida yoki kishilarda psixik jarayon (masalan, xotira, diqqat, tasavvur) hosil qilish yoki tekshiriladigan kishilarda individual xususiyatlarni namoyon etish uchun maxsus sharoit tug‘diriladi.

Talant - (*yunon. «talanton» - qimmatbaho, noyob narsa, irsiy, tabiiy xislat*) muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta’minlaydigan qobiliyat hamda iste’dodlar majmuasi-dir.

Tafakkur - atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordamida bilvosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon bo‘lib, u ijtimoiy sababiy ichki bog‘lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir. Qachonki muammoli vaziyat paydo bo‘lganda tafakkur ishga tushadi.

Temperament (*lot. «temperamentum» - aralashma*) – shaxs faoliyati va xulqining dinamik (o‘zgaruvchan) va emotsiyal-hissiy tomonlarini xarakterlovchi, biologik shartlashgan individual xususiyatlar majmuidir.

Test metodi - (*ing. sinash, tekshirish*) biror o‘rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, hamda ularni ko‘pchilikda qayta-qayta sinash va ma’lumotlarni korrelyatsion analiz orqali ishonchlilikni tekshirishda ham ishlataladi.

Tibbiyot psixologiyasi – bemorlarning davolanishi, gigiena, profilaktika, diagnostika jihatlarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi bo‘lib, unda tadqiqotlar

tizimiga kasalliklarning kechishi, ularning shaxs psixologiyasiga ta'siri qonuniyatlar, insonning kasallikdan sog'ayishiga mikroijtimoiy guruh ta'siri o'rGANILADI.

O'yin faoliyati – bevosita biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlar yaratishni nazarda tutmasada, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari taqlid qilish orqali bola tomonidan o'zlashtiriladigan faoliyatdir.

O'qish faoliyati - shaxs kamolotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko'nikmalar o'zlashtiriladi.

Umumiy psixologiya – umumiylar psixologik qonuniyatlar, mexanizmlar, murakkab ichki bog'lanishlar, nazariy va metodologik tamoyillar, ilmiy tadqiqot metodlari, psixikaning filo va ontogenetik o'zgarishlarini, ilmiy tushunchalar va kategoriyalari, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan o'rganadigan fan sohasidir.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi - inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida psixologiyada keng qo'llaniladi.

Faollik – inson qandaydir faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir etishi va maqsadlarini amalga oshirishida ob'ektiv hamda sub'ektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan yengishidir.

Fasilitatsiya - inglizcha «*facilitate*» so'zidan olingan bo'lib, "engillashtirmoq" degan ma'noni anglatib, o'zgalarning borligi tufayli shaxs faolligining ortishi, ishining yengillashuvi va samaradorligi tushuniladi.

Frustratsiya - doimiy stress oqibatida maqsadning yo'q bo'lib qolishi, rejaning izdan chiqish holatidir.

Xayol - inson ijodiy faoliyatining tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi, u tizimiylar xususiyatli xatti-harakatning oraliq va yakuniy mahsullari orqali aks etadi, muammoli vaziyatda noaniqlik, noma'lumlik alomatlari vujudga kelsa, u holda faoliyat rejasini qayta ko'rib chiqishni ta'minlash imkoniyatiga ega.

Xarakter – ijtimoiy muhit ta'sirida tarkib topib, shaxsnинг atrofdagi voqelikka va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatida ifodalanadigan, muayyan sharoitda tipik xulq-atvor usullarini belgilab beradigan barqaror individual psixik xususiyatlar yig'indisidir.

Xotira - individning o'z tajribasini esda olib qolishi (fiksatsiya), esda saqlashi (retensiya) va keyinchalik uni yana esga tushirishi (reproduksiya) yoki unutishi jarayoni.

His-tuyg'u – kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bo'layotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir.

Shaxs yo'nalganligi - psixologiyada ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo'naltirib turadigan hamda real vaziyatlarga nisbatan turg'un va barqaror motivlar majmuiga ega bo'lish deb, ta'riflanadi.

Shaxs - muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug'ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individdir.

Ekzopsixika - shaxsning tashqi muhitga nisbatan munosabati, shaxsga qarama-qarshi bo‘lgan barcha jihatlari, shaxslararo va ob’ektiv munosabati ifodalanadi.

Eksperimental psixologiya – eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qilishning umumiy sohasi. XIX asrning o‘rtalarida psixologik hodisalar ustidan ilk bor amaliy eksperimental-psixologik tadqiqotlar o‘tkazilgan. V.Vundt eksperimental psixologiya-ning fan sifatida ajralib chiqishiga o‘zining katta hissasini qo‘shgan.

Eksterioreseptiv sezgilar - tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishga moslashgan hamda reseptorlari tananing sirtqi qismida joylashgan bo‘ladi.

Eksteriorizatsiya - aqlda shakllangan g‘oyalarni bevosita tashqi harakatlarga yoki tashqi faoliyatga ko‘chirilishidir.

Ekstravertlik - shaxs faoliyati va reaksiyasi ko‘p jihatdan favquloddagi tashqi taassurotlarga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Emotsiyalar – «hissiyot» («emotsiya») va «his-tuyg‘u» so‘zлari ko‘pincha sinonimlar sifatida qo‘llaniladi. «Emotsiya» so‘zini o‘zbek tiliga aniq tarjima qilinganda u ruhiy hayajonlanish, ruhiy harakatlanish degan ma’noni anglatadi.

Endopsixika - shaxs psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funksiyalarning o‘zaro bog‘liqligida aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi–T.: “O'zbekiston”, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun- T.: “O'zbekiston”, 2022.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2017 y, 104 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining “O'zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 y, 488 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining “O'zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi.
1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2016 y, 56 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining “O'zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi.
2. Карандашев, В. Н. Введение в профессию: психолог : учебник и практикум для вузов / В. Н. Карандашев. — 7-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2024. — 476 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-12213-8.
3. G'ayibova N.A. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. T.: “ZAMON POLIGRAF” nashryoti. 2023.-232 .
4. Avezov O.R Mutaxassislikka kirish. Darslik . T.: Durdona nashryoti 2021
5. David G. Mayers “Psychology ninth addition in moduls ”2010. 6-7 pages.
6. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002y.
7. G'oziyev E. G'. «Umumiy psixologiya» 1-2 том. Toshkent-2002y-220b
8. Ivanov P.I., Zufarova M. «Umumiy psixologiya» T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008 yil
9. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. «Umumiy psixologiya» T.: Fan va texnologiyalar 2010 yil
10. Клинов Е.А. «Общая психология». Речь, Москва-2001
11. Штерн А.С. «Введение в психологию» М.: Академия Спб 2002.
12. David G. Myers “Psychology ninth edition in modules”. NY, WORTH PUBLISHER-2010.4-5pages.
13. Abramova G.S. Prakticheskaya psixologiya. Moskva, «Akademicheskiy proekt», Moskva, 2001.
14. I.V.Dubrovina Prakticheskaya psixologiya obrazovaniya. Sankt-Peterburg, Piter, 2004.
15. Mayers D. Psixologiya. Minsk, «Popurri», 2008.
16. Karimova V., Akramova F. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2000.
17. Karimova V.M. Psixologiya. T.: Sharq, 2000.
18. Kudryavaya N. V., Ye.M.Ukolova, Smirnova N. B., Voloshina Ye. A., Zorin K. V. (Pod obuzeu redaksiey: N. V. Kudryavaya) Pedagogika v medisine. M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2012

19. Kelvin S.Xoll, Gardner Lindsey. Teoriya lichnosti / per. S angl. I.B.Grinnshpun. – 2-e izd. – M.: Psixoterapiya, 2008
20. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. – Toshkent, «O‘qituvchi», 2001
21. Nemov R.S. Prakticheskaya psixologiya. Vlados, 2002
22. Nemov R.S. Prakticheskaya psixologiya. Poznanie sebya: Vliyanie Na Lyudey: Posobie Dlya Uch-Sya. - M: Gumanit. Izd.Sentr Vlados, 2003
23. Nemov R.S. Psixologiya. M.: Vlados, 2003. 1-2 t.
24. Novgorodseva I.V. Pedagogika v medisine. Izdatelstvo «FLINTA», 2017
25. Akimova M.K., K.M.Gurevich. Psixologicheskaya diagnostika. Moskva, 2005.
26. Burmenskaya G.V.,Karabanova O.A., Liders A.G. Vozrastno-psixologicheskoe konsultirovanie.Moskva, MGU, 1990.
27. A.YU.Malenova Vvedenie v professiyu v sxemax i tablitsax. Omsk, Izd-vo OmGU,2004
28. Shvansara Y. i dr. Diagnostika psixicheskogo razvitiya- Praga, 1978.
29. Rean A.A., Bordovskaya N.V., Rozum S.I. Psixologiya i pedagogika. Uchebnik dlya vuzov. - SPb.: Piter, 2002
30. Umarov B.M. Psixologiya (2-nashr. Nopedagogik, nopsixologik oliv ta’lim muassasalari talabalari uchun dasrlik). “Voris” nashriyoti,- Toshkent, 2012
31. Umarov B.M., Raxmanova D.R. Osnovi uchebno-psixologicheskoy deyatelnosti studentov vuza. Izd. im. G.Gulyama, Tashkent, 2008 g. 111 str.
32. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahriri ostida. – T.: «O‘qituvchi», 1992.
33. Freydjer R., Feydimen D. Bolshaya kniga psixologii. Lichnost. Teorii, uprajneniya, eksperimenti. /per. s angl.-SPb.:Praym-EVROZNAK. 2008
34. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. –T.: TDPU, 2010
35. G’oziev E. Yosh davrlari psixologiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 2008. Uchinchi nashr
36. Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. - T. 2005.
37. Chaldini R. Kak nauchitsya ubejdat i dobivatsya uspexa / Robert Chaldini; [per. s angl. O.Epimaxova]. –M.: Eksmo, 2010
38. Shoyimova Sh.S. Shaxs psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. «LESSON PRESS» Toshkent, 2017 y
39. Myers David G., DeWall C. Nathan. Psychology. Hardcover, Revised. 2015.
40. Criteria for High-Quality Assessment. Stanford Center for Opportunity Policy in Education. Chicago. 2013.
41. Dominic Upton, Annie Trapp. Teaching psychology in higher education. Copyright © 2010 Blackwell Publishing Ltd . 328 pages.
42. Nine Principles of Good Practice for Assessing Student Learning. Authors: American Association for Higher Education (AAHE), 2014

43. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010.
44. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002. 1-2 Kitob.
45. Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. - T. 2005.
46. Shoyimova Sh.S. Muloqot psixologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma «ZAMON POLIGRAF»OK Toshkent, 2017.
47. Myers David G., DeWall C. Nathan. Psychology. Hardcover, Revised. 2015.
48. Davis S. F. Handbook of Research. Methods in Experimental Psychology. Wiley-Blackwell, 2003.
49. Syed Amin Tabish. Assessment Methods in Medical Education. 2012.
50. Tony Buzan. Mind Map mastery. The complete guide to leering and using the most powerful thinking tool in the Inverse. 2018 years. 233 page.
51. Nemov R.S. Psixologiya. M.: Vlados, 2003. 1-2 t.
52. ФАбрамова Г.С. Prakticheskaya psixologiya. Moskva, «Akademicheskiy proekt», Moskva, 2001.
53. Dubrovina I.V. Prakticheskaya psixologiya obrazovaniya. Sankt-Peterburg, Piter, 2004.

Internet saytlari:

1. www.edu.uz - OO‘MTV rasmiy sayti
2. www.ziyonet.uz - ta’limiy portal
3. www.pedagog.uz - TDPU rasmiy sayti
4. www.natlib.uz - Alisher Navoiy nomli O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti.

M U N D A R I J A

Kirish.....	3
1-mavzu. Psixologiya fan sifatida.....	5
2-mavzu. Psixologiya tarmoqlari va psixolog kasbiy faoliyati.....	24
3-mavzu. Psixolog kasbiy faoliyati va psixologiya metodlari.....	35
4-mavzu. Psixologlarni tayyorlash bosqichlari.....	41
5-mavzu. Psixologik xizmat va uning asosiy yo'nalishlari.....	47
6-mavzu. Psixologni ta'lif tizimining turli bo'g'inlaridagi faoliyati.....	53
7-mavzu. Tibbiyat va ishlab chiqarish sohasida psixologik xizmat.....	61
8-mavzu. Huquq va sport sohasida psixologik faoliyat.....	68
9-mavzu Oilaga psixologik xizmatni tashkil etish.....	72
10 –mavzu Psixolog faoliyatida psixodiagnostik metodlar.....	77
11- mavzu Psixologik maslahatni tashkil etish.....	83
13- mavzu Psixokorreksiya va psixoterapiya masalalari.....	88
14 mavzu Psixologik yordamni tashkil etishning guruhiy va individual shakllari.	94
15 mavzu Professional psixolog rivojlanishi masalalari.....	105
16 mavzu Psixolog faoliyatini nazorat qiluvchi etik tamoyillar.....	112
Glossariy.....	118
Adabiyotlar ro'yxati.....	127

DILAFRO'Z BOTIROVA

**MUTAXASSISLIKKA
KIRISH**

O‘quv qo‘llanma

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
tomonidan oliy o‘quv yurtlarining 60310300-Psixologiya bakalavriat ta’lim
yo‘nalishlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

UO'K: 159.9

KBK: 88.4

J-80

D.B.Botirova Mutaxassislikka kirish O'quv qo'llanma – T., 2025. – 130 b.

Taqrizchilar:

Abdullayeva Sh.X. - psixologiya fanlari doktori, professor

Dushanov R.X. - psixologiya fanlari doktori, v.b., professor

Mazkur o'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining 2025-yil 28-maydagi 126-UM- son buyrug'iiga asosan O'quv- uslubiy kengashining 2025 yil 16 may oyidagi 8-sonli majlisida muhokama etilib. nashr etishga ruxsat berildi.

Bosishga ruxsat etildi: 29.05.2025

Bichimi 60x84 1/16 Sharthli 8,25 b.t.

50 nusxada bosildi. Buyurtma №

Toshkent davlat sharqshunoslik
universitetining kichik bosmaxonasi.
Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20 uy.